

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-9/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abdualimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.
Masharipova Feruza Jumanazarovna, PhD

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Pazilov Abdvayeyit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.
Zaripova Ranojon PhD, dotsent

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№9/3 (118), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 145 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA TARIX FANLARI

Allayorova S. Kesh allomalarining hayoti va faoliyati tarixiy manbalarda	5
Amonov B. Muhaddis Badruddin Ayniyning hanafiy mazhabi rivojiga qushgan hissasi	7
Babayev R.K. Ustrushonaning ilk o'рта asrlarda ijtimoiy-siyosiy hayoti	11
Isakova M. Turkiston o'lkasida harbiy ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimini o'rnatilishi	14
Ismoilova X.J. Ahmad Javdatning tarix va islom ilmlariga oid asarlari	17
Kasimova G.A. O'zbekiston SSRda kadrlarni milliy masalasi	20
Matkarimova S.M., Tadjiyeva N.J. Xiva xonligida rus va tatar-boshqird tadbirkorlari faoliyati	26
Murodova G. O'zbekistonda Avestoni o'rganish maktabi shakllanishi va rivojlanishi	30
Safarov T.T. Buxoro amirligida yashagan xalqlar, urug'lar va ularning umumiy tasnifi	33
Tadjiyeva F.J. Xiva xonligida vaqf hujjatlari va ularning xonlik tarixini o'rganishdagi ahamiyati	36
Tadjiyeva F.J. Nemis mennonitlarining Xiva xonligi tarixida tutgan o'rni	40
Umarov A.Sh. V.G. Moshkova tadqiqotlarida Nurota turkmanlari	44
Бабаджанов Д.К. Эпиграфические памятники XIX в. кладбища Чагатай города Ташкента	48
Бурхонов И.М. Қўлёмаларни таснифлаш амалиётида А.Ўринбоевнинг хизмати	52
Кадираджиева Л.Б. Понятие и распределение гендерных ролей в кризисных семьях	55
Маткаримова Н.М. Развития искусства бахши в процессе эпических традиции в Хорезме	57
Маткаримова Н.М. Исторические основы и этапы развития сказительниц-халфы	60
Матсалаева Г.З. Қасим Аvezов Қорақалпоғистоннинг Бутун Россия РСФСР марказий ижроия қўмитаси президиуми ҳузуридаги доимий вакили	63
Матхолиқов Қ.А. Совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда амалга оширган халқаро туризм соҳасидаги сиёсати	68
Махкамов А.М. Ўзбекистон суд тизимида кадрлар билан боғлиқ муаммолар	71
Махмудов М. Абдурауф Фитратнинг тарих ва миллий маданий мерос мавзуси оид қарашлари	74
Раджабова Д.Н. XIX аср охири – XX аср бошлари Россия тарихшунослигида Қўқон хонлиги давлатчилиги тарихининг айрим масалалари	77
Садыкова Р.Ш. Историографический обзор и источниковедческий анализ становления, формирования и развития движений за независимость в Индии и Пакистане	82
Хатамова З.Н. Қўқон хонлиги тарихида пул сиёсати масаласи	85
Эшимов Ш.Х. Қашқадарё вилояти судларини кадрлар билан таъминлаш масаласи	87

PEDAGOGIKA FANLARI

Allayorova Sh.P. The imperative role of modern pedagogical technologies in higher education	91
Bekkulova H.Z. Enhancing pedagogical training through integrated school-university models	93
Choriyeva N.M. “Odam fiziologiyasi” fanini o'qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish	97
Dusyorova L. Maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish	101
Isamuxamedova M.N. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining unikal va universal kasbiy komponentlarini rivojlantirish	104
Karimova N. Chet tilini o'qitishda (barqaror rivojlanish maqsadlarini) integrasiya qilish	106

Karimova N.D. Ingliz tilini o'qituvchi sifatida sdgs (qat'iy iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga) katta hissa qo'shish	109
Musayeva N.E. The role of listening comprehension in language learning: a focus on english for tourism students	111
Raxmatova S.T. Biologiyadan talabalarni elektron resurslar yaratish va foydalanishga tayyorlash yo'llari	114
Sultanova D.S. Ta'limning ijtimoiy sifatga ta'siri	117
Valiyeva Sh.A. The purpose of media competence in elementary grades in english language teaching	120
Xakimova M.A. The technology of effective application of the dialogue method in the english lesson	122
Yaxshiboyeva G.O. Tibbiyot institutlarining paramedicsina yo'nalishi talabalarga ingliz tili o'qitishning psixologik va lingvistik jihatlari	125
Yoqubova N.N. Teaching a professionally oriented language at a technical university	130
Ziyotov F. Ingliz tili o'qitishda "think, pair, share" texnologiyasidan foydalanish	132
Жураева Н.Т., Очилова Х.Ш. Реформы, осуществленные в системе дошкольного образования и их эффективные результаты	134
Закирова Б.Б. Транслингвальный подход в преподавании иностранных языков: психолингвистическая основа	138
Исмаилова Б.Ю. Таълим жараёнида инглиз тилидаги ўқув материаллини ўзлаштириш асослари	141

UO'K 930

KESH ALLOMALARINING HAYOTI VA FAOLIYATI TARIXIY MANBALARDA*S.Allayorova, talaba, Qarshi davlat universiteti, Qarshi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarixiy manbalarda yoritilgan milliy ma'naviy merosimizga katta hissa qo'shgan Kesh allomalarining hayoti va faoliyati tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ma'naviy meros, tarixiy manba, Kesh, ilm-fan, olimlar.

Аннотация. В этой статье анализируются жизнь и деятельность ученых Кеш, которые внесли значительный вклад в наше национальное духовное наследие, освещенное в исторических источниках.

Ключевые слова: духовное наследие, исторический источник, Кеш, наука, ученые.

Abstract. This article analyzes the life and work of Kesh scientists, which have made a significant contribution to our national spiritual heritage, covered in historical sources.

Keywords: spiritual heritage, historical source, Kesh, science, scientists.

Ko'hna tarix silsilasida hozirgi xur diyorimiz zaminidan jahon ilm-fani rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan ko'plab olimu fuzalolar yetishib chiqqan. Ular orasida boy tarixga ega bo'lgan Qashqadaryo zaminida tug'ilib voyaga yetgan, asarlari o'lkamiz tashqarisida ham ma'lum va mashhur allomalar ham bor.

“Qubbatul ilm va adab” deb ta'riflangan Kesh-Shahrisabzdan yetishib chiqqan, nomlari ko'plab tarixiy manbalarda qayd etilgan, o'z asarlari bilan nom qoldirgan allomalar ham oz emas.

IX – XII asrlar Turon zaminida ilm-fan gurkirab o'sgan davr bo'lib, Keshda ham ko'plab sermahsul allomalar ijod qilishgan. Muxaddis, tafsirchi, tarixchi Najmiddin Umar ibn Muhammad ibn Ahmad an-Nasafiy (1069-1142y.y) o'zining “Al qand fiy zikri ulamon” Samarqand (“Samarqand ulamolari xotirasiga doir qanddek shirin kitob”) asarida keshlik 9 nafar allomaning hayoti va ijodi haqida hikoya qilgan. Ular orasida Abd ibn Humayd ibn Nasr Keshiy (Keshiy) alohida o'rin tutadi. Mazkur muhaddis, mufassir, faqih, tilshunos olim haqida, shuningdek, Shamsiddin Zahobiyning Bayrutda 1302-yilda chop etilgan “Siyar a'lom an-mubalo”, “Tarix al-Islom”, Xatib al-Bag'dodiyning “Tarixi Bag'dod”, Abu Muhammad Mahmud ibn Muso Ahmad ibn Husayn G'aytobi Hanafiyning “Al-Maktobat ash-shomila”, Al-Jayoniy Andalusiyning “Alqob al-sahobati vat-tobiyina fti sahihayni “al – maktobat ash – shomila”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarlari haqida qator ma'lumotlar berilgan.

Abd ibn Humayd Keshiy (786-863y.y) Movarounnahrda yetishib chiqqan dastlabki muhaddis-hadis olimlaridan hisoblanadi. U ilm o'rganish uchun Buxoro, Samarqand, Bag'dod, Basra, Kufa, Shom, Naysobur (Nishopur), Makka, Madinada bo'lib ko'p olimu ulamolardan bilim olgan. Shamsiddin Zahobiyning ta'kidlashicha, u ilm istab ikki yuzdan ziyod joyga safar qilgan. Turli sohalarda chuqur ilm olib, o'zi ham asarlar yozgan. Uning arab tiliga oid “Kitab ala xuruf al – mu'jam” (“Harflar to'g'risida kitob”), “At-tasarif” (“Turlanish”), “Kitob fa'ltu va af'altu” (“fe'lning fa'la bir va to'rt turlari haqida kitob”), hadishunoslik, ilmi kalomga doir “Tafsir al- Kabiyr”, “Musnad al – kabiyr” kabi asarlari shular jumlasidandir.

Najmiddin Umar Nasafiy o'z kitobida tilga olgan keshlik allomalardan biri Abu Ahmad Iso Ibn al-munayd an – Navxiy al-Adiyb al-Kissiydir. U arab tilini yaxshi bilgan, “Kitob ut-tasrif” nomli asarida tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib bergan. Abu Ahmad al-Kissiy hadis ilmida ham nomi chiqqan olimlardan biri bo'lgan. Undan hatto Imom Buxoriy, Abd ibn Humayd Keshiy hadis keltirishgan. Mashhur allomalardan biri Sahl ibn Shozuya: “Men Abu Ahmad Iso ibn Al-Junayddan aqlliroq birorta xurosonlikni va arab tilini undan ko'proq biluvchi birorta kishini ko'rmadim” deb yozgan.

Hijriy V asrda Keshda tug'ilib o'sgan va ijod qilgan yirik ulamolardan biri Abu Shakur Muhammad ibn Abdulloh as-Said ibn Shuayb as-Solimiy al-Keshiydir. Abu Shakur As- Solimiyning shaxsiyati va ilmiy - ma'naviy merosi bilan bog'liq bir qator qomusiy ulamolarning kitoblarida

keltirilgan. Jumladan, Xoji Xalifaning “Kashfu-z- zunnun” kitobida yevropalik sharqshunoslardan K. Brokkelman, B.Madelung, Yu.U.Rudolf, yurtimiz olimlaridan Shayx Abdulaziz Mansur, Ashirbek Mo'minov, Saidmuxtor Oqilov kabi olimlarning tadqiqotlarida bayon etilgan.

Shamsiddin Muhammad Keshiy olim, orif, sufiy bo'lib, ilm istab Keshdan Eronga borib qolganva ushbu diyorda dafn etilgan. Uning mashhur asarlaridan biri “ Kitob al-hadi fi al-nahm” (“Arab tili grammatikasi”) asaridir. Uning qo'lida ta'lim olgan shogirtlari ko'p bo'lgan, shulardan biri Qutbiddin Mahmud bin Ma'sud bin Muslix Sheroziy bo'lib Eronda taniqli allomalardan biri bo'lgan. Shamsiddin Muhammad Keshiy haqida Eronda taniqli allomalardan biri bo'lgan. Shamsiddin Muhammad Keshiy haqida Eronda nashr etilgan “Lug'atnoma” kitobida batafsil yozilgan.

XII asrning taniqli olimlaridan biri Ahmad ibn Muso Al – Keshiy bo'lgan. U 550 hijriy, 1115 milodiy yilda “ Majmua ul – xavodis van navozil” asarini yozgan bo'lib, bir nusxasi Turkiyadagi Sulaymoniya kutubxonasida saqlanmoqda. Ammo bu asar hozirgacha tadqiqotchilar tomonidan o'rganib chiqilmagan.

Amir Temur davrida yashagan va Sohobqiron xizmatida bo'lgan allomalardan biri Jaloliddin Keshiydir. Uning to'liq ismi Jaloliddin al- Xolidiy al-Keshiy bo'lib uning tavallud va vafot etgan yillari aniq emas. Jaloliddin diniy ilmlarni egallash uchun Keshdan Buxoroga borib, Suxori qishlog'ida yashayotgan mashhur shayx Sayid Amir Kulolga shogirt tushadi. Bilimga chanqoqligi, zehni o'tkirligi, tirishqoqligi uchun shayxning yetuk shogirtlari safidan joy oladi.

Hazrat Sohobqiron uning chuqur bilimi, hayotiy tajribasidan diplomatic ishlarda ham foydalangan. Xusussan, Amir Temurning topshirig'i bilan Xorazm o'lkasiga ikki davlat o'rtasida vujudga kelgan nizolarni tinch yo'l bilan hal etish uchun elchi bo'lib yuborgan. Jaloliddin Keshiy Xorazm voliysi Husayn Sufi bilan olib borgan muzokaralarning natijasi haqida Sharofiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” asarida shunday yozadi: “Mavlono Jaloliddin xayrixohlik yuzini Xorazm tomon qaratdi va bu muhim (vazifa)ni rahmi shavqat yo'li bilan hal etmoqchi bo'ldi. U yerga borgach, donishmad ulamo va dinparvar peshvolarga xos bo'lgan nasihat va xusmuomalalik bilan so'z qotdi; nizoni tubdan bartaraf etish va fitna olovini o'chirish uchun oyatlar va isbotiga hadislar keltirdi”.

“Chahor kitobi turkiy” asarida “Chahor kitob” darsligining “Bidon” (o'rgan, bil deb nomlamgan) ikkinchi qismi Jaloliddin Keshiy qalamiga mansub ekanligi aytilgan.

Keshlik ulamolar haqida so'z ketganda Sulton Sayid Ahmad Vali-xazrati Bashirni tilga olmasdan bo'lmaydi. U XIV asrning oxirida va XV asrning 60-yillarida yashab o'tgan. Tasavvufning Yassaviya, Mavlaviya, Naqshbandiya tariqatlariga to'liq amal qilgan. O'zi mehnat qilib, kun kechirgan. Uning haqida turli rivoyatlar to'qilgan.

Keshning mashhur allomalaridan biri Mavlono Xoja Imkaganiy bo'lgan. Naqshbandiya shayxlaridan bo'lgan. Xoja Imkaganiy XV asrning oxiri va XVI asrning ikkinchi yarimida yashab o'tgan.

Sharofiddin Rokimiy “Tarixi tom” asarida, “Imom Buxoriy saboqlari” jurnalining 2009-yil 2-sonida bosilgan Alamjon Ismatullohxoja o'g'li Naberaevning “Tarixiy hujjat yoxud irshodnoma” maqolasida ushbu zot haqida ayrim ma'lumotlar berilgan. Mavlono Xoja Imkaganiy padari buzrukvorlari hazrat Mavlono Muhammad Darvesh Imkaganiydan diniy bilim o'rgangan. Otalari esa tog'asi Mavlono Muhammad Zohiddan, bul zot xazrat Xoja Ubaydulloh Ahrordan ta'lim olgan. “Tarixi tom”da Hazrati Mavlono Xoja Imkaganiy muridlari ko'p bo'lib, ular orasida viloyatlarning voliyarlari ham bor edi, deb yozilgan.

Mavlono Imkaganiy hijriy 1010, milodiy 1600 yilda Samarqandda vafot etib, o'zi tug'ilib o'sgan hozirgi kitob tumanidagi Xo'jaimkapa qishlog'ida dafn etilgan.

Mushtoq Shahrabisabziy, Mulla Qurbon Xiromiy, Mirzo Umrboqiy Shahrabisabziy (Samarqandiy), Farax Shahrabisabziy XIX asrda yashagan ijodkorlar sirasiga kiradi.

Abdulkarim Fazliy Namangoni “Majmuai shoiron” asarida bir necha yil Qo'qonda yashab ijod qilgan Mushtoq Shahrabisabziyni ta'bi raso shoir deb ta'riflagan. U bir-biridan yaxshi, go'zal, g'azal, ruboiylar yozgan.

Kitob shahrida tavallud topgan Mulla Qurbon Xiromiy “Chor darvesh”, “To'tinoma”, “Ra'no va Zebo”, “Yusuf va Zulayho” kabi dostonlar yozib qoldirgan.

Farax Shahrizabziy esa Junaydullo Hoziq Shahrizabz va Kitobda yashaganida, she'riyatda undan ko'p narsalarni o'rgangan.

Shahrizabzlik shoir, olim, tarjimon Abdulla Rahmonov Gulshaniy umrining ko'p yillari Qamashi tumanida kechgan. Gulshaniyning 2 jilddan iborat "Gulistoni Gulshaniy" devoni, 3 jilddan iborat tojikcha she'rlar to'plami undan meros bo'lib qolgan. Abdulla Gulshaniy yaxshi xattot va forsiy asarlarning mohir tarjimoni ham edi.

Fayzulloxo'ja Ravnaqiy, Ismoilxon Faqiriy Najmiddinxon Asiriy bir-biriga qondosh-qarindosh bo'lgan bir sulola vakillaridir. Moskvada chop etilgan "Sobiq Rossiya imperiyasi hududida islom" nomli qomusiy luga'tda, Eronning Qum shahrida nashr etilgan "Ravnaqiy Shahrizabziy kutubxonasidagi asarlarning mundariyasi" kitobida ular haqida batafsil ma'lumotlarni topish mumkin.

Ushbu ilmiy maqolada biz ko'hna Keshdan yetishib chiqqan alloma, shoir, ulamolarning hammasi haqida bayon etdik, degan xulosadan yiroqmiz. Hali biz bilmagan, qo'lyozmalari o'rganishga navbat kutayotgan yurtdoshlarimiz albatta bor. Biz bilganlarimiz, yozganlarimizning ayrimlari hayoti va ijodi hali to'liq o'rganilmagan, asarlari chop etilmagan. Demak, bundan keyin olimlarimiz, tadqiqotchilarimiz oldida bu sohada qilinishi kerak bo'lgan ma'suliyatli vazifalar turibdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shukhratovich T. B. History of training of secondary medical services in Uzbekistan //EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR). – 2021. – T. 7. – C. 1-1.
2. Farxodjonova N. F. Relation to national culture in the condition spiritual renew of society in the republic of uzbekistan //Мировая наука. – 2018. – №. 6 (15). – С. 14-17.
3. Farxodjonova N. Глобаллашув шароитида миллий кадрятларда интеграция //Scienceweb academic papers collection.–2020.

UO'K: 821.512.133(092)

MUHADDIS BADRUDDIN AYNIYNING HANAFIY MAZHABI RIVOJIGA QUSHGAN HISSASI

B.Amonov, PhD, rektor, Hadis ilmi maktabi, Toshkent

Annotatsiya. Badruddin Ayniy XIV-XV asr Bahriy mamluk sultonligida yashagan mashhur tarixchi olimlardan biri bo'lib, faqih, muhaddis, tarixchi sifatida ilmiy faoliyat olib borgan. Alloma sultonlik uchun diniy peshvo, Misr aholisi uchun fiqh, hadis, islom tarixi, grammatika ilmlarida ulug' ustoz sifatida, shuningdek, uning hayoti va ilmiy merosini o'rgangan tadqiqotchilar nigohida serqirra olim sifatida namoyon bo'ladi.

Badruddin Ayniy tafsir va Qur'on ilmlari, hadis, islom tarixi, arab tili grammatikasi yo'nalishlarida kitob yozish bilan birga, hanafiy fiqhida ham o'n beshga yaqin asarlar tasnif etgan. Maqolada allomaning hanafiy mazhabida hanafiy olim va hanafiy mazhabining bosh qozisi sifatida faoliyat olib borgan, hanafiy an'analari asosida asarlar tasnif etgani, XIV-XV asr Bahriy mamluk sultonligida ahli sunna val jamoa yo'nalishining fiqhiy mazhablarini ayniqsa, hanafiy mazhabining rivojlanishiga qo'shgan hissasi ochib beriladi.

Kalit so'zlari: Badruddin Ayniy, hanafiy mazhabi, qozilik, Mamluklar davrida fiqh va hadis ilmi, "Umdat al-qoriy sharh Sahih al-Buxariy", "Binoya sharh al-hidoya".

Аннотация. Бадруддин Айний был одним из известных учёных-историков, жившим в Бахри-Мамлюкском султанате XIV-XV веков и занимавшимся научной деятельностью как правовед, мухаддис и историк. Аллама считается религиозным лидером Султаната, великим учителем юриспруденции, хадисов, исламской истории и грамматики для народа Египта, а также великим ученым в глазах исследователей, изучавших его жизнь и научное наследие.

Помимо написания книг в области тафсира и коранических наук, хадисов, истории ислама, арабской грамматики, Бадруддин Айни также классифицировал около пятнадцати работ по ханафитской юриспруденции.

В статье раскрывается, что ученый работал ханафитским ученым и главным судьей ханафитского мазхаба, классифицировал произведения, основанные на ханафитских традициях, внес вклад в развитие юридических школ общины Ахль ас-Сунна валь, особенно ханафитского мазхаба, в Султанат Бахри-Мамлюк XIV-XV веков.

Ключевые слова: Бадруддин Айни, ханафитский мазхаб, судейство, юриспруденция и хадисоведение мамлюкского периода, «Умдат аль-қари шарх Сахих аль-Бухари», «Биная шарх аль-хидая».

Abstract. Badruddin Ainiy was one of the famous historical scholars who lived in the Bahri Mamluk Sultanate of the 14th-15th centuries. Allama is seen as a religious leader for the Sultanate, a great teacher in (fiqh) jurisprudence, hadith, Islamic history and grammar for the people of Egypt, as well as a great scholar in the point (eyes) of researchers who have studied his life and scientific heritage.

In addition to the books in the fields of tafsir and Qur'an sciences, hadith, Islamic history, Arabic language grammar, Badruddin Aini also wrote about fifteen works on Hanafi jurisprudence. The article reveals that the scholar worked as a Hanafi scholar and chief judge of the Hanafi madhhab, classified works based on Hanafi traditions, and contributed to the development of the jurisprudential schools of the ahli sunna va al-jamaa, especially the Hanafi madhhab, in the Bahri Mamluk Sultanate of the 14th-15th centuries.

Key words: Badruddin Aini, Hanafi madhhab, judgeship, science of jurisprudence (fiqh) and hadith during the Mamluk era, "Umdat al-Qari Sharh Sahih al-Bukhari", "Binaya Sharh al-Hidaya".

Badruddin Ayniy mamluklar davrida yashagan mashhur tarixchi olimlardan biri bo'lib, faqih, muhaddis, tarixchi sifatida ilmiy faoliyat olib borgan. Bu allomaning hayoti va ilmiy merosi borasida olib borilgan turli yondashuvdagi tadqiqotlarda, uning tasnif etgan asarlari orqali o'rganilganda u buyuk faqih, muhaddis, tarixchi va grammatik olim ekanligi o'z aksini topgan. Barcha asarlarida, qaysi yo'nalishda bo'lishidan qat'iy nazar, uning turli imlarda mohir bo'lgani sezilib turadi. Ayniqsa, hadis ilmi rivojiga qanchalik hissa qo'shgan bo'lsa, mamluk sultonligida yozgan asarlari, fiqhiy qarashlari, egallagan lavozimlari bilan hanafiy fiqhining keng yoyilishiga ham undan kam hissa qo'shmadi. Shuning uchun ham bugungi kunga qadar buyuk hanafiy olimlar qatorida zikr qilinadi.

Olim yashagan Bahriy mamluklar davrida ilm-fanga katta e'tibor qaratildi, hatto Misr va Shom diyorlarida madrasa, masjid va kutubxonalar barpo qilish bo'yicha kim o'zarga kirishib ketdilar. Diniy ta'limni rivojlantirish maqsadida vaqf fondlarni joriy qilish bilan birga, mudarris va talabalarga ulush ham tayinladilar. Ayniy mana shu davrda faoliyat olib borayotgan madrasalar mazhablar va turli diniy ilmlarga ixtisoslashganligi bilan mashhur edi. Ba'zi madrasalar hanafiy fiqhi, ba'zilari shofeiy yoki molikiy, yoki bir vaqtning o'zida to'rt mazhab fiqhiga, shuningdek, hadis yoki qiroat, yoki tafsirga ixtisoslashgan madrasalar bo'lgan. Lekin hanafiy mazhabiga ixtisoslashtirilgan madrasalar faqat hanafiy mazhabini o'rgatish bilan cheklanmas, balki boshqa mazhab talqinida hadis, tafsir, qiroat, mantiq kabi ilmlardan ta'lim berilar edi. Bu davr faqihlari, asosan, to'rt mazhabdan birini mahkam ushlagan. Bir mazhabdan boshqa mazhabga o'tishga va bemazhablikka qarshi turishgan [13, 19].

Misrda mazhab ilmlarini o'rgatishga, ayniqsa, hanafiy mazhabiga asoslangan madrasalarning tashkil etilishi va Sultonlar hanafiy olimlarning dars berishiga katta ahamiyat bergan. Shuning uchun bu davrda Misrda Alouddin Sayramiy, Badruddin Ayniy kabi ko'pgina ulug' hanafiy ulamolarning to'planishgan va hanafiy maktabini qayta shakllanishiga hamda ko'pgina hanafiy fiqhiy kitoblarning tasnif etilishida muhim ahamiyat kasb etgan.

XIV-XV asr Bahriy mamluk sultonligida Badruddin Ayniy sultonlik uchun diniy peshvo, Misr aholisi uchun fiqh, hadis, islom tarixi, grammatika ilmlarida ulug' ustoz sifatida, shuningdek, uning hayoti va ilmiy merosini o'rgangan tadqiqotchilar nigohida serqirra olim sifatida namoyon bo'ladi.

Olim hayotida siyosiy lavozimlarda ishlab, sultonlik ravnaqiga va yozgan asarlari bilan islom diniga, ayniqsa, hanafiy fiqhi rivojiga ulkan hissa qo'shgan. Badruddin Ayniy Qohirada bir nechta siyosiy va ma'muriy lavozimlarga tayinlangan bo'lib, 1426-yilda Sulton Beybars davrida hanafiy qozilarining kattasi etib tayinlanishi hanafiy mazhabining takomilida muhim ahamiyat kasb etdi.

Badruddin Ayniy tafsir va Qur'on ilmlari, hadis, islom tarixi, arab tili grammatikasi yo'nalishlarida kitob yozish bilan birga, hanafiy fiqhida ham o'n beshga yaqin asarlar tasnif etgan. Jumladan, "Binoya sharh al-hidoya", "Ramz al-haqoiq", "Durar uz-zahro" ("Porloq durlar"), "Masail al-Badriya" ("Badridin to'plagan masalalar"), "Mustajma" ("Jamlash so'ralgan masalalar"),

“Minhat us-suluk” (“Yo‘l tutish uchun tuhfa”), “G‘uror al-afkor” (“Sof fikrlar”), “Vasit Sharh al-muhit” (“Muhit asariga Vasit nomli sharh”), “Tatarbek al-Quduriy”, “Kitab al-manosik” (“Haj ibodatlariga haqidagi kitob”), “Muntaxab min masail rovat al-ulamo”, “Muqaddimat us-sudaniya”, “Sharh al-manor” nomli asarlar tasnif etgan [15, 300].

Badruddin Ayniy diniy ilmlarni bir mazhab asosida emas, balki ahli sunna val jamoa yo‘nalishidagi to‘rt mazhab imomlarining fiqhiy qarashlariga asoslangan asarlardan tahsil olgan. Aksar fiqhiy asarlarni hanafiy mazhabida ko‘zga ko‘ringan ustozlardan o‘rgangan. Ayniyning ta‘kidlashicha, hanafiy mazhabining asos-tayanch manbaridan biri Burhoniddin Marg‘oniy (vaf. 593/1197) qalamiga mansub bo‘lgan “Hidoya” asarini va boshqa kitoblarni ustoz Alouddin Sayramiy kabi ulug‘ shayxlardan o‘rgangan.

Keyinchalik Ayniy tomonidan bu asarga “Banaya fi sharh al-hidaya” nomli sharh yozilgan bo‘lib, mazhab imomlarining fiqhiy qarashlarini o‘z ichiga olgan, hanafiy fiqhi asoslari bayon qilingan eng yirik va muhim kitoblardan biri sanaladi [5, 704].

Masalalarga oid dalillarni keltirishda Jamoliddin Zayla‘iyning “Nasbur ro‘ya taxrij ahadis al-hidoya” kitobiga e‘timod qilgan. Masalalar yuzasidan mazhab imomlarining asoslarini keltirgandan so‘ng hanafiy mazhabida asos qilib olingan dalil bilan yakunlagan. Tahqiqchi Ayman Solihning ta‘kidlashicha, bu asarida hadislardan hukm olishda yengil yo‘l tutgan. Fiqhiy masalalarni dalillashda ayrim vaqtlarda hadislarining zohiriy ma‘nolaridan ko‘ra, uning botiniy ma‘nolariga yoki aqliy dallilarga yoki boshqa hadisning shar‘iy hukmiga suyangan. Masalan, Abu Hurayra raziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Nabiy (s.a.v.) bunday deganlar: **“Kim quyosh chiqishidan oldin bomdoddan bir rakatni topsa, batahqiq, bomdodni topibdur. Kim quyosh botishidan oldin asrdan bir rakat topsa, batahqiq, asrni topibdir”** (Beshovlari rivoyat qilishgan) [4, 59;13, 10].

Hanafiydan boshqa mazhablarga ko‘ra, bir odam uzr tufayli bomdod namoziga kech qolib, quyosh chiqmasdan avval bir rakatini o‘qib qolsa, quyosh chiqsa ham ikkinchi rakatini o‘qiyveradi. Uning namozi vaqtida o‘qilgan namoz hisoblanib, qazo bo‘lmaydi. Biroq hanafiy mazhabi ulamolari boshqa hadisga asoslanib, quyosh chiqishi bilan bomdod o‘qiyotgan kishining namozi buziladi, deb hukm chiqarganlar. Lekin bir kishi kech qolib, asrning bir rakatini o‘qiganidan keyin quyosh botib qolsa, namozi botil bo‘lmaydi. U o‘z namozini davom ettirib o‘qiyveradi. Namoz tugal bo‘ladi.

Muallif “Binoya fi sharh al-hidaya”ni hanafiy an‘analariga muvofiq sharhlash barobarida, bir masalaga oid bo‘lgan barcha mazhab imomlarining fiqhiy asoslari, qarashlarini keltirgan, so‘ngidan hanafiy mazhabi peshvolarining yondashuvlari va dalillarini oyat hamda hadislar asosida bayon qilgan. Asardagi fiqhiy masalalarni dalillashda “Sahih al-Buxoriy” sharhi “Umdat al-qoriy”da sharhlangan hadislardan keltirilganligi va hanafiy an‘analariga muvofiq sharhlangani bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot davomida uning “Masail al-Badriya” asarini quyidagi uslubda tasnif etishga e‘tiborini qaratgani aniqlandi: Ayniy “Fatava Zohiriya” qanday tartibda berilgan bo‘lsa, shu tartibga rioya qilgan, asar muallifi boblarda zikr qilgan mavzulardan tashqariga chiqmagan. Muallif keltirgan masalalarni muxtasar mazmunga keltirgan. Muallif ishora qilib o‘tgan hanafiy olimlarning fiqhiy qarashlarini keltirgan. Muallif mazhab imomlari o‘rtasidagi ixtiloflarni zikr qilgan bo‘lsa ham, Ayniy ularni o‘quvchini chalg‘itmasligi uchun tark etgan. Faqat hanafiy mazhabiga oid shar‘iy hukmni zikr qilgan. Asarda zikr qilingan fors tilidagi so‘z va matnlarni kiritmagan. Qur‘on va sunnatda keltirilgan dalillardan xoli holatda masalaning o‘zini keltirgan. Ayniyning bu kitobni yozishdan maqsadi, keng qamrovli bo‘lgan fatvo to‘plamidan xalqchil, o‘qish oson va muhim, muxtasar to‘plam yaratish ekani ma‘lum bo‘ldi.

Ulamolar tomonidan hanafiy fiqhiga doir ko‘plab fiqhiy matnlar yozilgan. Shulardan biri Abul Barakot Nasafiyning “Kanz ud-daqiq” asaridir. Hanafiy mazhabi ulamolari ushbu asarga yuqori baho berib, unga yuzdan ortiq sharh, ta‘liq, hoshiya va manzumalar bitishgan. Jumladan, Badruddin Ayniy “Kanz ud-daqiq” asariga “Ramz al-haqoiq fi sharhi kanz id-daqiq” sharhini yozgan. Asar muqaddimasida Qohirada turli lavozimlarda ishlagan davrda zamondoshlarining hasad va raqobatlariga sabab qiyinchiliklarga duch kelganini zikr qilib, undan so‘ng, Imom Abu Hanifa, Imom Molik, Shofeyy va Hanbaliylarning ham faoliyati davomida duch kelgan qiyinchiliklari va atrofda g‘ilarning hasadi va tuhmatidan chekkan aziyat hamda musibatlarini to‘g‘risida aytib o‘tgan. Chunki, muallif

“Kanz ud-daqiq”da fiqhning barcha bobiga tegishli qirq mingta masala va fatvolarni keltirgan. Shuningdek, zamondoshlari oʻrtasidagi munosabatlar va koʻp sodir boʻlgan voqealarga oid maʼlumotlar keltirilgan [3, 736].

Badruddin Ayniy ilmiy merosida fiqh va hadis ilmlarining uygʻunligi aks etadi. Olib borilgan tadqiqot davomida fiqhiy yoʻnalishda yozilgan asarida masalalarni dalillashda “Umdat al-qoriy” hadislar sharhidan foydalangan. Hadis ilmi yoʻnalishida yozilgan asarlarida matndagi sharʼiy hukmlarni bayon qilishda “Binaya fi sharh al-hidaya”da keltirilgan sharʼiy ahkomlardan foydalanganligi maʼlum boʻldi.

Hadis bilan fiqh fani oʻzaro chambarchas bogʻliq boʻlgan ilmlar sirasiga kiradi. Tarixdan maʼlumki, faqihlarning, albatta, hadisdan nasibasi va aksincha, muhaddislarning fiqhdan ulushi boʻlgani maʼlum boʻladi. Hadis olimlari faqihlar huzuriga borib, fiqhiy manbalarni oʻrganishar, ayni chogʻda, faqihlar ham muhaddislar huzuriga borib hadis ilmlaridan tahsil olgan.

Olim “Umdat al-qoriy” kitobini keng qamrovli sharhlab, unda koʻpgina fiqhiy masalalarni hanafiy anʼanalariga asoslangan holda ochib bergan. Fiqhiy ahkomlarni oʻz ichiga olgan rivoyatlarni keltirib oʻtgan.

Badruddin Ayniyning hanafiy mazhabi vakili boʻlishiga va shu mazhabning yetuk olimi boʻlib yetishishiga quyidagi omillar sabab boʻlgan: ota-bobolari hanafiy olimlardan boʻlgan, aksar diniy ilmlarni hanafiy ustozlardan oʻrgangan, movarounnahrlik allomalarning qalamiga mansub asarlarni oʻqigan, mamluk sultonlari hanafiy mazhabiga mansub boʻlgan,

Olimning hanafiy mazhabida koʻzga koʻringan hanafiy olim va hanafiy mazhabining bosh qozisi sifatida faoliyat olib borgani, hanafiy anʼanalari asosida asarlar tasnif etgani XIV-XV asr Bahriy mamluk sultonligida ahli sunna val jamoa yoʻnalishining fiqhiy mazhablarini ayniqsa, hanafiy mazhabining rivojlanishida muhim oʻrin tutgan.

Badruddin Ayniy fiqhiy asar tasnif etishda tutgan yoʻli, qoʻllagan uslublari, dalillashda keltirgan asoslari, mazhab imomlarining fiqhiy qarashlari va asoslaridan keltirgan iqtiboslari, masala soʻngida oʻzining fiqhiy mazhabi nuqtai nazaridan kelib chiqib, hanafiy mazhabi fiqhi ahkomlari asosida yakuniy asos va dallilarni keltirishi uning mujtahid darajasida ekanligiga va fiqhiy asarlarining mukammal shaklda yozilganidan dalolat beradi. Olimning yozgan fiqhiy asarlari va fiqhiy qarashlari hanafiy mazhabi asoslari rivojida muhim omil boʻlib xizmat qilgan.

Movarounnahrlik allomalari ilmiy merosini tadqiq etgan va ularga sharh va izohlar yozgan, hanafiy mazhabi rivojiga hissa qoʻshgan faqih va muhaddis Badruddin Ayniyning fiqh va hadis ilmiga oid asarlarini oʻrganish hamda tadqiq etish hadislardan fiqhiy hukmlarni istinbot qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Badruddin Ayniy. al-Masail al-Badriyat al-muntaxaba min al-fatavaz-zohiriya. – 2 jild. – Tahqiq: Sulaymon ibn Abdulloh. – ar-Riyoz: Dar al- asima, 2014. J.1. (476 b)
2. Badruddin Ayniy. Minhatus suluk fi sharhi tuhfatil muluk. Tahqiq: Ahmad ibn Abdurrazzoq. – Qatar: Vizarat al- avqof, 2007. – 550 b.
3. Badruddin Ayniy. Ramzul haqiq fi sharhi kanzid daqiq. Tahqiq: Muhammad Abdurrahim. – Qohira: Darut tibatil amira, 1868. – 736 b.
4. Badruddin Ayniy. Umdat al-qoriy sharh Sahih al-Buxoriy. Tahqiqchi: Abdulloh Mahmud. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2001. - J. 5.
5. Burhonuddin Margʻinoniy. Hidoya sharh bidoyatil muftadi. Tarjima va izohlar mualliflari: A.Qambarov, A. Ikromjonov, I. Bekmirzayev.–Toshkent: “Hilol” nashriyot-matbaasi, 2020.–704 b.
6. Hoji Xalifa. Kashf uz-zunun an asam al-kutub val funun. Tahqiqchi: Muhammad Sharafuddin. 2 jild. – Makka: Maktabat al-faysaliya, 1981. J. 1.
7. Hoji Xalifa. Kashf uz-zunun an asam al-kutub val funun. Tahqiqchi: Muhammad Sharafuddin. 2 jild. – Makka: Maktabat al-faysaliya, 1981. J. 1.
8. Ibrohim Ibn Muhammad. Kitab al-intisar li vasitati aqd al-amsar. – Misr: Matbaʼa amiriyat al- al- al- kubro, 2016.
9. Ismoil Poshsho Bagʻdodiy. Hadiyah al-orifin – Asma al-muallifin va osor al-musannifin. – Bayrut: Dar ihyo at-turoos al-arabiy, 1951. J. 2.
10. Iymon Umar Shukriy. As-Sulton Barquq Muassis davlatil Mamalikil Jarakisa (784-801/1282-1398) min xilal maxtut Aqdul Jamon fi Tarix Ahliz Zaman li Badril Ayniy. – Qohira: Maktabat Madbuliy, 2002.
11. Jamoliddin Yusuf ibn Tagʻribardi. al-Manhal as-sofiy val-mustavfa baʼd al-vafiy. Tahqiqchi: Muhammad Amin, Said Abdulfattah. – Misr: Hayat misriyya amma, 1984. – J. 11.

12. Karl Brokkelman. Tarix al-adab al-arabiy. Abdulhalim Najjor, Sayyid Ya'qub Bakr va Ramazon Abdutavvoblar Arab tiliga tarjima qilgan. – Qohira: Dor al-ma'orif. 1959. J.6.
13. Mahmud ibn Ahmad Badruddin Ayniy Hanafiy. al-Binaya fi sharh al-hidaya. Tahqiq: Ayman Solih Sha'bon. – J. 1. – Bayrut, Dor al-kutub al-ilmiya, 2000. – J. 2.
14. Muhammad ibn Abdurahmon Saxoviy. az-Zav' al-lomi' li ahl al-qarn at-tasi'. 10 jildlik. – Bayrut: Dor al-jayl, 1992.
15. Zofir Hoshim. Badruddin Ayniy va juhuduhul fihiya fi kitabihi umdatil qoriy sharh Sahih al-Buxoriy. – Bayrut: Dar al-muqtabis, 2017.

UDK: 95(575.1)

USTRUSHONANING ILK O'RTA ASRLARDA IJTIMOY-SIYOSIY HAYOTI

R.K. Babayev, o'qituvchi, IIV Sirdaryo akademik litseyi, Sirdaryo

Annotatsiya. Maqolada ilk o'rta asrlarda Ustrushonaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlari, shuningdek, eftaliylarning vohaga ta'siri, Turk xoqonligi davlatiga tassarufiga kiritilishi, savdo-sotiq aloqalari tarixiy va mahalliy manbalar orqali qisqacha tahlil etiladi. Bundan tashqari, Ustrushona vohasida zarb qilingan tangalar o'z davri ijtimoiy-siyosiy va etnomadaniy holati to'g'risida, shuningdek, Ustrushona hukmdorlarining ismlarini aniqlash, ularni yozma manbalar orqali ma'lum bo'lgan sulolaviy hukmdorlarning ismlarini yanada aniqroq tiklash imkoniyatini beradi.

Kalit so'zlar: Sangzor, arxeologik materiallar, eftallar, gaogyuy qabilasi, Qang'yuy avlodlari, "budun" yoki "qora budun" nomlari, "Issiq yozuvi", rustoq, afshin, numizmatik topilmalar.

Аннотация. В статье кратко анализируются общественно-политические процессы Уструшоны в раннем средневековье, а также влияние эфталитов на оазис, его присоединение к государству Турецкого ханства, торговые отношения через исторические и местные источники. Кроме того, монеты, отчеканенные в Уструшонском оазисе, дают информацию о общественно-политической и этнокультурной ситуации своего времени, а также возможность определить имена правителей Уструшоны и более точно восстановить имена династических правителей. известно из письменных источников.

Ключевые слова: Сангзор, археологические материалы, гэфталы, племя Гаогю, потомки Кангю, названия «Будун» или «черный Будун», «Иссыкская надпись», рустак, афшин, нумизматические находки.

Abstract. The article briefly analyzes the socio-political processes of Ustrushona in the early Middle Ages, as well as the impact of the Hephthalites on the oasis, its annexation to the state of the Turkish khanate, trade relations through historical and local sources. In addition, the coins minted in the Ustrushona oasis provide information about the socio-political and ethnocultural situation of their time, as well as the possibility to determine the names of the rulers of Ustrushona, and to more accurately restore the names of the dynastic rulers known through written sources.

Key words: Sangzor, archeological materials, Hephtals, Gaogyu tribe, Cangyu descendants, "Budun" or "black Budun" names, "Issik inscription", rustaq, afshin, numismatic findings.

Kirish. Milodning III asri oxirlarida qudratli Kushon saltanati va Qang' konfederativ davlati parchalanib ketdi. Bu uning tasarrufidagi katta geografik hudud, asosan, O'rta Osiyoning ikki daryosi (Sirdaryo, Amudaryo) oralig'idagi barqaror o'troq hayot tarzidagi madaniy vohalarda mustaqil taraqqiyot jarayonlari boshlanishiga sabab bo'lgan. Bu Ustrushona mulklari uchun ham ta'liqli bo'lib bu yerda ham IV-V asrlarda mustaqil boshqaruv tizimi qaror topa boradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ustrushonashunos olim M.H.Pardayevni ta'kidlashicha, "IV asrning o'rtalarida Sug'dni istilo qilishni boshlagan xioniylar dastlab o'rta Sirdaryoning chap qirg'oq havzasida joylashgan Ustrushona yerlarini istilo qilishgan va o'z hukmronliklarni o'rnatishgan. Hozirgi Jizzax vohasi xioniylar tomonidan istilo qilingan dastlabki madaniy vohalar sirasiga kiradi. Eng asosiysi bu davrda nafaqat, Ustrushonada balki, butun O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ida xioniylarga munosib qarshilik ko'rsatadigan harbiy kuch yo'q edi. Ikkinchidan milodiy IV asr oxiri va asosan V asrdan boshlab Jizzax vohasida qishloq makonlari qurilishi ko'lami keskin oshadi. Ko'p sonli chorvador qabilalar jamiyatida sodir bo'lgan ijtimoiy tabaqalashuv sabab, ularning aksariyati, ommaviy ravishda o'troqlashadi. Bu esa sun'iy demografik to'liq yuzaga kelishiga sabab

bo'ladi va aholini qishloq turar joylari bilan ta'minlash vazifasini dolzarbligini ta'minlaydi. Sangzorning quyi oqimida joylashgan xususan, Qaliyatepa atrofidagi 30 ga yaqin qishloq makonlarining aksariyati (Pardaqlutepa, Rasulboyqulutepa...) IV asr oxiri va asosan V asrda bunyod etilgan. Nihoyat, uchinchidan, qishloq makonlari va hatto Qaliyatepa shahrining IV-V asrlarga oid madaniy qatlamlaridan olingan arxeologik materiallarda o'z xususiyatiga ko'ra cho'l-dasht chorvador aholi madaniyatining ta'siri sezilib turadi"[1].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.

Tahlil va natijalar. V asrning o'rtalarida diyorumizga shiddat bilan kirib kelgan yangi ko'chmanchi aholi yozma manbalarda eftal, xaftal, xaytal degan nomlar bilan tilga olinadi. Eftaliylar manbalarda dastlab 453-454 va 457-yillar voqealari bilan bog'liq tarzda tilga olinadi. Ularda keltirilishicha, eftaliylar ularga hujum qilgan Yazdigerd II qo'shinini tor-mor keltirib, Eronning ichkarisiga ham talon-taroj yurishlarini amalga oshirganlar. Mazkur voqealar 453-454-yillarda sodir bo'lganligi qayd qilinadi. Shuningdek, 457-yilda eftaliylar hukmdori Vaxshunvar Chag'oniyon, Toxariston va Badaxshonni o'ziga bo'ysundirgan. 456-yilda eftaliylardan Xitoyga dastlabki elchilar kelgan[2].

Eftaliylar, ulaming etnik tarkibi, davlat tashkil etishlari xususida tarixiy manbalarda turli xil qarashlar mavjud. Eftaliylar haqidagi ma'lumotlar Rim, Vizantiya, Suriya, Arman, Xitoy va Fors manbalarida hamda Firdavsiyning "Shohnoma" asarida uchraydi. Eftaliylaming kelib chiqishi haqida yagona fikr mavjud emas. Ba'zi tadqiqotchilar eftaliylarni O'rta Osiyoning janubiy viloyatlarida yashovchi qadimgi mahalliy elatlardan, boshqalari esa ularni Orol oldi va Xorazmdan kelib chiqqanligini qayd qiladilar. V asrda Lazer Parbskiy keltirgan manbalarning birida eftaliylar yetti xonadondan iborat massagetlaming yetakchi urug'laridan biri sifatida bayon qilinadi. Xitoy manbalarida eftaliylar yuechjilarning boshqa bir shoxobchasi, ya'ni gaogyuy qabilasining tarmog'i, yohud Qang'yuy avlodlari sifatida talqin qilinadi. O'zlarini alxonlar deb atagan eftaliylar Baqtriya-Toxariston yerlarida yashagan azaliy boxtar qavmidan chiqqan etnik guruh ekanligini qayd qiluvchi fikrlar ham mavjud. Zamonaviy tadqiqotlar eftaliylaming haqiqiy vatani Baqtriya-Toxaristonga muvofiq kelishini ko'rsatmoqda.

Bu sulolalar davrida qishloq jamoalari bilan chegaradosh hududlarda, tog' oldi, cho'l-dasht mavzelerde O'rta Osiyoni boshqa o'lkalarida bo'lgani kabi Ustrushonada ham chorvadorlar uchun hayotiy zaruriyat hisoblangan yaylovlarning asosiy qismi qabila va urug' jamoalari oqsoqollar-biylarning qo'l ostida bo'lgan. Ustrushonaning markazi shimoliy va g'arbiy viloyatlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha V-VI asrlarda dehqonchilik vohalari atrofiga kelib o'rnatilgan eftal qabilalarining ommaviy ravishda o'troqlashuvi kuchayadi. Bunday holatni Shahrisonsoy, Zominsuv, Sangzor daryosi havzasidagi gavjum ko'rinishda joylashgan va ushbu davrga oid qishloq yodgorliklari misolida ko'rishimiz mumkin[3].

Turk xoqonligi 568-569-yillarda o'sha davrning qudratli davlati - Vizantiya bilan iqtisodiy va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatishga intilib, sug'd savdogari Maniakh boshchiligidagi elchilarni u yerga yuboradi. Elchilar imperator Yustinian II qabulida bo'ladi. Shundan so'ng Vizantiyannig Zemarx boshliq elchilari xoqonlik davlatiga keladi. Bu esa shu davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch va savdo-tijorat munosabatlarini o'rnatishda muhim ahamiyat kasb etgan[4].

Xoqonlik davrida Farg'ona, Sug'd va Ustrushonada aholining bir qismi tog'-kon ishlari bilan ham mashg'ul bo'lgan. Bu yerlarda oltin, mis, temir eritish, ulardan kerakli asbob-anjomlar ishlash yaxshi yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, lloqda qo'rg'oshin, kumush, Ustrushona tog'larida (Mink) temir, Shahrisonsoyda esa qizil tuz qazib olingan.

Shu bilan birga O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Choch, Farg'ona, Ustrushona, Sug'd va Toxaristonning deyarli mustaqil hokimliklari ustidan siyosiy nazorat kuchaytirilib, ular huzuriga xoqonlikning vakillari yuboriladi. Bunday vakillar "tudun" deb yuritilgan. Bo'ysundirilgan hududlarni mahalliy hokimlar orqali boshqarish tartibi xoqonlikni zaiflashtira bordi.

Bu davrda ham yurtimizda moddiy va ma'naviy madaniyatning yangi-yangi bemisol namunalar yaratildi. Turli olimlar mutaxassislar bahsiga sabab bo'lgan Turk-run, Urxon-Enasoy yozuvi, Kultegin bitiklari, Bilga xoqon yodnomasi va shu singari noyob topilmalar turk yozma madaniyatning qadimiyligi va rang- barangligiga guvohlik beradi. 1970-yilda Almati yaqinidagi "Issiq" degan joydan topilgan va fanga "Issiq yozuvi" nomi bilan kirgan turkiy yozuv ham bizning yozuv tariximizga oid qarashlarimizni yanada boyitadi. Endilikda topilgan noyob ashyiy dalillar asosida turkiy yozuvning tarixi miloddan avvalgi II-I asrlarga borib tutashishi ma'lum bo'ldi. VI-VII asrlarda savdo-sotiq ishlarida janubdan shimolga tamon ko'chgan. Bunga vositachilik qilish sug'diylarning qo'liga o'tadi. Ular nafaqat quriqlikda, balki shu bilan bir qatorda Kaspiy dengizi orqali ham savdo ishlarida faol qatnashgan. Bu borada Poykant shahrini alohida tilga olish lozim, chunki mazkur joyda savdogarlar ko'p istiqomat qilganlar va o'sha vaqtdagi oldi- sotdilarni ular amalga oshirganlar. Shu boisdan ham bu shahar savdogarlar shahri ya'ni "Madinat at-tujor" deb bejiz aytilmagan.

O'rta Osiyo xoqonlik boshqaruviga o'tgan bo'lsa-da, turk harbiy boshliqlari eftalitlardan farqli tarzda mahalliy hokimliklarning ichki ishlariga deyarli aralashmaydilar. Bu davrda Ustrushona mamlakati ma'muriy hududiy jihatdan 18 ta rustoqqa ya'ni qishloq xo'jaligi tumanlaridan tashkil topgan. Mazkur rustoqlar mahalliy zadagon dehqonlar, urug' jamoalarining sarkorlari tomonidan boshqarilgan. Har bir rustoq sarkori o'zining harbiy qo'riqchi otryadiga ega bo'lgan. Barcha rustoqlar sarkorlari tepasida mamlakat hukmdori, butun Ustrushona afshini turgan. VIII asr boshlarida Ustrushonada kelib chiqishiga ko'ra turkiy bo'lgan, Xarabugra (Qora Bug'ro F.T.) hokimyatni o'z qo'liga oladi va taxtga yangi afshinlar sulolasi keladi. Bu sulola davrida Ustrushona yanada gullab yashnagan. Afshin qo'l ostida qisman cheklangan - fuqarolar, harbiy va diniy- ruhoni hukmronlik to'plangan. Mamlakat hukmdori afshin yirik yer egasi bo'lgan.

Ko'p sonli qishloqlarni birlashtirgan rustoqlarning sarkori ancha cheklangan huquqlarga ega bo'lgan. Ustrushonadagi hukmron tabaqaning ierarxiyasi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Biroq, afshin, qishloq xo'jaligiga asoslangan mahalliy amloq-rustoqlar boshlig'i sarkorlar va qishloq oqsoqollari -kadxudolardan tashkil topgan. Ustrushonsunos N.Negmatovning yozishicha, Ustrushona qo'shinlari yengil va og'ir qurollangan, otliq suvoriy va piyoda askarlardan tashkil topgan. IX-X asrlarda bu qo'shinning soni 20 mingdan ancha oshgan. Qo'shin Ustrushona afshini chaqiruv bilan rustoqlardan yig'ilgan. Bu qo'shin tarkibiga sarkorlarning xususiy chokar otryadlari ham qo'shilgan[5].

Numizmatik topilmalar bo'yicha Ustrushonaning birinchi hukmdorlaridan biri Chirdmish nomi bilan tarixga kirgan. Mavjud manbalar Ustrushonada ikkita sulola hukmronlik qilganligini ta'kidlaydi. Birinchi sulolaga mansub Chirdmish, Satachari I, Raxanch I, Satachari II, Satachari III, Raxancha II va Raxancha III kabi hukmdorlar, ikkinchi sulolaga mansub afshinlardan Xarabug'ra (720-738), Xanaxara (738-800), Kovus ibn Xanaxara (800-825), Haydar ibn Kobus (825-840), Hasan (840-869), Abdulloh (860-880), Sayr (880-893) kabilar eslatiladi. Birinchi sulola (IV-VIII asrlar)ga mansub hukmdorlar haqida yozma manbalar saqlanmagan. Hozircha, ular tomonidan zarb qilingan tangalar asosiy manba bo'lib qolmoqda. Ushbu hukmdor - afshinlardan Chirdmish, Satachari III va Raxancha III tomonidan zarb etilgan tangalar o'rganilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milodiy III asr oxirlarida Kushon va Qang' davlatlarining parchalinishi oqibatida mustaqil boshqaruv tizimining qaror topishiga zamin yaratdi. Xususan, Ustrushonada ham IV-V asrlarda mustaqil boshqaruv tizimi qaror topa boshlaganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент, 2016. Б.285-288
2. М.Н.Пардаев, Ф.Е.Ташбойев "Уструшонанинг қадимги давр давлатчилиги" Тошкент.:2020,98-бет
3. Пардаев М.Х., Гофуров Ж.И. Уструшонанинг илк ўрта аср қишлоқ маконлари (ёзма ва археологик манбалар асосида). Тошкент, 2016. Б.289
4. М.Н.Пардаев, Ф.Е.Ташбойев "Уструшонанинг қадимги давр давлатчилиги" Тошкент.:2020,101-бет
5. М.Н.Пардаев, Ф.Е.Ташбойев."Уструшонанинг қадимги давр давлатчилиги" Тошкент.:2020,105-бет

TURKISTON O'LKASIDA HARBIY MA'MURIY-HUDUDIY BOSHQARUV TIZIMINI O'RNATILISHI

M.Isakova, b.i.x., t.f.d., prof., O'zR FA Tarix instituti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasini ma'muriy-hududiy birliklarga bo'lish siyosati, harbiy boshqaruv tizimi, joriy etilgan saylovlarning mohiyati, aholining mustamlaka ma'muriyat joriy etgan boshqaruv tartiblariga munosabati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston o'lkasi, ma'muriy-hududiy boshqaruv, viloyat, uyezd, tuman, volost, ovul, qishloq, harbiy gubernator, uyezd boshlig'i, oqsoqol.

Аннотация. В статье рассматривается политика Российской империи разделения Туркестанского края на отдельные административно-территориальные единицы, сущность системы военного управления, внедрения выборов, отношение населения к введенным колониальным административным порядкам.

Ключевые слова: Туркестанский край, административно-территориальное управление, область, уезд, район, волость, аул, село, военный губернатор, уездный начальник, старшина.

Abstract. In the article analyses the policy of the Russian Empire to divide the Turkestan region into separate administrative-territorial units, the essence of the military governance system, the introduction of elections, the attitude of the population to the introduced colonial administrative orders.

Keywords: Turkestan region, administrative-territorial ruling, region, uezd, district, volost, avul, village, military governor, chief of uezd, oqsaqal.

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasida harbiy ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimini joriy qilish amaliyoti uning mustamlakachilik siyosati va harbiy-strategik rejasi bilan chambarchas bog'liq edi. Bosib olingan hududlarda imperiya hukmronligini o'rnatish, boshqarish, bu yerlarni qo'ldan chiqarmaslik uchun, eng avvalo, mustahkam harbiy boshqaruv tartiblarini joriy qilish talab etilgan. Shu sababli, o'lkani boshqarish tartiblari qanday bo'lishi imperiya hukmron doiralarida turli soha vakillari ishtirokida uzoq vaqt muhokama qilingan masalaga aylangan. Uni hal qilishda ehtiyotkorlik bilan uzoqni o'ylab ish ko'rish, tavakkal qilmasdan amalga oshirilgan.

1865-yilda Rossiya imperiyasi Toshkentni bosib olganidan so'ng amalga oshirgan harbiy yurishlari natijasida egallagan hududlarni boshqarish uchun ham huquqiy, ham siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yangi tizimini shakllantirishga kirishdi. Zo'rlik yo'li bilan joriy qilingan bu tizim asrlar davomida rivojlanib kelgan boshqaruv ildizlarini qo'porib tashlab, uni o'rniga mustamlaka manfaatlariga javob beruvchi, eng muhimi, bosib olingan hududlardan imkon qadar katta daromad olishga yo'naltirildi.

Toshkent shahri bosib olingandan keyin 1865-yil 2-martda Rossiya imperiyasi Senatining «Turkiston viloyatini tashkil qilish to'g'risida»gi farmoni e'lon qilindi. Unga ko'ra, viloyat Orenburg general-gubernatorligi tarkibiga kiritilib, uning chegarasi Orol dengizidan Issiqko'lgacha bo'lgan Turkiston xonliklari bilan chegaradosh yerlarni kamrab olgan edi. Bu yerlar Qo'qon xonligi hududlaridan tortib olingan va Sirdaryo chizig'i va Yangi Qo'qon chizig'ini birlashtirish natijasida tashkil etilgan edi.

Dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, Turkiston viloyatida 453 ming kishi istiqomat qilar edi. Boshqaruv tizimi harbiy-ma'muriy asosda tashkil etilib, viloyat uch bo'limga: o'ng qanot, markaz va chap qanotga bo'lingan edi. Keyinchalik Sirdaryo viloyati deb nomlangan o'ng qanotga Aralsk (Raim qal'asi), 1-fort (Kazalinsk) va Perovsk kirgan. Markaziy qanot o'z ichiga Turkiston va Chimkent hududlarini qamrab olgan. Chap qanot tarkibiga esa Avliyoota, Pishpak va To'qmoq shaharlari kiritilgan edi. Avvalo Chimkent shahri Turkiston viloyatining ma'muriy markazi etib belgilandi. Keyinchalik imperiya qo'shinlari Toshkentni egallaganidan so'ng, shahar va uning atrofi Toshkent rayoni nomi bilan alohida ma'muriy birlikni tashkil qiladi. 1866-yili oxirlariga kelib, bosqin oqibatida Turkiston viloyati tarkibiga Yerjar, Xo'jand, O'ratepa, Zomin va Jizzax hududlari ham kiritiladi.

1865-yilning 6-avgustida Aleksandr II tomonidan «Turkiston viloyatini boshqarish to'g'risida vaqtinchalik nizom» qabul qilinib, rasman «harbiy fuqarolik boshqaruv» tizimi joriy etildi. Aniqrog'i, viloyat va uni tarkibiga kirgan uyezdlar boshlig'i etib rus harbiy amaldorlari orasidan harbiy gubernator tayinlangan bo'lsa, qishloq va ovullarni boshqarish tub aholi vakillari bo'lgan oqsoqol, o'nboshi, ellikboshi, ko'chmanchilarda esa manop va biylarni qo'lida saqlab qolish nazarda tutilgan edi.

1867-yil 11-iyulda imperator Aleksandr II farmoniga ko'ra viloyat hududlarini o'z ichiga qamrab olgan Yettisuv va Sirdaryo viloyatlaridan iborat Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi. Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga G'arbiy Sibir general-gubernatorligi tasarrufida bo'lgan Semipalatinsk viloyati hududining bir qismi kiritildi. Chegara chizig'i Semipalatinsk viloyati chegarasidan Balxash ko'lining o'rtasigacha, undan esa daryosi bo'ylab cho'zilib Sarisuv daryosiga qadar davom etardi. Orenburg general-gubernatorligi bilan chegara chizig'i Perovsk ko'rfazi o'rtasigacha, Termembes tog'iga, undan Terken, Kalmas, Muzbil, Oqqum, Chubartepa tog'lari bo'ylab Muyinkumning janubiy etaklari va Sarisuv daryosi Chu daryosi bilan qo'shilgan joyga qadar borar edi [1].

Turkistonda ma'muriy boshqaruv bo'yicha turli tartib-qoidalar joriy qilib borilib, ularning ko'pchiligi sinov-tajriba ko'rinishida vaqtincha tatbiq qilingan. Ko'plari o'zini oqlamagani uchun qisqa vaqt amal qilgach, bekor qilingan. Turkiston o'lkasida joriy qilingan bunday sinov-tajriba ko'rinishidagi tartiblarning tashabbuskori Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P. fon Kaufman bo'lgan. U bir vaqtning o'zida Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosatini ham nazariy asoschisi, ham amaliy ijrochisi hisoblangan. K.P. Kaufmanga o'lkada olib boradigan faoliyati bo'yicha katta huquqlar berilgan edi. K.P. Kaufman bu huquqlaridan juda ham "unumli" va keragidan ham ortiq foydalangan. Jumladan, o'z davrida fon Kaufman bir nechta "Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom" loyihalarini ishlab chiqib, ularda umuman ko'rsatilmagan tartiblarni ham joriy qilgan. Masalan, o'lkaning Kurama va Xo'jand uyezdlarida bir necha volostlarni birlashtirgan xo'jalik boshqarmalari tashkil qilingan edi. Biroz vaqt o'tgach, 1877-yilda tashkil qilingan bunday xo'jalikda faoliyat yuritgan imperiya ma'murlarining xizmat vazifalarini suiiste'mol qilish holatlari ko'payib ketganligi uchun, ularning faoliyati tugatilib, uyezd va volost boshqaruviga qo'shib yuboriladi.

Turkiston general-gubernatorligi 1867-1886-yillarda viloyat va uyezdlarga bo'lingan edi. Buxoro amirligi va Xiva xonligi bilan chegaradosh joylarda uyezdlar o'rniga ularga mos ravishdagi harbiy-hududiy birliklar – okruglar, bo'limlar va tumanlar (rayon) tashkil qilingan edi. 1868-yilga qadar Turkiston general-gubernatorligi ikki viloyat: markazi Toshkentda bo'lgan Sirdaryo hamda markazi Verniy shahrida bo'lgan Yettisuv viloyatiga bo'linardi. Keyinchalik bosib olingan hududlar hisobiga qo'shimcha tarzda quyidagi ma'muriy-hududiy birliklar tashkil qilindi: 1868-yilda – markazi Samarqandda bo'lgan Zarafshon okrugi; 1874-yilda markazi Petroaleksandrovsk (To'rtko'l)da bo'lgan Amudaryo bo'limi; 1876-yilda Qo'qon xonligining tugatilishi hisobiga markazi Yangi Margilon (Farg'ona) shahrida bo'lgan Farg'ona viloyati. Yettisuv viloyati Sergiopolsk, Ko'pal, Verniy, Issiqko'l va To'kmoq uyezdlariga bo'linar edi. 1882-yili u Turkiston general-gubernatorligi tarkibidan chiqarildi. 1867-yilning o'zida «Turkiston o'lkasini boshqarish haqidagi nizom» tasdiqlanib, viloyat (oblast) tarkibida uyezd va qishloq (volost), uning tarkibida esa tuman (rayon), jabha (uchastka), mahalla hamda ovullar tashkil etilgan. 1868-yil may-iyun oylarida Samarqand shahri egallangandan so'ng, 1868-yil Buxoro amirligidan bosib olingan hududlarda alohida Zarafshon muzofoti tashkil etildi [2]. Muzofot bo'limlarining chegaralari bir necha marta o'zgartirilgan. Jumladan, 1868-yil iyulida Samarqand bo'limiga Panjikent va uning atrofida joylashgan aholi manzillari, 1870-yil avgustida Zarafshon daryosining yuqori oqimida joylashgan Farob, Mohiyon va Kishitut bekliklarining qo'shib olinishi va 1871-yilda Samarqand bo'limidan Urgut, Qoratepa va Panjikent tumanlarining yangi tashkil etilgan alohida bo'lim – Tog'li tumanlar boshqaruviga o'tkazilishi munosabati bilan Samarqand bo'limining sharqiy chegaralarida qator o'zgarishlar sodir bo'lgan edi. 1875-yilda esa Samarqand bo'limi sobiq O'rtabo'z bo'lisining Qiyot va Odil, sobiq Sirg'ali bo'lisining Hotamxo'ja oqsoqolliklari Kattaqo'rg'on bo'limiga o'tkazilishi ortidan muzofotning Samarqand va Kattaqo'rg'on bo'limlari o'rtasidagi chegaralarda ham

o'zgarishlar amalga oshirilgan [3]. Turkiston general-gubernatorligini boshqarish bo'yicha ilk dasturiy hujjatlarning ishlab chiqilishida «harbiy vaziyat» omili hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Ular yangi hududlar bosib olinishi bilan yuzaga kelgan va qoida tarzida «muvaqqat» xususiyatga ega edi. Chunonchi, «Sirdaryo va Yettisuv viloyatlaridagi boshqaruv to'g'risidagi nizom» 1867-yili «tajriba tarzida uch yilga» joriy qilindi. Undan tashqari, 1868-yilning iyunida «Zarafshon okrugini boshqarishning muvaqqat qoidalari», «Farg'ona viloyatini boshqarish bo'yicha 1873-yil muvaqqat nizom», «Amudaryo bo'limini boshqarish bo'yicha 1874-yil 21-may nizomi» ham ishlab chiqilib, qabul qilingan edi. Ularning barchasida «harbiy va ma'muriy hokimiyatning yakdilligi va uning yagona qo'l ostida birlashtirilish, aniqrog'i markazlashgan boshqaruvni» qonuniylashtirishga xizmat qilgan edi. Viloyatlarni rus harbiy gubernatori, uni qoshida xo'jalik, moliya, qurilish va sud ishlari bo'yicha ijro organi sanalgan viloyat bo'linmalari boshqargan. Viloyat harbiy gubernatori uyezd va bo'lis qurultoylarini o'tkazish joylarini belgilash, uyezd va bo'lis boshqaruvchilari saylovlarini nazorat qilish, tanlangan nomzodlarni lavozimda tasdiqlash yoki saylov natijasi bekor qilingan taqdirda, nomzodlarni o'z ixtiyoriga ko'ra tayinlash; ariq oqsoqollarini tayinlash va jamoat pulidan ularga beriluvchi maosh miqdorini belgilash; xalq sudyalarini va sudyalikka nomzodlarni tasdiqlash hamda ular tasdiqlanmagan taqdirda, yangi saylovlarni tayinlash; o'z ixtiyoriga ko'ra uyezd ma'muriyati a'zolarini tayinlash va ishdan olish (uyezd boshligi bundan mustasno bo'lib, ular to'g'risida faqat general-gubernator nomiga taqdimnoma yozilardi) hamda uyezd boshliqlari tub aholi vakillariga belgilagan jarima to'lash jazosi yuzasidan kelgan shikoyatlarni ko'rib chiqish kabi vakolatlarga ega bo'lgan [4]. 1867-yilda Sirdaryo va Yettisuv viloyat boshqaruvlarida atigi uchta: farmoyish, xo'jalik va sud ishlari bo'linmalari faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 1887-yildan boshlab qo'shimcha chegara masalalari, qurilish, sanitariya-davolash, veterinariya va hisob-kitob ishlari bo'linmalari ochildi. Bundan tashqari, har bir viloyat boshqaruvi qoshida bosmaxona va statistika qo'mitalari ham tashkil etildi. Bo'linmalar o'rtasida majburiyatlarni taqsimlash harbiy gubernator zimmasiga yuklatilgan edi. Farmoyish bo'limi xodimlarining majburiyatlariga quyidagilar kirardi: viloyat hududiy bo'linishi va qurilishi, general-gubernator, harbiy gubernatorlar va hukumat farmonlari, buyruqlari, farmoyishlarini tanlash, saralash va e'lon qilish; farmoyish hujjatlarini yuritish va ma'lumotnomalar tayyorlab berish; boshqaruv xodimlarining xizmat safarlari va ta'til buyruqlarini rasmiylashtirishga javobgar bo'lgan. Viloyat boshqaruvida muhim o'ringa ega bo'lgan xo'jalik ishlari bo'linmasi: o'troq va chorvador aholi o'rtasidagi yer taqsimoti, vaqflar bilan bog'liq ishlarni yuritish, suvdan foydalanish va aholidan soliqlarni undirish; aholidan undiriluvchi pul majburiyatlari ro'yxatini tuzish va sarf-xarajatlarni boshqarish, boj yig'implarining nazorati va nizoli ishlarni hal qilish; xo'jalik shartnomalarini ko'rib chiqish va tasdiqlash, viloyat xom ashyo manbalarini boshqarish, sanoat korxonalari va firmalar ochish uchun guvohnomalarni rasmiylashtirish; savdo bitimlari va pudratlarini rasmiylashtirish bilan shug'ullangan. Uyezd va volostlarni – rus boshliqlar (nachalnik), tumanlarni – rus mudirlar (zaveduyushiy) boshqarib, bir vaqtning o'zida ular uyezd boshlig'ining yordamchisi hisoblangan, jabhalarni – rus uchastka pristavi hamda mahalla va ovullarni – oqsoqol, manop (dodho), ularga yordamchi sifatida aholi orasidan tanlab olingan o'nboshi va ellikboshilar boshqargan [5]. Politsiya nazoratchilari bo'lmagan shaharlarda harbiy qism bo'yicha ober-ofitserlar faoliyat yuritgan. Ular joylarda politsiya nazorati, tergov ishlari va uyezdagi ichki ishlar bo'yicha hujjatlarni yuritishga javobgar bo'lgan. Shuningdek Xo'jand uyezdi boshqarmasida 2 ta xat yurituvchi hisob-kitob ishlari, shaharlar daromadlari va ssuda g'aznasi bo'yicha hisobotlarni tayyorlagan. Aholi orasidan vakillarni tanlab olishda «ko'zbo'yamachilik» usulida saylovlar o'tqazish joriy etilgan edi. Nomzodlar tasdiqlanishi uchun pora berish odatiy holatga aylangan edi. Ellikboshilar har 3-yilda uyezd boshlig'i yoki uning yordamchisi ishtirokida volost boshliklari, oqsoqollar, qozi va biy mansablariga o'tqazilgan saylovlarda ovoz yig'ish uchun mas'ul bo'lgan. O'nboshilar esa ovul oqsoqollari saylovini tashkil etgan. Saylovlarni o'tkazish uchun ellikboshi volost boshlig'i, mahalla va ovul oqsoqollarini saylash to'g'risida qaror yoki varaqa tayyorlagan va saylovchilarga tarqatgan. Saylov natijasiga ko'ra ko'p ovoz yig'gan nomzodlar ro'yxati uyezd boshlig'iga taqdim etilgan, u esa saylangan shaxslar to'g'risida tavsifnoma tuzib, viloyat harbiy gubernatoriga topshirgan. Viloyat gubernatori taqdim etilgan nomzodlarni rus boshqaruv maqsadlariga xayrixoh bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan.

Ularning vazifasi aholidan soliq yig'irlarini to'plash, imperiya buyruq va ko'rsatmalari asosida belgilangan majburiyatlarni bajarilishini ta'minlash va bu borada hisobot taqdim etishdan iborat edi. Biron bir sababga ko'ra nomzodlarni harbiy gubernator tasdiqlanmasa, saylov qayta o'tkazilgan yoki u tanlagan odam ushbu lavozimni egallagan [6]. Xo'jand uyezdi boshlig'iga 3 ta yordamchilar tayinlanib, ulardan ikkitasi mudir mansabida Jizzax va O'ratepa tumanlarini boshqargan. Shuningdek, yordamchilar asosan tegishli tuman ish yuritish hujjatlariga javob bergan va uyezd boshliqlari bilan yozishmalar olib borgan. Ulardan tashqari, uyezd boshlig'ining tub aholi vakilidan tanlab olingan kichik yordamchisi ham bo'lgan. Kichik yordamchi qirg'izlardan tanlab olinib, ovullarga turli farmoyishlarni e'lon qilish va topshiriqlarni bajarish uchun yuborilgan [7]. Aksariyat hollarda kichik yordamchi lavozimi bo'sh qolib ketgan. Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori N. Golovachev Xo'jand uyezdi boshlig'i I. Guyusga yuborgan maxfiy xatida: «...tashkiliy ishlarda faol ishtirok etayotgan shaxslarga, shuningdek bir vaqtni o'zida hukumat maqsadlariga to'g'ridan to'g'ri qarshilik ko'rsatgan yoki fikri va befarqligi bilan shubha tug'dirgan kishilarga alohida e'tibor qaratishingiz, sadoqatli bo'lgan va hukumatga nomaqbul bo'lganlar haqida maxsus «yopiq» kitob yuritib, ularni har biri to'g'risida alohida varaqda ma'lumotlar kiritib borishi kerakligi» to'g'risida ko'rsatma beradi. Shu tarzda, mustamlaka hukumat o'z tarafdorlari safini kengaytirish bo'yicha tadbirlar olib borgan. Mustamlaka hukumat mulozimlari tomonidan taklif etilgan imtiyozlarga qaramasdan, aholi ularga xizmat qilishdan bosh tortgan. Shu sababli, 1881-yilda Yettisuv harbiy gubernatori G. Kolpakovskiy uyezd boshlig'ining kichik yordamchisi lavozimga nomzodlar 10-yil davomida bo'lmaganligi hisobga olib, uni qisqartirish bo'yicha Turkiston general-gubernatoriga taklif kiritadi. Turkiston o'lkasi general-gubernatori K.P. Kaufman vafotidan so'ng Turkistonga general-gubernator etib tayinlangan M. Chernyayev zor berib 15-yildan ortiq muddat tasdiqlanishi paysalga solinib kelgan “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom”ni ishlab chiqish va tasdiqlatishga kirishadi. Bu jarayon, eng avvalo, ma'muriy-boshqaruv tizimini qayta qo'rib chiqish bilan yakun topdi. Jumladan, 1886-yil 12-iyunda tasdiqlangan “Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom”ga asosan Turkiston general-gubernatorligi tarkibida: Sirdaryo, Yettisuv, Farg'ona va Kaspiyorti kabi 4 ta viloyat hamda Zarafshon muzofoti tashkil etiladi. 1887-yilda Zarafshon muzofoti Samarqand viloyatiga aylantiriladi va muzofot boshlig'i mahkamasi asosida viloyat harbiy gubernatori boshqaruvi ta'sis etildi. Umuman olganda, Turkiston o'lkasini 5 ta viloyat, tuman va volostlarga bo'lib boshqarish siyosati negizida ma'muriy tarqoqlik tizimini yaratish, mustamlakachilarga qarshi xalq qo'zg'olonlarini harbiy kuch bilan bostirish, turli soliq va to'lovlarni joriy qilish va yig'ib olish mexanizmini osonlashtirish, aholi soni va migratsiya jarayonlarini to'liq nazorat qilish kabi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlar yotgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Milliy arxivi, I-1 jamg'arma, 20-ro'yxat, 117-ish, 11-varaq.
2. O'zbekiston Milliy arxivi, I-1-jamg'arma, 27-ro'yxat, 2-yig'ma jild, 2-varaq.
3. T. Ahmedov. Zarafshon muzofoti boshlig'i mahkamasi ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida. Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent. 2021. 46 – 47-betlar.
4. O'zbekiston Milliy arxivi, I-1 jamg'arma, 27-ro'yxat, 659-ish, 18-varaq.
5. Отчёт ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. СПб. 1884. С.24.
6. Отчёт ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. СПб. 1884. С.26.
7. Отчёт ревизующего, по Высочайшему повелению, Туркестанский край тайного советника Ф. Гирса. СПб. 1884. С.41.

UO'K 94(5)

AHMAD JAVDATNING TARIX VA ISLOM ILMLARIGA OID ASARLARI

X.J.Ismoilova, xodim, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, Toshkent

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ahmad Javdatning tarix va islom ilmlariga oid asarlari bilan tanishasiz. Bu esa bizga kelajakda yurtimiz tarixini yanada chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Uning islom ilmlariga doir asarlari ham bugun kunda yoshlarni turli g'oyalarga girdobiga tushib qolmasliklari uchun xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ahmad Javdat, Kichik Qaynar, vakanuvislik, Otaturk kutubxonasi, tafsir, fiqh, islom ilmlari.

Аннотация. В этой статье вы познакомитесь с трудами Ахмеда Джавадата по истории и исламским наукам. Это позволит нам в будущем глубже изучать историю нашей страны. Его работы по исламским наукам служат для того, чтобы не дать молодым людям попасть в водоворот различных идей.

Ключевые слова: Ахмад Джавадат, Кичик Кайнар, вакануvislik, библиотека Ататурка, тафсир, юриспруденция, исламские науки.

Abstract. In this article you will get acquainted with the works of Ahmad Javdat on history and Islamic sciences. This will allow us to study the history of our country more deeply in the future. His works on Islamic sciences serve to prevent young people from falling into the vortex of different ideas.

Key words: Ahmad Javdat, Kichik Qaynar, vakanuvislik, Ataturk library, tafsir, jurisprudence, Islamic sciences.

Ahmad Javdat hayoti davomida ko'plab vaqtini davlat ishlariga va jamiyat hayotiga sarf etgan bo'lishiga qaramay, ilm-fanga oid ko'plab asarlar ham yozib qoldirgan. Uning yozgan asarlari XIX asr Usmonlilar davlatining ravnaqi va istiqboli uchun munosib hissa qo'shgan. O'z davrida turli sohalarida puxta bilim egallagan va zamona olimlaridan saboq olgan Ahmad Javdat asarlari bugun kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotgan yo'q. O'rganish va tahlil etish oson bo'lishi uchun yozgan asarlarini bir nechta turkumlarga ya'ni fan sohalariga bo'lishimiz mumkin. Dastlab, **tarixga doir asarlari:**

“Tarixi Javdat”. Usmonlilar davlatining 1774-yildagi Kichik Qaynar shartnomasidan boshlab 1826-yil Yanichar (yangi askar) o'chog'ining egallanishiga qadar bo'lgan voqealar bayon etilgan. Tanqidiy va tahliliy bir ruhda yozilgan mazkur asarda voqea-hodisalarning sabablari va yo'l qo'yilgan kamchiliklar ham yozilgan. Dastlabki jildlari 1853-1856, so'ngi jildi esa 1884-yilda (hijriy 1301-yilda) nashr ettiriladi. Dastlab o'n jild bo'lgan bu asar hijriy 1309-yilda (1891) qayta tartibga keltirilish va tasniflash chog'ida o'n ikki jildga holida yangidan nashr etiladi. Asarning birinchi jildiga muqaddima ham ilova qilingan[1].

“Tazkiralar”. Vakanuvislik[2] davrida (1855-1865) shaxsan o'zi ichida bo'lgan voqealardan iborat bo'lgan bu asar, bir tomondan o'sha davrning siyosiy-ijtimoiy ahvolini bayon etsa, boshqa tomondan memuar asar sifatida qaraladi. Davlat va saroy odamlarining bir-birlariga qarama-qarshiliklari, turli manfaatlar to'qnashuvlari va Istanbul o'sha davrdagi ahvol haqida sodda va samimiy tilda ifoda etilgan. Qirq tazkirani o'z ichiga olgan bu asar 1855-yildan to vafotidan ikki yil oldingi ya'ni 1893-yilgacha bo'lgan voqealarning bayoni mavjud. So'ngi tazkirada muallif o'zining hayotini ham yoritib o'tgan. Ahmad Javdatning qizi Fotima Aliya xonimning “Javdat Posho va zamoni” nomli asariga shu tazkiradan ilovalar keltirilgan.

Mazkur kitobining dastlabki yarimi qo'lyozma shaklida bir daftar holida Otaturk kutubxonasida saqlanmoqda. Asarning hijriy 1288-1292-yillarni (1871-1875) o'z ichiga olgan o'n yettinchi qismi “Tarixi Usmoniy Anjumani Majmuasi”da 1915-yil nashr etilgan.

“Tazkiralar”ning yangi bosmasi Jovid Baysun tomonidan to'rt jild holida 1953-1967-yillar orasida bosildi. Asar ikkinchi marta ayni shu tartibda 1986-yilda Anqarada nashr etildi[3].

“Ma'ruzat”. Sulton Abdulhamid II ning istagiga binoan yozilgan mazkur asar, 1839-1876-yillar orasidagi tarixiy jarayonlarni qamrab olgan. 5 jildlik bu asar “Tazkiralar” bilan bir xil davrga oid voqea-hodisalar bo'lishiga qaramay, shaxsiy fikrlari va xotiralari ilova qilinganligi uchun undan farqli bir uslub va maxsus belgilar asosida yozilgan. Asarning ayrim qismlari Otaturk kutubxonasida saqlanmoqda. Asar butun qismlari bilan 1980-yilda nashr etilgan[4].

“Qisas-i Anbiyo va Tarix-i Hulafo”. Bu asar Javdat Poshoning eng mashhur asarlaridan biridir. Asar Hazrati Odam (a.s.)dan to Muhammad (s.a.v.)ga qadar bo'lgan barcha payg'ambarlarning tarixi va xulq-atvorlari, Muhammad (s.a.v.)ning siyratlari, to'rt xalifa davri, Umaviy va Abbosiylar xalifaligi va nihoyat, Usmonlilar davlatining Sulton Murod II ning boshqaruv yillariga qadar bo'lgan tarix voqea va hodisalarni o'z ichiga olgan. Bu asar Ahmad Javdat hayotining

so'ngi yillarida yozilgan asarlardan biridir. Kitob o'n ikki jilddan iborat. Dastlabki olti jildi muallif tomonidan 1891-yil bosmaxonada bosib chiqarilgan. Qolgan olti jildi qizi Fotima Aliye xonim tomonidan 1913-yil nashr etiladi. Asarning yettinchi jildidan o'ninchi jildiga qadar qo'lyozma nusxasi Otaturk kutubxonasida saqlanadi. 1976-1977-yillarda lotin alifbosida ikki qism qilib nashr etiladi. Shuningdek, Qozon turkcha tarjimai esa ikki marta bosiladi[4].

“Qrim va Kavkaz tarixi”. Qissa shaklida yozilgan mazkur asar ikki qismdan iborat. Dastlabki qismida Qrim haqida, ikkinchi qismda Kavkaz tarixi, geografiyasi, shuningdek, bu yerlarda yashagan xalqlarning etnologiyasi va madaniyatini tasvirlab bergan. Bu kichik asar ingliz elchisi Lord Stratford istagiga binoan muallif tarafidan Halim Girayning “Gulbun-i Hanon” asaridan foydalanib yozilgan. 1913-yil Istanbulda, 1918-yil “Yangi Majmua”da nashr etiladi[4].

“Muqaddima-i Ibn Xaldun”. Ibn Xaldunning “Kitob al-i'bar” nomli arabcha umumiy tarix kitobining birinchi jild oltinchi faslining tarjimasidir.

Mazkur asarning dastlabki besh qismi Shayx-ul islom Sohib Mulla tarafidan ikki kitob holiga keltiriladi. Qolgan qismlarining tarjimai esa Ahmad Javdat tomonidan uch jild kitob shaklida 1860-yilda nashr etiladi[4].

“Qozon va Govur tog'i haqida muzokara”. Mintaqadagi ahvol haqida yozilgan bu asar maqola shaklida bo'lib, jami 20 betni tashkil etadi. U hozirda Otaturk kutubxonasida “Muallim Javdat yozmalari” nomi ostida №31 raqam ostida saqlanadi[5].

“Hijoz hodisasi”. 1861 yilda Hijozda boshlangan boshbodoqlik sabablari yoritilgan 48 sahifalik kichik asar hisoblanadi. Bu ham Otaturk kutubxonasida №5 raqam ostida saqlanadi.

“Anapo qal'asiga doir fikrlar va tarix”. Asar bu hududda bo'lib o'tgan voqealar haqida xabar beradi. Jami 40 sahifaga ega.

“Halab viloyatiga oid ba'zi qaydlar”. Qo'lyozma hisoblangan mazkur asar, 93 sahifadir. Unda Halab viloyati haqida keng ma'lumotlar bayon etilgan[6].

Hadis va siyratga doir asarlari:

“At-Targ'ib vat-Tarhibning tarjimai”. Bu asarda targ'ib (yaxshilikni rag'batlantirish) va tarhib (yovuzliklardan saqlanish)ga doir hadislar bayoni berilgan. Asar Imom Munzirining “At-Targ'ib vat-Tarhib” asarining tarjimasidir[7].

“Hiliya-i Saodat”. Asar Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ning siyratlariga bag'ishlangan. Asar ikki marta ketma-ket chop etilgan.

Tafsirga oid asarlari:

“Tafsir-i sura-i Hujurot”. Asarda Hujurot surasining tafsiri bayon etilgan.

“Xulosatul bayon fiy te'lifil Qur'on”. Asar arab tilida yozilgan bo'lib, unda Qur'onning birinchi marta jam qilinishi, jamlanish sabablari, sahifalar va mus'haflar, Qur'oni karimning ta'rifi, hikmati, qiroatlar xilma-xilligining sababi, shuningdek, Qur'on ilmi bilan bog'liq barcha ilmlar yozilgan. Ali Usmon Yuksal tomonidan tarjima qilinib, asar 1985-yil “Muhtasar Qur'on tarixi” nomi bilan chop etilgan[4].

“Tafsir tarixi”. Bu asar Qur'oni karimning ma'nolarini, yetti harfda yozilish sababini, tafsir va ta'vildagi farqlarni, tafsirning qoidalari va mohiyatini o'z ichiga oladi[4]. 1927-yilda Istanbulda Ahmad Komil matbuotida nashr etilgan.

Fiqhga doir asarlari:

“Majalla-i Ahkom-i Adliya”(Majalla). Arab tilidagi fiqh kitoblarining ijtihod qismlaridan olingan hukmlar jam etilgan. Unda hanafiy fiqhi asos qilib olingan. Kitob shaklida bitta muqaddima va o'n olti bo'limdan iborat. “Muqaddima” qismida nikoh, ajrim, vaqf, vasiyat, meros va boshqalar mavzular yoritilgan. O'n olti bo'limda esa kafolatlar, garov, garovga olish, garovga qo'yish, homiylik, tovlamchilik, kompaniya, vakolat, sulh va davo, ishonchnoma va boshqa shu kabi masalalarning hukmlari berilgan. Asar hukmlari modda shaklida bayon etilgan bo'lib, ular jami 1851 tani tashkil etadi.

Ahmad Posho: “fuqarolik qonuni Yevropa xalqiga asoslangan, islom sivilizatsiyasi esa fiqh asosiga ega ekanini”- ta'kidlaydi[7]. 1868-yil Fransiyada Fuqarolik kodeksi qabul qilinishi, mazkur asarning yozilishiga sabab bo'lgan voqea hisoblanadi. Buni qonun shaklida qabul qilish taklifi berilganda, vazir Ali Posho va Shayx ul-islom bo'lgan Fehmi Afandi qarshilik qiladi. Lekin Ahmad

Javdat bor kuchi bilan 13 yil kurashib, g'alaba qozonadi. Quyidagi chizgilar uning his-tuyg'ularini ifodalaydi: "Evropada eng mashhur bo'lgan qonun Konstantinopoldagi (Istanbul) ilmiy jamoa tomonidan tashkil etilgan va boshqaruvdagi Rim qonunlari edi. Bu esa Evropa qonunlarining mohiyatidir va hamma joyda mashhur va doimiydir. Biroq, bu masala "Ahkom-i Adliya"ga o'xshamaydi. Ular orasida juda ko'p va katta farqlar bor". "Majalla"ni Rim qonuni bilan solishtirgan Yevropa huquqshunoslaridan bir kishi "Majalla"ga ishora qilib shunday deydi: "Dunyoda qonun ikki marta ilmiy jamiyat tomonidan yaratilgan. Har ikkisi ham Istanbulda edi"[7].

"Majalla" xalqning azaliy an'analaridan uzoqlashtirmay, balki islomiy qonunlarni zamonaviy huquqiy tizimga moslashtirish zaruratining muvaffaqiyatli namunasidir.

2017-yil 25-27 sentabr kunlari Turkiyaning Adolat Akademiyasi tomonidan "International Symposium on Majalla" mavzusida Turkiyaning Bursa shahrida xalqaro simpozium o'tkazildi. Unda xalqaro miqyosidagi tarixchilar va huquqshunos olimlar, din ilmi ulamolari "Majalla" haqidagi ilmiy ishlari bilan ishtirok etdilar[8].

"Dastur". Majlis-i Oliy-i a'zoliciga tayyorlangan qonun va nizomlarning bir kitob holida to'plangan shaklidir. Kitob 1862-yilda nashr etildi.

"Risolutul-vafo". Yanya hokimi ekanligida yozilgan arabcha asar. U Otaturk kutubxonasida saqlanmoqda.

"Sharh-i kitabul omonat". "Majalla"ning omonatlar haqidagi hukmlari tushuntirilgan bu asar 1889-yil nashr etilgan.

Shuningdek, Otaturk kutubxonasida yigirma yetti moddalik **"Ijar-i akar nizomnomasi"** nomli bir qonun to'plami mavjud.

"Asar-i ahdi Homidi". Boshlang'ich maktablar uchun yozilgan bu asar 1892-yil nashr etiladi.

"Ta'likot ala Natoju'l-Afkor". Turkcha yozilgan mazkur asar Azmezoda Haletning "Natoju'l-Afkor" nomli asari asosida yozilgan. Fiqh usuli haqida ma'lumotlar berilgan[7].

"Majmua-i Ahmad Javdat". Umumiy masalalarni o'z ichiga olgan mazkur asarda Islom dinini qabul qilgan ikki kishining bergan savollari, Ahmad Javdatning unga yozgan javoblari va Shom muftiysi Mahmud Hamza Afandi bilan muallif o'rtasidagi diniy masalalar bo'yicha yozishmalari berilgan. U hozirda Istanbuldagi Otaturk kutubxonasida saqlanmoqda. (№ 98)[5]

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, yuqoridagi asarlardan ko'rinib turibdiki Ahmad Javdat har sohada to'la chuqur bilimga ega shaxs sifatida nafaqat Turkiya tarixida balki, islom tarixi va O'rta Osiyo tarixiga munosib hissa qo'shgan shaxslardan biridir. Uning ijodini o'rganish orqali tarix kitobini yangi sahifalar bilan boyitib borishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayın Dalkıran. "Tarix-i Cevdet"te İslam Mezhepleri. International Journal of Social Science. VI. 2009.
2. Vakanuvis- voqealarni va asosan hukmdorlarni boshidan o'tqazgan voqealarni qayd qilish va bu tarzda davlatning rasmiy tarixini yozish bilan mas'ul qilingan shaxsdir(davlat tarixchisi). Usmonlilar davlatida birinchi davlat tarixchisi Naima (1591-1659).
3. Recep Çıgdem. Ahmed Cevdet Pasha (1823- 1895):A Scholar And A Statesman Ahmet Cevdet Paşa Semineri, 27-28 Mayıs 1985. – İstanbul: 1999. – B. 86 .
4. Mustafa Uzun. Ahmed Cevdet Paşa Hayati-Eserleri: Dovançe-i Cevdet. – İstanbul: 1994. – B. 67.
5. Chambers, L. R. 'The education of a nineteenth century Ottoman Alim, Ahmed Cevdet Paşa', International journal of Middle Eastern Studies. IV, 1973.
6. Rashadat Ahmadov. Ahmed Cevdet Paşa ve İcâzetnâme'si. – İstanbul: Maarif Matbaası, 2016. – B. 43.
7. A. Şimşirgil E.Buğra. Ahmed Cevdet Paşa ve Mecelle.: İstanbul. 2008. – B. 55.
8. <http://www.risaleinurenstitusu.org>. Batı Medeniyetinin İki Veçhesi.

UO'K 94(575.1)

O'ZBEKISTON SSRDA KADRLARNI MILLIY MASALASI (XX asrning 30-yillari)

G.A.Kasimova, tayanch doktorant, O'zR FA Tarix instituti, Toshkent

Annotatsiya. Maqolada Sovet hokimiyati o'rnatilishi va uning boshqaruv faoliyatida milliy kadrlarni o'rni yo'qligi, buning sababi qilib esa tub aholi hali boshqaruvga tayyor emasligi ro'kach qilib ko'rsatilganligi va bu borada qabul qilingan qarorlar ijrosiga bepisandlik bilan qaralganligi, buning oqibatida milliy kadrlar turli idoralarning rahbarlik lavozimlarida umuman ishtirok

etmaganliklari va bu jarayon sovet hokimiyatini tugatilgunicha O'zbekistonda amalda bo'lib kelganligi masalalari bo'yicha ayrim mulohazalar berildi.

Kalit so'zlar: *Aholi, "o'zbeklashtirish", "mahalliyashtirish", milliy kadrlar, tayyorlov kurslari, Moskva, bolsheviklar, boshqaruv organi.*

Аннотация. *В статье рассматриваются вопросы установления советской власти и роли национальных кадров в ее управленческой деятельности, в связи с тем, что коренное население еще не готово к управлению и пренебрежительно относится к исполнению принятых решений, в результате чего национальные кадры вообще не участвуют в руководящих должностях различных ведомств, и этот процесс фактически продолжался в Узбекистане до ликвидации советской власти.*

Ключевые слова: *Население, "узбекизация", "коренизация", национальные кадры, подготовительные курсы, Москва, большевики, орган управления.*

Abstract. *The article deals with the establishment of Soviet power and the role of national cadres in its management activities, due to the fact that the indigenous population is not yet ready to manage and disdains the execution of decisions taken, as a result of which national cadres do not participate at all in senior positions of various departments, and this process actually continued in Uzbekistan until the liquidation the Soviet government.*

Keywords: *Population, "Uzbekization", "Korenization", national cadres, preparatory courses, Moscow, Bolsheviks, governing body.*

Bolsheviklar hokimiyatga kelgandan keyin O'zbekistonda o'zlarining ta'biri bilan ayganda "modernizatsiya" ishlarini jadal amalga oshirishni boshladilar. Sovet hokimiyatini o'rnatish jarayonida olib borilgan qatag'on siyosati asrlar davomida islom dini qadriyatlarini asosida shakllangan urf-odatlarining shavqatsiz yo'q qilinishi, davlat boshqaruvi tizimida tub aholining qatnashmasligi, aholining ijtimoiy hayotiga oid bo'lgan jarayonlarda bolsheviklar o'zlarining foydasini o'ylab amalga oshirilayotgan ishlari aholining haqli noroziliklariga sabab bo'ldi. Markazdan yuborilgan kadrlar davlat apparatining asosiy bo'g'inlarini egallab, milliy xodimlarni boshqaruvdan surib qo'ydi. Bu noroziliklarni bostirish uchun turli siyosiy nayranglardan foydalanildi. Bolsheviklar respublikalarda mahalliy kadrlarni davlat boshqaruviga tortgan holda ular orqali sovetcha g'oyalarni amalda tadbiiq qilish rejalarini ishlab chiqdilar.

1923 yil 12 dekabrda Butun Rossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va RSFSR XKS "Turkiston Respublikasida mahalliy tillarda ish yuritishga o'tishni tezlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi. Qarorda hududda faoliyat yuritayotgan davlat tashkilotlari ish yuritishni rus tili bilan barobar o'zbek tilida ham olib borilishini va bunda milliy aholini jalb etish kerakligi belgilab qo'yildi. Umumiy xodimlar ichidan milliy aholi ulushi 10 foizdan oshmasligi va shunga muvofiq kelgusi yillarda davlat budjeti shakllantirilishi belgilandi. O'rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o'tkazilib, milliy respublikalar tuzilgandan so'ng ham mahalliyashtirish ishi tugamadi va davlat muassasalarida ish yuritishni mahalliy tillarda olib borish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. agar qaror va ijro mexanizmi to'g'ri ishlaganda ishlar jadallik bilan ketishi va qaror ijrosi tez fursatlarda o'z natijasini ko'rsatishi kerak edi. Ammo, O'zbekiston SSR Markaziy ijroiya qo'mitasi rahbarlari tomonidan ishlar o'rganilganda kutilayotgan natijani bermadi.

O'rganishlar natijasida qarorda ko'rsatib o'tilgan milliy kadrlarni foizi talab darajasiga yetmasligi ma'lum bo'ldi. Turli bahonalar bilan milliy kadrlarni ishga olmaslik holatlari kuzatilgan. Bu bo'yicha kerakli idoralarga murojaat qilinganda ham bu o'z yechimini topmagan. Idoralarning milliy kadrlarni ishga olmaslik baholaridan biri – smetaga yangi kelgan xodimlar kiritmaganligi va Moskvadan bunday buyruq kelmaganligi ro'kach qilingan.

Ish xujjatlarini ikki tilda – o'zbek va rus tillarida tashkil etish yuzasidan qator qarorlar qabul qilinishiga qaramasdan 1926 yil oktabr oyigacha bo'lgan davrda davlat korxonalarida ish xujjatlari 85 foiz, xo'jalik organlarida esa 90 foiz, bank va sanoat korxonalarida 100 foiz rus tilida yuritilgan. Davlat korxonalarida rahbarlariga esa chora ko'rilmaganligi ham sovet hokimiyatining o'zbeklarga nisbatan hech qanday foydaga ishlamaganligining dalilidir.

1927 yil 8 yanvar – O‘zbekiston SSR MIQ huzuridagi “Davlat apparatini mahalliyashtirish Markaziy Komissiyasi”ning nomi “Davlat apparati va sanoatini o‘zbeklashtirish Markaziy Komissiyasi” deb o‘zgartirildi. Mazkur qarorga muvofiq o‘zbek millatiga mansub aholisi ko‘proq bo‘lgan tumanlardagi barcha davlat, jamoat, kooperativ muassasalari va tashkilotlari ish yuritishni o‘zbek tilida yoki bu yerda ko‘pchilikni tashkil qilgan tub aholi tilida olib borishlari shart edi.

1928 yil 3 dekabrda o‘tkazilgan Kasaba uyushmalarining 3-Butun o‘zbeklar qurultoyi stenografik hisobotida o‘zbeklashtirish apparati haqida shunday keltirilgan. “... o‘zbeklashtirish bo‘yicha bir qator qarorlar qabul qilingan, biroq bu masalada ishlar juda qiyin kechmoqda. Bir tomondan tub milliy aholi ichidan o‘zbeklashtirish apparati yo‘nalishi bo‘yicha kadr yetkazish kerak, boshqa tomondan yevropa tilini ham o‘zlashtirish masalasi turibdi. Milliy aholidan kadr tayyorlashda qanday imkoniyatlarimiz mavjud? Albatta, bizda ish yurituvchilarni tayyorlash bo‘yicha yuridik, moliya kurslari, buxgalterlik kurslari va boshqalar mavjud. Biroq Mehnat Xalq Komissarligida aytaylik, nechta buxgalterlar, hisobchilar va boshqa ishchilar kerakligini aniqlash mumkin bo‘lgan reja yo‘q. Biz o‘tgan yili chiqargan buxgalter, hisobchilarni deyarli ishlata olishmadi. Shu bilan birga kooperativ quyi tashkilotlar ishchi yetishmasligidan arz qilishmoqda. Mehnat Xalq Komissarligida qanday sohalarida qaysi yo‘nalish bo‘yicha nechta ishchilar kerakligi haqida aniq reja yo‘q. So‘zsiz bizda kurslar mavjud, lekin ular respublika talabini to‘liq qondirish darajasidagi miqdorda yetkazib bermaydi. Ular kam, ammo kam miqdordagilarni ham to‘g‘ri kerakli joyda ishlata olishmayapti”. Bundan ko‘rinadiki, davlat apparatini mahalliyashtirish va ish yuritishni o‘zbek tilida olib borish ishlari puxta tashkil qilinmagan. Bunga mas‘ul bo‘lgan mutasaddi rahbarlarning sansalorliklari tufayli bu ishlar amalga oshmadi. Aslida Sovet hokimiyatining maqsadi ham bunday bo‘lmagan. Doimiy ravishda ko‘zbo‘yamachilik ko‘rinishdagi xalqni aldovchi turli qarorlar ishlab chiqilgan, ammo ijrosiga kelganda panja ostidan qaralgan.

1928 yili O‘zbekiston SSRning barcha muassasalarida ish yuritishni mahalliy tillarda olib borish hamda yevropa millatiga mansub xodimlar uchun o‘zbek tilini va yangi alifboni o‘rganishga yo‘naltirilgan kurs va to‘garaklar ochish lozimligi to‘g‘risida dekret e‘lon qilindi. Bu dekretga binoan o‘zbeklashtirish 3 yillik muddatda amalga oshirilishi belgilandi. Ushbu dekretga muvofiq kurs va to‘garaklar tashkil etildi va ishlarni nazorat etish maqsadida O‘zSSR Maorif Xalq komissarligi va O‘zbeklashtirish bo‘yicha komissiya birgalikda tekshiruv olib borib quyidagi hulosalarni bergan:

- Ishchi xodimlarning kurs mashg‘ulotlariga muntazam qatnashmagan va to‘garakka yozilgan ishchilarning bor yo‘g‘i 25-30 foizigina darsda ishtirok etgan;

- Mashg‘ulotlarda tinglovchilarning yetarli emasligi natijasida doimiy ravishda darslar belgilangan vaqtdan kech boshlangan;

- ba‘zi muassasalarda kurs mashg‘ulotlari uchun doimiy binolar va mos xonalar tashkil qilinmagan;

- Muassasalardagi kurslarda hukumat dekretida ko‘rsatilganlek birinchi navbatda o‘zbek tilini o‘rganishga bor-yo‘g‘i ikki akademik soat ajratilgan. Bu esa tinglovchilarni dekretida o‘rnatilgan muddatda dasturni to‘liq o‘zlashtirish imkoniyatlaridan mahrum qilgan;

- Muassasalar rahbarlari tomonidan o‘zbeklashtirish bo‘yicha ichki komissiya faoliyati va kurslarga ishchilarning qatnashishi muntazam nazoratga olinmagan.

Huddi shunday kamchiliklar Kasaba uyushmalarining 3-Butun o‘zbeklar qurultoyida aytib o‘tilgan. Stenografik hisobotida yevropaliklarni o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha kurslar ish faoliyati haqida so‘ralganda, ishlar yomon ketayotgani haqida gapirilgan. “... dekretida agar yevropaliklar o‘zbek tilini o‘qitish bo‘yicha kurslarda o‘qib, 1 yil ichida kerakli darajada o‘zbek tilini o‘rganmasa, u tashkilotlarda ishlay olmasligi qattiq to‘xtalib o‘tilganligiga qaramay juda yomon ishlamoqda. Aslida bu kurslarga davlat pulidan saflanmoqda, lekin biz shunday narsalarga guvoh bo‘lyapmiz – avval 25-30 kishi kursga yoziladi, keyin kursga keluvchilar soni 8-10 kishiga tushib ketadi. Bu yerda faqatgina rahbarlar aybdor emas, balki kurslarga tartibsiz qatnovlar ham sabab bo‘layapti. O‘qituvchilarga taalluqli bo‘lgan tomonlarini hal qilishimiz mumkin, masalan bunday kurslarga layoqatsiz o‘qituvchilar bo‘lsa biz uni almashtira olamiz. Bundaylar bizni hisobimizda yo‘q emas. Shuning uchun biz barcha kurslar maqbul o‘qituvchilarni topishi uchun o‘rganish muddatini 3 yillik qilib belgiladik. Agar hamma tashkilotlar bir vaqting o‘zida kurslarni ochsa, unda 300-400 ta kurslar

ochilib, albatta bunda o'qituvchilarni yetkazib berish mumkin bo'lmay qolardi, lekin 65 ta kurslarga o'qituvchilarni topish mumkin albatta va bizda rus va o'zbek tillarini biladiganlar hisobi mavjud. Shuning uchun kurslarning doimiy ravishda ahvolini tekshirib turish va tashrif buyurmaslik holatlarini aniqlash lozim. Agar ayb o'qituvchilar tomonidan bo'lsa, buni aniqlashtirish va almashtirish mumkin, lekin kursga kelib-ketish bo'yicha ayb o'quvchilarda bo'lsa, unda kerakli choralarni ko'rish talab etiladi."Yuqorida ko'rsatilgan kamchiliklaran kelib chiqib, o'zbeklashtirish bo'yicha komissiya "O'zbekiston SSR muassasalarining mutasaddi xodimlari hukumatning "o'zbek tilini o'rganish majburiyati to'g'risida"gi buyrug'ini xavf ostiga qo'yimoqda va shuningdek, kurs tinglovchilari tomonidan belgilangan muddatda mashg'ulot darslarini o'zlashtirishga to'sqinlik qilmoqdalar" deb qaror qilgan. Ammo bu kabi holatlar kamaymadi.

Milliy aholi orasida kadr yetishib chiqmasligi bir qator sohalarda noqulayliklar tug'dirgan. Jumladan sog'liqni saqlash sohasida 1928 yil 3 dekabrda o'tkazilgan Kasaba uyushmalarining 3-Butun o'zbeklar qurultoyi stenografik hisobotida "sog'liqni saqlash sohasidagi ishlar qanday ketyapti?" degan savolga shunday javob berilgan: "... bu sohada bizda faqatgina bir kamchiligimiz bor, u ham bo'lsa milliy aholi vakillaridan yetarli miqdorda shifokorlarimiz mavjud emas va hamma shifokorlar ham o'zbek tilida gaplashishini bilmaydilar. Bu bizning kamchiligimiz, lekin biz buni Oliy ta'lim muassasalari bilan tizimli ishlash yo'li orqali, shuningdek kontingentlarni to'g'ri tanlash va bu borada tegishli ishlarni amalga oshirish orqali tugatishimiz mumkin. Sog'liqni saqlash bo'limidan bizga milliy aholidan shifokorlarni darhol berishini so'rash mumkin emas. Bu ilojisiz."Bundan ko'rinadiki, Oliy ta'lim muassasalari tomonidan ham bu ishga befarq qaralgan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, apparatni "milliylashtirish" jarayonida uning mazmuni birmuncha o'zgartirilgandi, bunda asosiy e'tibor mahalliy aholini davlat boshqaruviga jalb qilish emas, balki, faqat davlat apparatini aholiga yaqinlashtirishga qaratildi. Buning uchun davlat muassasalaridagi yevropa millatiga mansub xodimlar uchun o'zbek tilini o'rganish tizimi ishlab chiqildi. Ammo, mahalliy millat vakillaridan xodimlar tayyorlash va ularni markaziy okrug tashkilotlari va muassasalariga jalb etish masalalari asta-sekin respublika rahbariyatining diqqat-e'tiboridan chetda qoldi. 1927 yilda O'zbekiston Kommunistik partiyasining III s'ezdi rezolyusiyalarida esa quyidagi fikrlar aytiladi: «Milliy masalani hal qilish partiyaning birdan-bir maqsadi emas, balki bizning vazifalarimiz uchun kurashda faqat bir vositadir». Bu fikrlar orqali bolsheviklar rahnamoligidagi siyosiy partiya xaqiqiy pozitsiyasini oshkor qilganki, ular o'zlarining sotsializm qurish g'oyasini amalga oshirish uchun o'zlari yuritgan milliy siyosatdan bir vosita sifatida foydalanganlar.

O'zbeklashtirish bo'yicha ishlar kerakli natijani bermayogan bir paytda 1931 yil 11 dekabr – SSSR MIKning "O'zSSR apparatini o'zbeklashtirish to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unga ko'ra O'zbekistonda davlat apparatini o'zbeklashtirish Markaziy komissiyasi faoliyati to'xtatiladi. Lekin o'zbeklashtirish ishi bo'yicha qilinishi kerak bo'lgan ishlar nazorati va ularga hisobotlar to'xtab qolmadi. Bu davrda ittifoqdosh respublika sharoitlarida mahalliyashtirish prinsiplari qatag'onlarga qaramasdan o'z kuchida qolayotgan edi. Maxalliyashtirish muammosiga qiziqish xali so'nmagandi. Quyi idoralar yuqori idoralar oldida hisob berib turishardi. U yoki bu korxonalaridagi tub axoli soni va injener-texnik xodimlar o'rtasidagi ularning solishtirma salmog'i haqidagi statistik ma'lumotlar yuqori idoralarga hali kelib turardi. Xalk komissarlarining maxalliyashtirish va tub axoliga ona tilida xizmat ko'rsatish masalasi bo'yicha hisobotlari turli majlislarda davriy ravishda eshilib turardi. 1935 yil O'zbekiston SSR Xalq xo'jaligi Hisob boshqarmasi Oliy ta'lim muassasalarining 1936 yil 1 yanvar holati bo'yicha yillik hisobotlarini ko'rib chiqib, partiya va hukumat direktivalarining milliy kadrlarni tayyorlash bo'yicha topshiriqlari ko'pgina Oliy ta'lim muassasalarida to'liq bajarilmayotgani haqida bayonot bergan.

O'zSSR Oliy ta'lim muassasalarida milliy kadrlarni tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalari 1936 yil 1 yanvar holatiga jami 10ta kunduzgi oliy ta'lim muassasalari bo'lib, shundan O'zbekiston davlat universiteti, 3ta Pedagogika instituti, 2ta Tibbiyot instituti, Sovet qurilishi va huquq instituti, Reja instituti, Davlat savdo va kooperatsiya instituti, Qishloq xo'jaligi instituti.

O'zSSR Oliy ta'lim muassasalarida milliy tarkib quyidagicha:

№	O'quv muassasasining nomi	1936 yil 1 yanvar holatiga ko'ra
---	---------------------------	----------------------------------

		Umumiy o'quvchilar	Jumladan milliy aholi (%)	Shundan o'zbeklar (%)
1	O'zbekiston davlat universiteti	739	60,0	74,3
2	Pedagogika instituti	954	59,5	79,5
3	Tibbiyot instituti	1378	43,0	69,6
4	Sovet qurilishi va huquq instituti	254	83,5	88,2
5	Reja instituti	527	34,1	48,9
6	Davlat savdo va kooperatsiya instituti	305	44,5	55,1
7	Qishloq xo'jaligi instituti	561	42,7	77,9
	Jami:	4718	50,3	72,9

Milliy aholi vakillaridan barcha institutlardan ko'ra ko'proq foizda Sovet qurilishi va huquq instituti (83,5%) bo'lib, shulardan 88,2% o'zbeklardir. Maorif xalq komissarligi qoshidagi Oliy ta'lim muassasalari (O'zbekiston davlat universiteti va Pedagogika institutlari) da milliy aholi 59,7%ni, shulardan o'zbeklar 77,2%ni tashkil qiladi. Pedagogika institutida milliy aholi ulushi 59,5%ni, shundan o'zbeklar 79,5% ni tashkil etadi. Milliy aholi foizi hisobida talabalar orasida eng pastda turgan – Reja instituti 34,1%ni, ulardan o'zbeklar 48,9% ni tashkil qiladi. Xuddi shunday boshqa institutlarda – Tibbiyot, Qishloq xo'jaligi va Davlat savdo va kooperatsiya institutlarida ham milliy aholi foizi kamchilikni tashkil qilishi kuzatilgan.

1936 yil 1 yanvar holatiga nisbatan O'zSSR Oliy ta'lim muassasalarining milliy tarkibini 1935 yilning mos davri bilan solishtirilganda talabalar umumiy sonidagi milliy talabalar ulushi ma'lum darajada (milliy aholi 0.3% ga, shu jumladan o'zbeklar 3.7%ga) kamayganligini ko'rsatadi.

1935 yilda talabalar orasida milliy aholining solishtirma miqdorining eng ko'p pasayganligini Qishloq xo'jaligi institutida (11.5%ga) ko'rishimiz mumkin. Qolgan Oliy ta'lim muassasalarining 1935 yil davomidagi o'quvchilar orasidagi milliy aholining ulushi ortdi. Pedagogika instituti o'quvchilari orasidagi milliy aholining ulushi 3,9%ni tashkil etsa, shulardan o'zbeklar 1935 yil 1 yanvar holatiga oshgani (85,8%) va 1936 yil 1 yanvar holatiga esa (79,5%) tushgani ko'rinadi. O'zbekiston sharoitida mahalliy lashtirish mohiyatan mahalliy xalqlarni davlat apparatiga jalb qilishni anglatardi. Ammo mahalliy lashtirish siyosatini uzluksiz o'sib boruvchi jarayon sifatida tasavvur qilmaslik kerak. Unda egri-bugrilik va past-balandliklar ko'p bo'lgan. Uzbeklashtirish siyosatiga oid ko'plab hujjat va materiallarning tahlilidan shu narsa ko'rinadiki, barcha xodimlarning umumiy soni ko'payganiga qaramasdan muassasalar va korxonalar bo'yicha tub axolining solishtirma salmog'i kamayishi yuz bergan, bu borada barqarorlik qayd etilmagan. Yuqoridagi statistik jadvalda umumiy talabalarning soniga o'zbeklarning ulushini emas, balki tub aholi (boshqa millatga mansub ammo O'zbekistonda tug'ilib, o'zbek tilida gaplashadigan) ni umumiy talabalar soniga nisbatan foizi chiqarilib, undan keyin shu songa nisbatan o'zbeklarning ulushi foizda ko'rsatilgan. Bunday xisobot bir qarashda foiz hisobida o'zbeklarning ulushi ko'p ko'rinish beradi va bu chalg'ituvchi foiz ko'rsatgichi bo'lib, aslida esa umumiy talabalar soniga nisbatan o'zbeklarning ulushi ancha past edi.

Huddi shunday pasayish holat Tibbiyot institutida ko'rinadi (o'zbeklar 4,7% ga kamaygan). Sovet qurilishi va Huquq institutida o'zbeklar ulushi 2,7% ga kamaydi.

O'tgan 1935 yilning solishtirma ma'lumotlariga ko'ra quyidagi Oliy ta'lim muassasalarida pasayganini ko'rishimiz mumkin:

a) 1933 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Pedagogika institutida milliy aholi ulushi 70,4% ni, shundan o'zbeklar – 58,6 %ni; 1934 yil milliy aholi ulushi 60,4% ni, shundan o'zbeklar – 49,0% ni; 1935 yil milliy aholi ulushi 55,6% ni, shundan o'zbeklar – 88,8% ni tashkil qilgan.

b) 1933 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Qishloq xo'jaligi institutida milliy aholi ulushi 74,3%ni, shundan o'zbeklar – 85,5 %ni; 1934 yil milliy aholi ulushi 62,2% ni, shundan o'zbeklar – 78,4% ni; 1935 yil milliy aholi ulushi 54,2% ni, shundan o'zbeklar – 78,1% ni tashkil qilgan.

v) Sovet qurilishi va Huquq, Tibbiyot institutlarida talabalar orasida milliy aholining ulushi yildan yilga ortib bormoqda. 1933 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Tibbiyot institutida 33,8% ni, 1934 yil 41,0% ni, 1935 yil 42,1% ni va Sovet qurilishi va huquq institutida 1933 yil 56,5% ni, shundan o'zbeklar -80%ni, 1935 yil 62,5%ni, shundan o'zbeklar – 91,5% ni tashkil qiladi.

O'zSSR Oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida, ayniqsa milliy aholi vakillaridan bo'lgan xotin qizlar ulushi yetarli emas. 1936 yil 1-yanvar holatiga ko'ra O'zSSR Oliy ta'lim muassasalarida

o'qigan talabalar umumiy sonining 36,2%ni ayollar, shulardan o'zbek xotin-qizlari 21%ni tashkil qilgan.

Qishloq xo'jaligi institutida (19,0%) va Sovet qurilishi va huquq institutida (19,6%) ayollarning ulushi ayniqsa past. Ayollarning eng katta ulushi tibbiyot institutlari (27,9%) va O'zbekiston davlat universiteti (26,1%)ga to'g'ri keladi. O'zbekiston ayollarining eng kam foizi Qishloq xo'jaligi institutiga (5,1%), Davlat savdo va kooperatsiya institutiga (4,0%) va Rejalashtirish institutiga (5,7%) tegishli.

O'zbeklarning eng past foizi Rejalashtirish institutida (12,6 foiz), Tibbiyot institutida (22,1 foiz) va Qishloq xo'jaligi institutida (31,7 foiz). 1934 yil kuzgi qabul bilan solishtirganda mahalliy millatlar ulushi 56 foizdan 53,2 foizga, shulardan o'zbeklar soni 45,6 foizdan 42,9 foizga kamaydi.

Ittifoqqa bo'ysunuvchi oliy o'quv yurtlarida milliy kadrlar tayyorlash holati esa so'rovda qatnashgan barcha oliy o'quv yurtlarida yanvar oyida milliy kadrlar tayyorlash bilan bog'liq vaziyat yaxshi emas edi. O'zbeklar va boshqa mahalliy millat vakillarining ulushi umuman talabalar jamoasida ham, qabulda ham, ayniqsa bitiruv bosqichida ham juda past bo'lgan.

1935-yil 1-yanvar va 1936-yil 1-yanvarda ushbu universitetlarda talabalarning milliy tarkibi quyidagi shaklda taqdim etilgan: (umumiy talabalar sonidan foizda)

№.	Ta'lim muassasalari nomi	1935-yil 1-yanvar holatiga ko'ra umumiy sonining % da.			1936-yil 1-yanvar holatiga ko'ra jami sonining % da.		
		O'zbeklar	Boshqa mahalliy millatlar		O'zbeklar	Boshqa mahalliy millatlar	
1	Moliya-iqtisodiyot instituti	14.4	25.5		12.4	23.3	
2	Sanoat instituti	7.2	9.1		10.1	9.5	
3	Markaziy Osiyo davlat universiteti	19.7	9.0		20.9	8.7	
4	Temir yo'l transporti instituti	9.7	5.3		15.3	6.3	
5	Irrigatsiya instituti	5.7	5.9		6.6	5.7	
6	Qishloq xo'jaligi instituti	10.6	14.2		8.2	13.2	
7	To'qimachilik instituti	9.6	3.3		16.5	3.2	
	Jami:	10.6	8.8		12.8	9.1	

Shunday qilib, 1935 yil 1 yanvarda ham, 1936 yil 1 yanvarda ham o'zbeklar va boshqa mahalliy millatlarning ulushi ahamiyatsiz bo'lib, 1936 yilda bu toifadagi talabalar soni atigi 2,5 foizga (1936 yil 1 yanvarda 21,9 foiz) o'sgan. (1935 yil 1 yanvardagi 19,4% ga nisbatan)

Ta'kidlash kerakki, ko'rilgan choralar muayyan darajada xalq xo'jaligini zarur sanoat va kishlok xo'jaligi buyicha milliy mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashga yordam bergan bo'lsa-da, baribir, mazkur muammoni hal qila olmadi. Lavozimga ko'tarishda bilimga emas, balki, asosan, mafkuraviy mezon va nomzodning siyosiy qarashlariga tayanildi.

Hulosa qilib aytganda, O'zbekiston davlat apparatini milliyashtirish yoki o'zbeklashtirish ishlari yuzasidan qilingan ishlar barchasi deyarli samarasiz bo'ldi. Hukumatga esa chalg'ituvchi hisobotlar berib borildi. Bundan shikoyat qiluvchilar esa qatag'onga tortildi. Boshqaruv apparati tizgini sovet hukumatigi xizmat qiluvchi yevropa millatining qo'ldida bo'lib keldi va bu sovet hokimiyatining so'nggi yillarigacha shunday bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zMA fond R-86, 1-ro'uxat, 5147-y/j., 30-varaq.
2. O'zMA, fonl R-837, 3-ro'uxai, 593-y/j, 8-varaq
3. O'zMA fond R-86, 10-ro'uxat, 3-y/j, 6-varaq
4. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар. -Тошкент, "Ўзбекистон", 2019.-409-бет.
5. O'zMA, fond R-2786, 1-ro'uxat, 48-y/j, 112-varaq
6. "Правда Востока". 7 октября 1928 г.
7. "Узбекистанская правда". 27 февраля 1929 г. №5
8. О.Рашидов. Ўзбекистонда совет бошқаруви структурасидаги кадрларни маҳаллийлаштириш сиёсатининг айрим жиҳатлари // "Ўзбекистон тарихи" журнали. 2017 йил, 1-сон.

9. Ўзбекистон Коммунистик партияси съездларининг резолюция ва қарорлари. -Тошкент: Ўзбекистон ССР Давлат нашриёти, 1958. - 229 - 241-бетлар.
10. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар.-Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019.-411-бет.
11. О'zMA, fond R-86, 10-ro'yxat, 12-y/j, 63-varaq
12. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар.-Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019.-417-бет.
13. О'zMA, fond R-1619, 11-ro'yxat, 194-y/j., 2-varaq
14. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб 1917-1939 йиллар.-Тошкент, “Ўзбекистон”, 2019.-416-бет.
15. О'zMA, fond R-1619, 11-ro'yxat, 194-y/j, 2-3-varaqlar
16. О'zMA, fond R-1619, 11-ro'yxat, 194-y/j, 4-varaq

UO'K 94(575.1)

XIVA XONLIGIDA RUS VA TATAR-BOSHQIRD TADBIRKORLARI FAOLIYATI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI).

S.M. Matkarimova, DSc, prof., Ma'mun Universiteti, Xiva
N.J.Tadjiyeva, o'qituvchi, Urganch tumani 38-son maktabi, Urganch

Annotatsiya. Xiva xonligida mahalliy tadbirkorlar sinfining shakllanishi tarixi voha tarixining eng kam o'rganilgan sahifalaridan biri bo'lib, O'zbekiston Respublikasining jadal bozor munosabatlarga kirib borishi jarayonida mazkur muammoni o'rganish muhim ahamiyatga ega masalalardan hisoblanadi. Qolaversa, xonlikda tadbirkorlar ijtimoiy guruhlarining shakllanishida rus, tatar va boshqird millati vakillari asosiy rol o'ynaganligi manbalardan ma'lum. Shu jihatdan olganda mazkur maqolada Xiva xonligida mahalliy tadbirkorlar sinfining shakllanishida rus, tatar va boshqird tadbirkorlarining o'rni va ularning vohada ishlab chiqarish hamda bozor munosabatlarining taraqqiyotidagi o'rni masalasi, hozirgacha bu borada tarix fanida shakllangan qarashlar tahlil qilinib, mazkur muammo yuzasidan yangicha xulosalarga kelinganligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Yangi Urganch, Gurlan, Xiva, aka – uka Kraftlar, Rus-Osiyo banki, Bolshaya Yaroslavskaya manufaktura, tatarlar, boshqirdlar, savdo-sotiq, ishlab chiqarish, aka-uka Rizaevlar, Manuilovlar, Maksim, aka-uka Solijonovlar.

Аннотация. История формирования класса местных предпринимателей в Хивинском ханстве является одной из наименее изученных страниц истории оазиса, и в процессе быстрого вхождения Республики Узбекистан в рыночные отношения, изучение этой проблемы считается одним из важнейших вопросов. Кроме того, из источников известно, что ключевую роль в формировании социальных групп предпринимателей в ханстве сыграли представители русской, татарской и башкирской национальностей. С этой точки зрения в статье анализируется роль русских, татарских и башкирских предпринимателей в формировании класса местных предпринимателей в Хивинском ханстве и разъясняется их роль в развитии производственных и рыночных отношений в оазисе.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Новый Ургенч, Гурлан, Хива, братья Крафт, Русско-Азиатский банк, Большая Ярославская мануфактура, татары, башкиры, торговля, производство, братья Ризаевы, Мануйловы, Максим, брат - братья Солиджоновы.

Abstract. The history of the formation of the class of local entrepreneurs in the Khiva Khanate is one of the least studied pages of the history of the oasis, and in the process of the Republic of Uzbekistan's rapid entry into market relations, the study of this problem is considered one of the most important issues. In addition, it is known from the sources that representatives of Russian, Tatar and Bashkir nationalities played a key role in the formation of social groups of entrepreneurs in the khanate. From this point of view, this article analyzes the role of Russian, Tatar and Bashkir entrepreneurs in the formation of the class of local entrepreneurs in the Khiva Khanate and their role in the development of production and market relations in the oasis. explained.

Key words: *Khanate of Khiva, New Urganch, Gurlan, Khiva, Kraft brothers, Russian-Asian Bank, Bolshaya Yaroslavskaya Manufactory, Tatars, Bashkirs, trade, production, Rizaev brothers, Manuilov, Maksum, brother - the Solijonov brothers.*

Kirish. Manbashunoslik, tarixshunoslik va boshqa yordamchi tarixiy fanlar doirasidagi tadqiqotlar jarayonida to'plangan ilmiy – amaliy natijalarni chuqur tahlil qilish tarix sohasida mavjud muammolarni aniqlash va ochib berish borasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'tmish jarayonlarini xolis baholash imkonini beradi. Jumladan, tadbirkorlik tarixi muammosining o'rganilishiga haqqoniy baho berish nihoyatda muhim vazifaga aylandi. SHu o'rinda, Xiva xonligida mahalliy tadbirkorlar ijtimoiy qatlamining shakllanishida hamda ularning iqtisodiy jarayonlarda tutgan o'rnini, mahalliy tadbirkorlik an'alarining shakllanishida rus va tatar-boshqird millatiga mansub tadbirkorlarning tutgan o'rnini masalasi yangi asoslarda ko'rib chiqish va baholash alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, bu borada hali o'rganilmagan va boshqa manbalarda aks etmagan ma'lumotlarni tahlil qilish va ilmiy muomalaga kiritish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xiva xonligida faoliyat yuritgan rus, tatar va boshqird savdogar va tadbirkorlari hali o'rganilmagan manba Abdulla Boltayevning qo'lyozma daftarlaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilingan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuqorida ta'kidlanganidek, Xiva xonligida mahalliy tadbirkorlar sinfining shakllanishi tarixi masalasi Xorazm tarixining ancha kam o'rganilgan sahifalaridan hisoblanib, bu borada mavjud yozma manbalar ma'lumotlari deyarli tahlil qilinmagan. Bu mavzudagi yozma manbalar ham juda kam bo'lib asosiy xususiyati shundaki, bu borada mahalliy va rus, tatar va boshqird tadbirkorlari haqida keng ma'lumotlar keltirilib o'tilgan birorta mahalliy manbalar yo'q. Faqat xivalik tarixchi Abdulla Boltayevning qo'lyozma daftarlarida rus, tatar va boshqird millatiga mansub savdogarlar va tadbirkorlar haqida ma'lumotlar mavjud. Bu qo'lyozma daftarlar muallifning avlodlari shaxsiy kutubxonasida saqlanib kelmoqda.

Xonlikda faoliyat yuritgan tadbirkorlar ichki va tashqi savdo aloqalaridagi faoliyati qay darajada bo'lganligi asosan rus va xorij manbalarida o'z aksini topgan. Xonlik bosib olinganidan keying uning xom-ashyo bazasiga aylantirilishi jarayonida rus va xorij ma'murlari va turli soha mutaxassisleri tomonidan o'rganila boshlandi. Jumladan, rus mutaxassisi V.I. Masalskiy va A. Krasnoslobodskiy Xiva xonligida paxtachilik sanoatining metropoliya to'qimachilik sanoatidagi tutgan o'rnini va istiqbollarni tahlil qilgan bo'lsa [4, 9-10; 5,23], V.N.Veber xonlik tog'-kon sanoati istiqbollarni o'rgangan [2, 7]. M.N.Sobolev xonlik bilan bojxona tizimi masalasini tahlil qilgan bo'lsa [11], S.Xrulev tadqiqotlarida Xiva xonligi bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari istiqbollari tadqiq qilingan [14, 48]. Umuman olganda bu mavzuga oid manbalar asosan statistik va hisobotlar xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar hisoblanadi.

Mazkur maqolada, asosan hali ilmiy muomalaga kiritilmagan A. Boltayevning qo'lyozma daftari ma'lumotlaridan A.S. Sadikov, T.G. Tuxtametov, M. Niyazmetov, R.Y. Pochekeyev, K.A. Abdraxmanov, E.A. Glushenko kabi sobiq SSSR davri yoki Rossiyalik, D. Ziyoyeva kabi o'zbek tadqiqotchilari tadqiqotlari ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilish asosida foydalaniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xiva shahrida tug'ilgan hamda, usta-me'mor, naqqosh, tarixchi va shoir A.Boltayevning qo'lyozma daftarlarida Xiva xonligida faoliyat yuritgan rus va tatar-boshqird millatiga mansub tadbirkorlar masalasi bo'yicha juda muhim, boshqa manbalarda uchramaydigan ma'lumotlar mavjud. Jumladan mazkur daftarlarda aks etgan yana eng muhim ma'lumotlar bu Xiva xonligining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Rossiya bilan savdo munosabatlariga oid ma'lumotlar hisoblanadi. Bu yerda A.Boltayev xonlikdan Rossiyaga va Rossiyadan xonlikka olib kelingan mahsulotlar turlari hamda miqdori xususida juda qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tgan. Jumladan, "1883 nchi yilda Peterburgdan telegramm birlan Xiva xoni Muhammad Rahim 2 din so'rolg'on. Xivadin chiqadurg'on va Xivaga kiradurg'on yuklarni tuya yuki xisobi birlan so'rolg'on telegramig'a javob uchun tubandagilarni yozib yuborilgandur.

Rossiyadin keladurg'on va Rossiyaga ketadurg'on paxtalar 20000 tuya yuki. Va yana mato chig'on qo'y teri, eski teri meshi yung 3000 tuya. Rossiyadin viloyatga keladurg'on archin moli 5000 tuya yuki. Va yana mis, temir, qozon va shunga o'xshashlar 3000 tuya yuki. Nah, qand, nabot, kampit, tilla, to'n, achchig' tosh 12000 tuya yuki. Jam'isi 43000 tuya yuki. Buxoro, Ashhabod, Mashg'adga ketadurg'on yuklarni xisobi. Daryoni qibla va orqa tarafidin Buxoro, ashhabod, mashhadga ketadurg'on chapon, bo'z, ro'yan, charm, eski teri, xom, etik, yag'och, taboq, qora uy 7000 tuya yuki va yana bug'doy, jo'kori, burunch, soriyog' 8000 tuya yuki. Buxoro va Ashhabod, Mashhaddin viloyatg'a ketadurg'on archin mol, gilam, takanamato, naft yog'i, qora mum, attor xaridi (ya'ni charchi) 7000 tuya yuki. Va yana choy, tamaku, nil, bo'z go'ng, zok, nor po'st xamadoniy qaysh, holva, arik, uzum shorni 5000 tuya yuki. Jam'iysi 27000 tuya yuki bo'lg'on Rossiyadin va Buxorodin Ashhabod, Mashhadlardin kelib va ketadurg'on yuklarni jam'iysi 70000 tuya yuki bo'lg'ondur. Har bir tuyaga yuklanadurg'on yukni miqdori 15 but bo'lib har buti 16 kilo xisobidin 15 but bir tuyaga yuklangan yuk 240 kilo yukdan bo'latur" [14, 51-52].

Abdulla Boltayev qo'lyozma daftarlaridagi iqtisodiy sohaga oid ma'lumotlar ichida eng originali bu 1911 yilga kelib Xiva xonligida savdo-iqtisodiy faoliyat olib borgan Rossiya sarmoyadorlari ro'yxati bo'lib, bu ro'yxatda mazkur sarmoyadorlarning qaysi shahar yoki tumanda faoliyat yuritishi, nima mahsulotlar bilan savdo qilib, qanday faoliyat turi bilan shug'ullanishi va ularning yillik daromadlarigacha ma'lumotlar batafsil keltirilgan. A.Boltayev bu ma'lumotlarni Xiva xonlari arxividan olganligini ta'kidlagan hamda bu ma'lumotlar boshqa birorta manbada uchramaydi. U bu borada bunday deya ta'kidlagan: "1911 nchi yilda Xorazm xonliqi bo'yincha har bir rayonlarda Rossiya xalqlaridin do'kon ochib savdogarchilik qilib yurgan Rossiya xalqlarini spiskasi. Ushbu material xonlarni arxividin yozildi. Asli muzeyda saqlanmoqda" [14, 63-66].

№ T/n.	Ism familiyasi	Qaysi rayonda do'kon ochilg'on	Nimalar bilan savdo qilg'on	Bir yil miqdorida qo'linda bo'lg'on daromadi
1	Rafi' Ibonov	Xivada	Kerosin qand shakar bilan	15000
2	Sabil	Xivada	Kerosin qand shakar bilan	7000
3	Masko'fisi dersi Ya'qub	Xivada	Archin mol nah	70000
4	Xoji Muhammad Ali xoji Xusayn	Xivada	Ko'k choy sotar	30000
5	Fadir namtoy SHukurov	Xivada	CHoy qand nabot	2000
6	Jabrano'o'f	Xivada	Tamaku qorachoy	2000
7	Alovuddin SHarofiddinov	Xivada	Tamaku qorachoy qand	1000
8	Muhammad Aliboy Xoji Abbos	Xivada	Ko'k choy	5000
9	Manodilov Povel	Xonqoda	G'o'zani paxta ip sotar	42000
10	Fozlonisli chernikof	Xonqoda	O't chiqi birlan paxta	15000
11	Uroniski Vais Yen'ekin	Xonqoda	Qand, kanpo't kerosin	5000
12	Mixail Kershimov	Xonqoda	Har xil mayda narsa	400
13	Andiroy Kurkuriy	Xonqoda	Dengizdin baliq olib kelib	5000
14	Purul Kuznisov	Urganchda	Qand, shakar, kerosin	30000
15	Ibon Abromov	Urganchda	Qand, shakar, kerosin	60000
16	Ko'chmon SHulponov	Urganchda	Qand, shakar, kerosin	10000
17	Iskandar xoji Abbos o'g'li	Urganchda	Xom teri olib Rossiyaga ketar	10000
18	Fatxullo Xoji Muhammad Xoshim	Urganchda	CHoy sotar	3000
19	Ottaullox Solijonov	Urganchda	Paxta xom mato'	150000
20	SHoh Ahmad Tuhfatullo o'g'li	Urganchda	Archin mol	500
21	Muhammad Vali Muhammad Sodiq o'g'li	Urganchda	Archin mol	2000
22	Xoji Abdurasul Qosim.	Urganchda	CHoy sotadi	10000
23	Ne'matullo Axmadjonov	Urganchda	Har xil mayda narsa	300
24	Nikolay Andreev	Urganchda	Qand kampo't, aroq	15000
25	Andiroy SHunodirov	Urganchda	Oyna, qopi, ponus	1000

26	Jahonshoh Ahmadshoh	Urganchda	Mashinchi kiyim tikib sotar	300
27	Nasrullo Abdurahmon	Urganchda	Mashinchi kiyim tikib sotar	200
28	Izzat Fayzullo o'g'li	Urganchda	Mashinchi kiyim tikib sotar	100
29	Rahmatullo Iffatullo	Urganchda	Mashinchi kiyim tikib sotar	300
30	Lotir Sakson ikki o'g'li	Urganchda	Xom teri oladur	15000
31	Yoshiri Manfajturi	Urganchda	Zobo'tda paxta etar.	200000
32	Fursiki Tavorishi	Urganchda	Zobo'tda paxta etar.	150000
33	Duqub Aponos	Urganchda	Archin mol sotar	40000
34	Sarkoy Plonoshev	Gurlanda	Bir o't mashin 2 chiqi kasanag'a paxta chiqaradur 1 kunda 400 but	400 but
35	Mixail Kuznetsov	Gurlanda	Kanpo't sotar	6000
36	Bekchon Burloq Muhammad Rizo o'g'li	Gurlanda	Archin mol sotar	5000
37	Xolnizoz Qozoq O'skinboy	Gurlanda	Archin mol sotar	5000
38	Vaisnizoz O'roz Muhammad	Gurlanda	Archin mol sotar	5000
39	Samandar Qozoq Bozor o'g'li	Gurlanda	Archin mol sotar	10000
40	Bobojon Maxzum Sapoz Maxzum	Gurlanda	Archin mol sotar	15000
41	Zarif No'g'oy	Gurlanda	Go'ja olib Urganchga yuboradur	10000
42	Xusayn No'g'oy O'rozboy	Manoqda	Xom teri ham G'o'ja olur	10000
43	Xayrullo Sayful Muluk o'g'li	Toshhovuz	G'o'ja paxta olur	20000
44	Udif SHaridis	Toshhovuz	Bir o't mashin paxta chiqaradur	500 but 10 tiyindin
45	Muhammad Rahim Qutluqmurod Ugnoev	Toshhovuz	2-tuya jiqi	10000
46	Muhammad Mahzum Zokir	Toshhovuz	Archin mol, qand, nabot	50000
47	CHernikov	Toshhovuz	Bir o't mashin	15000
48	Ivan Velikanov	Toshhovuz	Lampa yog'i qand	10000
49	Odamboy	Toshhovuz	Paxta etar	20000
50	Ibniddin No'g'oy Poltinov	Toshhovuz	Kiyim tikib sotar	100
51	Akint Istana Qulika	Toshhovuz	Ichak olur	-
52	Tojiboy Kuja So'fi o'g'li	Ilonlida	Bir tuya jiq ilan paxta etar	10000
53	Muhammadjon Sayfullo o'g'li	Manqitda	Go'ja paxta olur	2000
54	Fayz Raxmon Manapov	Ko'k chekkada	Dehqonchilik	100000
55	Arshakboy Qorabekov	Fursiyda	Archin mol sotar	5000
56	Mulla SHoyim Sadrboy o'g'li	Fursiyda	Archin mol sotar	2000
57	Erto'nboy Ebon o'g'li	Fursiyda	Archin mol sotar	1000
58	Jum'aniyoz SHirok o'g'li	Qipchoqda	Archin mol sotar	500

Ammo, mazkur ro'yxatda ko'rsatilgan savdogar va tadbirkorlarning aynan qaysi millatga mansub ekanligi shaxsan ko'rsatilmagan. Shu jihatdan olganda, kelgusida mazkur muammo yuzasidan ko'pgina tadqiqotlar olib boriladi. Ayniqsa, mazkur mavzu tadqiqotchilari bu borada Rossiya Federatsiyasidagi arxivlar fondlarida saqlanayotgan hujjatlarni o'rganishlari belgilangan natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Xiva xonligida tadbirkorlik faoliyati olib borgan rus va tatar – boshqird millatiga mansub tadbirkorlar asosan xonlikda tadbirkorlik an'analari shakllanishida hamda taraqqiyotida muhim o'rin egallagan albatta. Xonlik jadallik bilan Yevropa va Amerikada allaqachon shakllanib bo'lgan hamda shu kabi bozor iqtisodiyotiga asoslangan xo'jalik tizimiga kirib kela boshladi. Ammo, sanoatning shakllanishi va shu asosda mahalliy tadbirkor va sarmoyadorlari faoliyatining rivojlanib borishi jarayonlari 1914-1918 yillarda, birinchi jahon urushi davrida ancha sustlashib, Xiva xonligida sof ma'nodagi tadbirkor va sarmoyadorlar to'liq shakllanmadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдрахманов К. Купечество Российской империи в торговле со Средней Азией: культурно-антропологический аспект // Quaestio Rossica. 2022. Т. 10, № 5. С. 1607–1624.
2. Город Ургенч, Хивинского ханства (О жизни русского населения города) // Туркестанский сборник. 1907. Т. 437. С. 65, 66.
3. Имперская политика аккультурации и проблема колониализма (на примере кочевых и полукочевых народов Российской империи) / науч. ред. С. В. Любичанковский. Оренбург: Изд. центр ОГАУ, 2019. 480 с.
4. Масальский В. И. Хлопковое дело в Средней Азии (Туркестан, Закаспийская область, Бухара и Хива) и его буду-щее. СПб., 1892. С. 9–10.
5. Материалы для изучения хлопководства. Вып. III. Хлопководство в Хиве // Составил А. Краснослободский. Под общей редакцией Н. И. Малаховского. – СПб.: Типография В. О. Киришбаума, 1912. – 23 с.
6. Ниязатов М. Поиск консенсуса. Российско-хивинские геополитические отношения в XVI - начале XX в. СПб., 2010. С. 199–204.
7. Почекаев Р. В. Включение бухарского эмирата и Хивинского ханства в таможенную черту Российской империи (1895 г.) // Право. Журнал Высшей школы экономики. 2016. № 3. С. 172–184.
8. Рожкова М. К. Экономические связи России со Средней Азией. М.: Акад. наук СССР, 1963. 238 с.
9. Садыков А. С. Экономические связи Хивы с Россией во второй половине XIX - начале XX вв. Ташкент, 1965. С. 48–52.
10. Соболев М. Н. Таможенная политика России во второй половине XIX века. Томск: Типо-литография Сибирского товарищества издательского дела, 1911. 850 с.
11. Тухтаматов Т. Г. Амударьинский отдел (Социально-экономическое и политическое значения для Хорезмского оазиса). Нукус, 1977. С. 58, 59
12. Тухтаматов Т. Г. Россия и Хива в конце XIX - начале XX в. Победа Хорезмской народной революции. М., 1969. С. 54.
13. Хрулев С. Проект устава Товарищества для развития торговли со Среднею Азиею. СПб.: Типография главного артиллерийского управления, 1863. 48 с.
14. Voltaev A. № 18 daftar. O. Abdullaev shaxsiy kutubxonasida saqlanadi, Xiva shahri, qo'lyozma. 64 varaq.

UO•K 908

O'ZBEKISTONDA AVESTONI O'RGANISH MAKTABI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

G. Murodova, tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. Ushbu maqolada zardushtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish Avesto kitobining O'zbekistonda o'rganilishi hamda tarjima qilinishi to'g'risida ma'lumot berilgan. Xususan ushbu Avesto o'rganish maktabi yaratgan asarlar tahlili haqida ma'lumotlar va ularning kamchiliklari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Avesto, Videvdat, Yasht, Denkart, Zardushtiylik, M. M. Is'hoqov, Asqar Mahkam, Zardusht, Darmesteter, Denkart.

Аннотация. В статье представлено изучение и перевод Авесты, священной книги зороастрийской религии в Узбекистане. В частности, анализ произведений, созданных школой Авесты, и их недостатки.

Ключевые слова: Авеста, Видевдат, Яшт, Денкард, зороастризм, М. М. Исхаков, Аскар Махкам, зороастрийский, Дармитетер, Денкард.

Abstract. This article presents the study and translation of the Avesta, the holy book of the Zoroastrian religion in Uzbekistan. In particular, the analysis of the works created by school of Avesta and their shortcomings are highlighted.

Key words: Avesta, Videvdat, Yasht, Denkart, Zoroastrianism, M. M. Ishakov, Askar Mahkam, Zoroastrian, Darmesteter, Denkart.

Ma'lumki kishilik jamiyati tarixi nihoyatda ziddiyatli muammo va qarama-qarshiliklarga boy sanaladi. Shu o'rinda tarixni o'rganishda yechimini kutib yotgan anchagina muammolar mavjud bo'lib, bu muammolarning yechimida, faqatgina o'rganilayotgan tarixiy davr xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan va aynan o'sha davr ruhiyati aks etgan tarixiy yozma manbalarning ya'ni O'rta Osiyoning qadimiy yodgorligi bo'lmish "Avesto"ni o'rganishning o'rni beqiyosdir. "Avesto"ning yaratilish tarixi, tarixshunosligi, ahamiyati borasida ko'plab jahon hamda o'zbek olimlari tadqiqot olib borganlar. U haqida eng qadimiy manbalardan biri IX-X asrga oid "Denkart" (din amallari)

asaridir. Ushbu asarga “Mazdaizm ensiklopediyasi” deb ta’rif berilgan [1]. Bunga sabab ushbu asar 9 kitobdan iborat bo’lib, zardushtiylik dini hamda, ularning yashash tarzi, urf-odatlarini, e’tiqodlari haqida batafsil ma’lumot berilgan. Shuningdek Markaziy Osiyo hududida ham qadimdan bu dinni o’rganishga qiziqish katta bo’lgan. Shulardan biri Abu Rayhon Beruniyning “Osoru-l-boqiya” (“Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asaridir [2]. Ushbu asarda “Avesto” kitobi va Zardusht haqida batafsil to’xtalib o’tgan. Beruniyning fikriga ko’ra “Avesto” kitobi asl matnning “beshdan ikki qismi” qolgan xolos. “Avesto” haqida qimmatli ma’lumot bergan ilk o’rta asr yodgorligidan biri Mas’udiyning “Muruj al-Zahab wa-ma-adin al-jawahir” (Meadows of Gold and Mines of Precious Stones) asaridir. Mas’udiyning ushbu kitobining birinchi qismida dunyo yaratilishi tarixi, diniy qarashlar haqida ma’lumot bergan. Unga ko’ra Iskandar Zulqarnayn Istaxr shahrini bosib olgach, “Avesto” kitobidagi tibbiyot, falsafa, astronomiya, matematikaga doir matnlarni yunon tiliga tarjima qildirib, o’zini yoqib yuborishni buyurgan [3]. M.M.Is’hoqov Aleksandr Makedonskiy “Avesto”ning ilk variantini yo’q qilib yuborgandan keyin zardusht ruhoniylari uni qayta tiklashga bir necha marotaba uringanlar, deb xulosa beradi [4].

O’zbekistonda “Avesto” haqidagi dastlabki fikrlar 1950-yillarda paydo bo’ldi. Ilk bora H.M.Mallayev “X-XII asrlar adabiyoti” asarida o’z fikrini bildirgan. “Avesto”ning adabiy qiymati haqida o’z fikrini bildirib, Mitra va Anahita haqida ma’lumotlarni tahlil qilgan. Keyinchalik esa bu fikrlarini to’ldirib, Jamshid afsonasiga ham batafsil to’xtalib, “O’zbek adabiyoti tarixi” darsligiga kiritgan. Mustaqillikka erishilgandan so’ng tarixga bo’lgan munosabat o’zgardi. Fozila Sulaymonova o’zining “Sharq va G’arb” asarida “Avesto” ning yaratilishi, hamda uning dunyo bo’ylab tarqalishi haqida ma’lumot berib o’tgan [5]. “San’at” jurnalining 3-sonida A.Irisovning maqolasi ham chop etildi [6]. Mirsodiq Mirsodiq Is’hoqov o’z mulohazalarini “Avesto”ning turkiy o’zbekcha o’girmasidan” va “Ezgulikka yo’llovchi kitob” [7] nomli asarida hamda R.Sulaymonov bilan birgalikdagi “Zaratushtraning vatani va uning yashagan davriga oid mulohazalar” nomli maqolalarida bayon etgan. Hamidjon Homidovning “Avesto fayzlari” nomli risolasi “Avesto” kitobining ilmiy, ma’rifiy jihatlarini bayon etgan ilk o’zbek tilidagi risoladir. “Avesto va tibbiyot” asarida ilk bor ushbu kitobdagi matnlarni boshqa soha bilan solishtirgan [8]. Ushbu muallifning yana bir asari “Avestodan Shoxnomaga” asaridir. Ushbu asarda Zardusht va muqaddas kitob bo’lmish “Avesto” haqidagi muallifning eng so’nggi fikrlari bayon etilgan, hamda Firdavsiyning “Shohnoma” asarining tahlili haqida fikrlar berilgan. “Avesto” ni hozirgi kunimiz bilan bog’lagan asarlar ham paydo bo’ldi bunga misol qilib “Avestodan meros marosimlar” asarini ko’rsatishimiz mumkin [9]. Ushbu asarda hozirgi kunda ham duch keladigan marosimlarimiz tahlil qilinib, zardushtiylik dini bilan solishtirilganini ko’rishimiz mumkin. “Muqaddas Avesto izidan” asari ushbu dinni ommaga tanitishga asos bo’ldi. Ushbu ilmiy-badiiy qissada “Avesto” ning vatani, uning qanday qilib Hindistonga borib qolgani va Yevropaga keng tarqalgani haqida tarixiy dalillarga asoslanib, kitobxonga tushunarli tilda bayon etilgan [10]. “Xorazm onomastikasining shakllanishi va Avesto” ushbu asarda “Avesto” kitobida uchraydigan atoqli otlar Xorazm vohasi onomastikasi bilan qiyoslangan holda tadqiq qilingan [11]. Tadqiqotchi A. Ahmedov “Avesto”dagi davlatni boshqarish usuliga oid fikrlarni tahlil qilgan [12]. Keyinchalik Zardushtiylik dini yanada chuqur o’rganilish boshlandi va R.Urazova tomonidan monografiyalar chop etildi unda zardushtiylik dinidagi xudolarning mohiyati va vazifalari ochib berilgan.

Bir qancha olimlar “Avesto” matnlarini tarjima qilishga kirishdilar. Asqar Mahkam “Avesto” ning badiiy tarjimasini yaratib boshladi va “Mitra” qasidasini “San’at” jurnalining 1993-yilgi 8-sonida e’lon qildi. A.P.Qayumov 2000-yilda o’zining “Qadimgi yozma yodgorliklar” asarida “Xurdo Avesto” qismlarining bir qismini tarjima qildi [14].

O’zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan 2001-yilda “Avesto” yaratilganining 2700-yilligi nishonlandi. “Avesto” yaratilganining 2700-yilligi nishonlandi va o’zbek Avesto maktabini yangi bosqichga ko’tardi. Bir qator ilmiy anjumanlar o’tkazildi, qator ilmiy maqolalar, risolalar, ilmiy-ommabop asarlar paydo bo’ldi. Avestoning badiiy tarjimasini Asqar Mahkam tomonidan tarjima qilinib nashr etildi. Mirsodiq Is’hoqov esa “Avesto” ning “Yasht” qismini tarjima qildi [16]. Tarjima sohasida ishlar to’xtab qolmadi. 2007-yilda “Videvdat” ning o’zbek tilidagi tarjimasini alohida kitob shaklida paydo bo’ldi [17]. Mirsodiq Is’hoqov “Goh”larni tarjima qildi va uni “Avesta: Zardusht

“Goh”lari (ma’no o’girmalari va germenevtik talqinlari) deb atadi, bunga sabab “Goh”larni o’zidek tarjima qilish qiyinligi hamda she’riy usulda bitilganligi bois uni qolipga solishda so’z o’yini kerakligi uchun ham ma’no o’girmalari deb atadi [18].

Tadqiqotga asos qilib “Avesto”ning ikki qismini, ya’ni “Avesto” 4 qismdan iborat bo’lib, ular “Yasna”, “Yasht”, “Visparad” hamda “Videvdat”dir, ulardan “Yasht” va “Videvdat” kitoblarining tarjimalarini oldik. Bizga ma’lumki “Videvdat” tarjimalari bilan ko’plab olimlarimiz shug’ullanib kelishgan. “Videvdat” Zardushtiylarning infektsiya va yozuvlik manbalariga qarshi himoya qiluvchi afsonalar, ibodatlar va diniy marosimlarning qadimiy to’plami hisoblanadi [22]. Kasallikni oldini olish uchun o’liklarning va boshqa “o’lik materiyani” (nasu) tarqalishi, shuningdek yerni, suvni va boshqalarni ifloslanishiga yo’l qo’yimaslikka alohida e’tibor beriladi. “Videvdat” ning hozirgi shakli mil. avv birinchi ming yillikning o’rtalarida vujudga kelgan, deb taxmin qilinadi. “Videvdat” ning 3 tildagi tarjimasini ya’ni ingliz, rus, o’zbek tilidagi tarjimalarini tahlil uchun oldik. “Denkard” da batafsil bayon etilgan yigirma bitta kitobdan iborat “Avesto”, ichida “Videvdat” butunlay saqlanib qolgan yagona kitobdir.

Jeyms Darmesteter matnni 1880-yilda Pahlaviy tarjimasiga tayanib tarjima qildi va 1898-yilda u qayta ishlangan tarjimani nashr etdi [19]. Kellensning so’zlariga ko’ra, Darmesteter [20] tarjimasida ba’zida “Videvdat”ni tushunishda ustunroq bo’ladi [21]. Uning qaydlari ayniqsa bebaho bo’lib qoladi. Bunga sabab qilib ushbu tarjima qolgan tarjimalardan qadimiyroq hamda “Avesto” matnida chalkashliklar uchramasligini ko’rsatishimiz mumkin. Hamda Max Muller tomonidan yozilgan 50 tomli “The sacred books of the East” asarida berilgan tarjimani ham oldik. O’zbek tilidagi tarjimalarning barchasini ya’ni esa Asqar Mahkam va Mirsodiq Is’hoqovning tarjimalarini oldik. Rus tilida esa Rtveladze boshchiligidagi tarjimonlari guruhi ishlagan asarni oldik [22].

“Videvdat” 22 qismdan iborat bo’lib lekin o’zbek tilidagi tarjimalarda ba’zi fargardlar qisman ba’zan esa to’liq holda uchramasligini ko’rishimiz mumkin. Bu holat esa bizda o’sha davr tarixi, turmush tarzi haqida kam ma’lumot olishimizga sabab bo’ladi. Ingliz tilidagi tarjimalar ya’ni Darmesteter hamda Max Muller tarjimasida va rus tilidagi tarjima bo’lmish Rtveladze tarjimasida ham yigirma ikki fargarddan iboratdir. O’zbek tilidagi tarjima bo’lmish Asqar Mahkam tarjimasida o’n besh fargarddan iboratdir. Yetti ta fargardning tarjimasi mutloq uchramaydi ushbu fargardlar o’ninchi, o’n birinchi, o’n to’rtinchi, o’n to’qqizinchi, yigirmanchi, yigirma birinchi, yigirma yigirma ikkinchi sonli fargardlardir. Mirsodiq Is’hoqov tarjimasida esa o’n sakkizta fargard bo’lib, o’ninchi, o’n birinchi, o’n to’rtinchi, yigirmanchi sonli fargardlar mutloq uchramaydi. Yigirma ikkinchi fargard esa boshqa tarjimalardagi ya’ni Darmesteter, Max Muller va Rtveladze tarjimasidagi fargard bilan mutlaqo farq qiladi. Yuqoridagi uchta tarjimada yigirma ikkinchi fargard –’99 999 ta kasallik yaratishi; Ahura Mazda bunga Muqaddas Mantra va Airyaman bilan qarshi turishi” nomi bilan atalgan bo’lsa, Mirsodiq Is’hoqovda esa ushbu fargard “U dunyoda inson ruhining taqdiri haqida” nomli fargarddir. Asqar Mahkam tarjimasida esa bu fargard mutlaqo uchramaydi. Yuqoridagi uchta tarjimada ushbu fargard yigirma besh qismdan iborat bo’lib, hech qanday uzilishlar yo’qdir. Mirsodiq Is’hoqov tarjimasida esa o’ttiz olti qismdan iboratdir. Shundan bilsak bo’ladiki Mirsodiq Is’hoqov tarjimasida kontekst mutlaqo boshqa ekanligini, shu sababli ushbu ma’nodagi matnni “Avesto”ning boshqa qismlaridan qidirib ko’rishga harakat qildik va xuddi shu ma’nodagi matn Asqar Mahkam tarjimasidagi “Avesto” kitobining “Yasht” qismida berilgan va unga shunday izoh bergan. Avestoning boshqa bir nusxalarida “Xoduxt nask” Yashtning bir bo’lagi hisoblanmaganligi bois “Rom yasht” va “Din yasht” ning tarkibiga kiritilgan. Asqar Mahkam Yashtlar so’ngida bermoqlikni ma’qul topgan” [15]. Bu holat Avesta matnlarining izchilligi yo’qolishiga sabab bo’lishini va kitobxon uchun “Avesto”ning bir hil tildagi tarjimalarining ikki xil qismida uchrashi manbaning mavqeyini pasaytirishiga olib keladi va ishonchsizlik ortadi. Qolgan uchta tarjimada esa bu fargard ma’nosi umuman boshqachadir va u quyidagicha. Angra Mainyu 99 999 ta kasallik yaratishi; Ahura Mazda bunga Muqaddas Mantra va Airyaman bilan qarshi turishi haqidadir. Ma’lum bo’lishicha, barcha tabiblarning eng kuchlisi Muqaddas Kalom (Manthra Spenta), ya’ni muqaddas afsunlar (Vd7.44) bilan muomala qilgan kishi: Barcha muqaddas afsunlar ichida eng samaralisi Yasnaning ellik to’rtinchi Hasini tashkil etuvchi Airyema ishyosidir. Bu mifologik shakl ostida quyidagi Fargardda ifodalangan (qarang. Westergaard’s Fragments, IV).

Angra Mainyu 99 999 ta kasallikni yaratgandan so'ng, Ahura Muqaddas Kalomni davolash uchun topshiradi. (Mantra Spenta; §§ 1-5).

- Bu afsunlarni Qanday boshqaraman? — deb so'radi Mantra Spenta (§ 16). Ahura xuddi shunday iltimos bilan o'z elchisini Airyamanga yuboradi.

Bu Fargard tugallanmagan. Airyaman darhol Axuraning chaqirig'iga keladi va to'qqizta jo'yak qazadi. Hech shubha yo'qki, Barashnomni bajarish uchun qazilgan jo'yaklar jinning kuchi va jinning ishining kuchi buzadi. Shunday qilib, Fargard kasallik va o'limga qarshi afsunlar bilan yakunlanadi, bu Barashnomning odatiy afsunlariga qo'shiladi [20]. Bundan shunday xulosa qilishimiz mumkin, yuqoridagi uchta tarjimada ham ushbu fargard bir xil bo'lganligi sababli Mirsodiq Is'hoqov tarjimasidagi fargard xatodir. Yigirma ikkinchi fargard Asqar Mahkam va Mirsodiq Is'hoqov tarjimasida ham bo'lmaganligi sababli ingliz tilidagi tarjimalarni tahlil qilib qayta tarjima qilishimiz lozim. Shu sababli ham "Avesto"ni boshqa tillardagi tarjimalarini ham o'rganib, qayta ko'rib chiqishimiz kerak hamda bu yo'nalishdagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jean de Menasce (1958). Une encyclopédie mazdéenne: le Dēnkart. Quatre conférences données à l'Université de Paris sous les auspices de la fondation Ratanbai Katrak. Paris.
2. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent. 1968. B-238
3. Mas'udiy. Meadows of gold. Published November 26, 2015 by Routledge
4. Is'hoqov. M. To'plam. Avesta i ee mesto v istorii razvitiya chelovechestva. T. 2001. B-64
5. F.Sulaymonnova. Sharq va G'arb. Fan Toshkent. 1991. B-19
6. Irisov. "Avesto" kitobi San'at. 3-son 1991. B-6-7
7. M. Is'hoqov "Avesto"ning turkiy o'zbekcha o'girmasidan. Fan va Turmush 3-son. 1993. H.Homidov. "Avesto" fayzlari. Toshkent. Xalq merosi .2001. B-95.
8. A.Ashirov. "Avesto"dan me'ros marosimlar: O'zbek xalqi turmush tarzida zardushtiylik diniy ma'rosimlar an'anasi. Toshkent. Me'ros 2001.B-30
9. K.Toxir. Muqaddas "Avesto" izidan. Toshkent. Cho'lpon. 2000. B-176
10. Z.D.Do'simov. Xorazm onomastikasining shakllanishi va "Avesto". Toshkent. 2010.B-111
11. A.Ahmedov. "Avestoda"da davlatni boshqarish usuli/ "Avesto" -buyuk qomusiy asar. Toshkent. 2001. B-7.
12. R.Urazova. Zardushtiylik panteoni: tarixi va ijtimoiy asoslari. Toshkent. 2022. B-256
13. A.P.Qayumov. Xurdo Avesto. Qadimgi yozma yodgorliklar. Toshkent. Yozuvchi.2000
14. Asqar Mahkam. Avesto:Tarixiy-adabiy yodgorlik. Toshkent. Sharq. 2001.
15. M.Is'hoqov. Yasht. Toshkent. Sharq.2001
16. M.Is'hoqov. Avesta: Videvdot. Toshkent: TDSH nashriyot-bosmaxona bo'limi. 2007
17. M.Is'hoqov. Avesta: Zardusht "Goh"lari. Toshkent. 2022
18. "Darmesteter, James". *Encyclopædia Britannica*. 7 (11th ed.). Cambridge University Press. Darmsteter Y. The Zend — Avesta, I.Oxford, 1880
19. J.Kellens, "Avesta, the holy book of the Zoroastrians" Encyclopedia Iranica, 1987.
20. Avesta «Закон против дэвов» (Видевдат). СПб.: Изд-во Политехи, ун-та, 2008. 301 с
21. J.Darmesteter. Videvdat or laws against of Devas. 1898. B-175

UO'K 9(575)

BUXORO AMIRLIGIDA YASHAGAN XALQLAR, URUG'LAR VA ULARNING UMUMIY TASNIFI

T.T.Safarov, dots., "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligida yashagan xalqlar, urug'lar ularning hududiy joylashuvi, turmush tarzi, maishiy hayoti, xo'jaligi, ijtimoiy munosabatlardagi o'rni masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Tojiklar, o'zbeklar, arablar, mang'itlar, chorvachilik, qo'ychilik, otar, ovul, yuz-boshi, maxram-boshi, yasovul-boshi.

Аннотация. В данной статье освещаются вопросы народов и родов, проживавших в Бухарском эмирате, их территориальное расположение, образ жизни, быта, хозяйства, а также место в социальных отношениях.

Ключевые слова: таджики, узбеки, арабы, мангиты, скотоводство, овцеводство, стадо, авул, юз-баши, махрам-баши, есовул-баши.

Abstract. *Abstract. In this article, the issues of the peoples and clans living in the Bukhara Emirate, their territorial location, lifestyle, household life, economy, and their role in social relations are discussed.*

Key words: *Tajiks, Uzbeks, Arabs, Mangits, cattle breeding, sheep breeding, herd.*

Buxoro amirligining aholisi tarkibiga kirgan turli qabila va urug'larning umumiy jihati ularni yagona islom diniga bo'lgan e'tiqodlari yig'indisidir. Amirlikning tub joy aholisi hisoblanuvchi tojiklar bo'lib, ularning kelib chiqishi va bu yerlarda qachondan boshlab istiqomat qilishi noma'lumdur. Narshaxiy bergan ma'lumotlarda ham ularning G'arbdan Zarafshon daryosi bo'ylariga kirib kelganlarida bu joylar to'qayzorlardan iborat bo'lganligi qayd etilgan[1]. Tojiklar tomonidan bu hududlar o'zlashtirilib bog'-rog'larga aylantirilganligi ularning mehnatsevar, tadbirkor ekanligining yana bir dalilidir. Arablar fathi natijasida yuz yillar bu hududlar mustamlakaga aylantirildi va natijada islom dini e'tiqod manbaiga aylantirildi.

X asrdan boshlab Somoniylar davlatchiligining vujudga kelishi, keyinchalik Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar hamda Xorazmshoxlar davlatining tashkil topishi urug'-qabila munosabatlarining rang-barang bo'lishini ta'minlagan omillar bo'lib hisoblanadi. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning Xorazmshohlar yerlariga bosqini ham urug'-qabila munosabatlariga birmuncha o'zgarishlar olib keldi. Amir Temur tomonidan mo'g'ullar mustamlakachiligiga barham berilishi o'zbek urug'larining ulkan Movarounnahr hududlarida yanada mustahkam o'rnavhuviga olib keldi[2].

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan shunday xulosaga kelish mumkinki Buxoro amirligi hududlarining o'zgarib turishi bu yerda yashagan aholi tarkibining rang-barang bo'lishini ta'minlagan omillar sirasiga kiradi. Buxoro amirligining aholisining umumiy soni 2000000 milliondan ortiqni tashkil etgan. Aholining aksariyat qismi shaharlar va ularning atroflarida, shuningdek Zarafshon va Shaxrisabz daryolari etaklarida istiqomat qilgan. O'zbeklarning hokimiyat tepasiga kelishi va ularga mansub urug'larning Volga va Irtish daryolari bo'ylarigacha cho'zilgan masofalarda ko'chmanchi hayot tarzi olib borishlari o'zlari bilan yashagan boshqa urug'larning Buxoro hududlariga kirib kelishini ta'minlagan. Amirlik aholisining tarkibi quyidagi urug'-qabilalardan iborat bo'lgan[3].

O'zbeklar. Bu xalq nafaqat salmog'da balki birlikda ham Buxoro amirligida shubhasiz ustun hisoblangan. Ular urug'larga bo'linib, oqsoqollar va boylar urug'da yetakchilik mavqeyiga ega bo'lgan. Biz maqolamizda o'zbek urug'larining manbalarda keltirilgan nomlariga to'xtalib o'tirmasdan ushbu urug'larning hayot tarzi, hududlar bo'ylab joylashuvi hamda xo'jalik yurituviga haqida ayrim mulohazalarni bayon etishni joiz deb bildik. Manbalarda mang'itlarning To'q, Oq, Qora singari urug'lari va ularga tegishli bir qancha urug'larning nomlari keltirilgan bo'lib umumiy hisobda ushbu urug'lar 97 ta nomda bayon qilingan[4].

To'qson yetti nomdagi urug'larning yigirma sakkiztasi Buxoro amirligi hududlarida istiqomat qilgan.

1) Mang'itlar asosan Qarshi va Buxoro shahri atroflarida o'troq turmush tarzida istiqomat qilgan.

2) Xitaylar Buxoro va Karmana oralig'ida ko'chmanchilikda umrguzaronlik qilganlar.

3) Naymanlar Ziyovuddin atroflarida istiqomat qilib, uning bekiga so'zsiz itoatda bo'lganlar.

4) Qipchoqlar Kattaqo'rg'on va Samarqand oralig'ida yashaganlar.

5) Saroy urug'i vakillari Samarqanddan Qarshiga boradigan yo'l bo'ylarida xo'jalik yuritib istiqomat qilganlar.

6) Qo'ng'irotlarning ma'lum qismi Qarshi shahrida o'troq, ma'lum bir qismi esa Qarshi va Shaxrisabz tog'lari atroflarida ko'chmanchilikda yashaganlar.

7) Turkmanlar Amudaryo bo'ylarida ko'chmanchilik hamda qirg'oq atrofidagi qishloqlarda o'troq hayot tarzida istiqomat qilganlar.

8) Orlotlar Qarshi va Buxoro oralig'ida ko'chmanchilikda yashaganlar.

9) Bo'zachi urug'i esa Bo'zachi nomi bilan ataluvchi joy, hamda Qarshi va Buxoro oralig'idagi yo'l bo'ylab ko'chmanchilikda istiqomat qilgan.

10) Do'rmon urug'i vakillari G'ijduvon va uning atroflarida yashaganlar.

11) Yobu urug'ining ma'lum qismi o'troq tarzda Buxoro tumanining janubiy qismida yashasa, ma'lum bir qismi Xitay, Nayman va Miyonqol urug'lari bilan birgalikda ko'chmanchi hayot tarzi olib borgan.

12) Jit, Jiuyut urug'lari, Amudaryo bo'ylarida o'troq va ko'chmanchi turmush tarzida istiqomat qilganlar.

13) Batash urug'i faqatgina o'troq tarzda Buxoro tumanida umrguzaronlik qilganlar.

14) Baxrin urug'i Miyonqolda boshqa urug'lar bilan qo'shilgan holda ko'chmanchilikda xo'jalik yuritgan[5].

Bulardan tashqari Qirq, Ung, Ungajit, Qalmoq, Qatag'on, G'alachi, O'zoy, Chiljuyut, Keroit, Gurlat, Yuyxun, Uyg'ur va Tatar singari urug'lar ham mavjud bo'lib, ularning joylashgan hududlari to'g'risida aniq ma'lumotlar keltirish qiyin, manbalarda ular boshqa urug'lar bilan birgalikda yashaganligi qayd etilgan. Yuqorida nomlari keltirilgan urug'lardan tashqari Chig'atoy, Aymoq, Qarluq, Qavchin hamda Qurama urug'lari ham mavjudligi haqida ma'lumotlar bor[6].

Buxoro amirligidagi eng nufuzli urug' mang'itlar bo'lib hisoblanadi. To'q mang'it urug'i vakillari amirlik boshqaruvini olib borganlar, bundan tashqari ular jamiyat hayotida turli xildagi alohida imtiyozlarga ega bo'lganlar. O'zbeklar o'rta bo'yli, ko'zlari katta, yuzlari chiroyli soch va soqollari sarg'ish va qoramtir ko'rinishga ega. Ular juda oddiy, olacha chopon kiyib yurgan. Ularni turmush tarzi yurituvchi bo'yicha o'troq, ko'chmanchi dehqonlar hamda ko'chmanchilarga bo'lish mumkin, lekin yuqorida qayd qilingan turli urug'larning barchasi tarkibida ushbu jihatlar xosdir[7].

Ko'chmanchi hayot tarzida yashaydiganlar qirg'izlarga o'xshab o'tovlarda istiqomat qilganlar, ammo bu o'tovlar qirg'izlarnikiga qaraganda kichikroq va bo'yi pastroq, lekin shinam va yashash uchun barcha qulayliklarga ega. Ularning oshxonasida tayyorlanadigan ovqatlari deyarli bir xil bo'lib, asosan qo'y go'shti ko'proq iste'mol qilingan. Miyonqol atroflarida ko'chmanchilik qiladigan urug'larning katta otarlari bo'lib ular qimiz iste'mol qilganlar[8]. Ko'chmanchilik qilish uchun yaylovlarning kamligi undan foydalanishda muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Shuning uchun ham ayrim urug'lar uchun chorvachilik ya'ni qo'ychilik xo'jalik yuritishning asosiy tarmog'i hisoblangan. Yosh bolalar ovul atrofi bo'ylab qo'ylar galasini o'tloqlarda boqqanlar. Bir nechta ayolga ega bo'lgan urug' boshliqlari uy xo'jaligi yumushlarini bajarilishini nazorat qilganlar. Ovul oqsoqollari o'zlarini amirlik boshqaruvidagi mansabdorlarga qiyosan yuzboshi, maxramboshi, yasovulboshi singari nomlar bilan chaqirilishni ma'qul ko'rganlar. Otlar ko'p bo'lgan ayrim urug'larda masalan, Nayman hamda Xitaylarda yoshlarning asosiy mashg'uloti ko'pkari bo'lib, yuzdan ortiq otliqlar ko'pkarida ishtirok etganlar[9].

Tojiklar. Buxoro amirligining tub joy aholisi hisoblanib, Buxoro shahrining asosiy aholisi bo'lib, boshqa shaharlarda juda kam yoki umuman yo'q. Ularning xarakter xususiyatidagi asosiy jihati yolg'onchilikka toqati yo'q, bergan va'dasini albatta bajargan. O'g'rilik, maishiy firibgarlik, so'z bilan xafa qilish ba'zida kichik janjallar qilish kabi salbiy jihatlar ham ularda mujassam bo'lgan. Ularning yuz ko'rinishi to'g'ri va chiroyli, bo'yi uzun, teri rangi oq, soch va ko'zlar qora, kiyinishda islom dini qoidalariga albatta rioya qilganlar[10].

Arablar. Bu xalq arablar tomonidan O'rta Osiyo hududlarining fath etilishi natijasida kelib o'r mashgan. Tojiklarga qaraganda son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilsada amirlik uchun aholining asosiy qismini tashkil qilmagan. Ular amirlikning shimoliy qismida, ayniqsa Varzonze, Vobkent va Samarqand atroflarida ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligini yuritganlar. Ularning juda oz qismi savdo-sotiq bilan shug'ullangan bo'lsa, asosiy qismi yaylov chorvachiligi bilan mashg'ul bo'lgan. Ularning yuz tuzilishi kelib chiqishiga hamohang, yirik ko'zlar, qora sochlar bir-biriga uyg'un. O'zaro muloqotda arab tilida gapiradilar, lekin bu toza arab tili emas. Xo'jalikning asosiy turi chorvachilikdan iborat. Diniy e'tiqodda juda mustahkam hamda maishiy turmushda va o'zaro muloqotda xushmuomala[11].

Forslar Buxoro amirligida asosan qul maqomida keltirib sotilgan. Amir Haydar hukmronligi davrida xavfsizlik nuqtai-nazaridan Marvdan to'rt ming forslar oilasi Samarqand atroflariga

ko'chirib keltirilgan. Manbalarda ularning majburan sunniy mazhabiga o'tkazilganligi qayd etilgan, shu sababdan ular mahalliy boshqaruvchilarga dushmanona kayfiyatda bo'lganlar[12].

Yevreylar Buxoro amirligi aholisining oz qismini tashkil qilib ularning asosiy qismi Buxoro shahrida istiqomat qilgan. Kattaqo'rg'on, Samarqand va Qarshida ham ularni uchratish mumkin. Yuqorida qayd etilgan shaharlarda ular uchun alohida mavzelar ajratilgan bo'lib, musulmonlardan alohida istiqomat qilganlar[13].

Siganlarning Buxoro amirligida uch xil urug'i bo'lib, ularning turmush tarzi va yuz ko'rinishiga qarab Jo'gi, Mazang va Lo'lilarga ajratish mumkin. Ularning barchasi musulmon bo'lsada, ayollari yuzlari ochiq holda yuradi, erkaklari esa deyarli namoz o'qimaydi. Buxoro va boshqa shaharlarda istiqomat qiladigan siganlar zuluk sotish hamda tilamchilik bilan kun kechiradi[14].

Buxoro amirligining Jizzax va O'ratepa singari hududlarida Qaraqalpoqlar va Qirg'izlar ko'chmanchi chorvachilik bilan xo'jalik yuritganlar. Manbalarda Qaraqalpoqlarga nisbatan Qirg'izlarga amir hokimiyatining ishonchi o'ta yuqoriligi bayon qilingan[15].

Yuqorida bayon qilingan fikr-mulohazalardan ma'lum bir xulosalarga kelish mumkin. Buxoro amirligining keng hududlarida yashagan turli-tuman urug' vakillari iqlim, ob-havo sharoitlaridan kelib chiqib xo'jalik yuritganlar. Ularni barchasini yagona e'tiqod birlashtirgan. Maishiy turmush tarzi, axloqiy munosabatlar islom dini arkonlariga rioya etilgan holda amalga oshirilgan. Buxoro amirligida yashagan urug'larning umumiy soni bo'yicha ishonchli ma'lumot mavjud emas. Umuman olganda ushbu urug'larning amirlik etno-siyosiy jarayonlardagi o'rni ma'lum bir asoslarga ega bo'lgan deyish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Описание Бухарского ханства. Составленное Н.Ханыковым. С.Петербург, в типографии Императорской Академии Наук. 1843.
2. А.Вамбери.Этнографические очерки туранских и иранских племён Средней Азии. Москва.Изд. А.И.Мамонтова. 1868.- С-265.
3. Туркестанский сборник. Том № 4. Этнографические очерки Средней Азии. С-307-308.
4. О.Сухарева. Квартальная община позднефеодалной города Бухары. Москва, 5. 1976. 247 с. 5. Л.И.Ремпел.Бухарские записи. Тошкент, 1981,304 с.
6. А.Р.Мухаммаджонов. История орошения Бухарского оазиса. Тошкент, 1978,291 с.
7. Туркестанский сборник. Том №87. Статические очерки Среднее Азиатской России. С-72-129.

UO'K:930.2:94(575.171)(043.3)

XIVA XONLIGIDA VAQF HUJJATLARI VA ULARNING XONLIK TARIXINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

F.J.Tadjiyeva, dots., PhD, Ma'mun universiteti NTM, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligida vaqf hujjatlari va ularning xonlik tarixini o'rganishdagi ahamiyati keltirib o'tilgan bo'lib, Xiva Ichan qal'a muzey arxiv fondida saqlanayotgan ba'zi vaqf hujjatlarining sharhi keltirilgan.

Kalit so'zlar: vaqf, masjidlar, madrasa, yer — mulk, xayriya, Xatra, tanob, qit'a, oyat, hadis.

Аннотация. В статье упоминаются «вакуфные» документы в Хивинском ханстве и их значение в изучении истории ханства, а также дается обзор некоторых «вакуфных» документов, хранящихся в архивном фонде музея-замка «Хива Ичан кала».

Ключевые слова: вакф, мечети, медресе, земля — собственность, благотворительность, хатра, таноб, континент, аят, хадис.

Abstract. In this article, "waqf" documents in the Khiva khanate and their importance in studying the history of the khanate are mentioned, and a review of some "waqf" documents kept in the archive fund of the Khiva Ichan Castle Museum is presented.

Key words: waqf, mosques, madrasa, land — property, charity, Khatra, tanob, continent, verse, hadith.

Xiva xonligida vaqf mulklaring ahamiyati o'ziga xos tarixiy va madaniy jihatlariga ega. Vaqf, musulmonlar orasida diniy va ijtimoiy maqsadlar uchun ajratilgan mulk yoki mablag'dir. Xiva

xonligida vaqf tizimi bir nechta jihatdan muhim bo'lgan: Vaqflar masjidlar, madrasa va boshqa diniy muassasalarni moliyalashtirishda katta rol o'ynagan. Bu, o'z navbatida, diniy ta'lim va ma'rifatni rivojlantirishga yordam bergan; Vaqf tizimi ijtimoiy himoya tizimini tashkil etgan. Vaqflar orqali kambag'allarga, talabalarga, yetimlarga va muhtojlarga yordam berish mumkin bo'lgan. Bu ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega edi; Xiva xonligidagi ko'plab vaqflar arxitektura va san'at asarlari sifatida davom etib kelmoqda. Ularning ichida masjidlar, madrasa va boshqa madaniy inshootlar mavjud bo'lib, ular tarixiy va madaniy meros sifatida ahamiyatlidir; Vaqflar ko'pincha yer, mulk yoki savdo faoliyatiga ega bo'lgan. Bu orqali xonlik iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shgan; Vaqf tizimi mahalliy boshqaruv va muhtojliklarni hal etish uchun ham foydali bo'lgan.

XX asrning 2-yarmidan boshlab Xiva vaqfnomalarini turkiy (chig'atoy) tilda tuzish amaliyoti kuzatiladi. Ushbu masala ilk bora Yu. Beregel tomonidan maxsus tadqiq etilgan bo'lib, uning aniqlashicha, jumadi al-avval 1274/ dekabr 1857-yanvar 1858 yilgacha bo'lgan davrda tuzilgan Xiva huquqiy hujjatlari fors tilida bo'lgan. Shu vaqfdan boshlab qozilik hujjatlarining turkiy tilda rasmiylashtirish boshlangan. O'z navbatida, mazkur holat vaqfnomalar misolida ham o'z tasdig'ini topadi. Xiva xonligida vaqf mulklari, xususan yerlar, pul mablag'lari va turar-joylar ko'pincha ijara amaliyoti orqali daromad keltirgan. Vaqf ijara hujjatlari vaqf mulklari uchun mas'ul bo'lgan mutavalli korandalar o'rtasidagi munosabatlar tarixini, vaqf xo'jaliklari moddiy ta'minoti haqida mufassal ma'lumotlar beradi. Shu jihatdan hamda ijara amaliyotining faoliyat tartibi va ishlash mexanizmini tadqiq etishda mazkur turdagi hujjatlar muhim sanaladi.

Xonliklar vaqf yerlarining ijara hujjatlari yuqorida zikr etilgan O'zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondidagi 4 jildlik "Xiva qozi daftarlari" tarkibidagi hujjatlarda uchraydi. Xususan, 9490-raqamli qo'lyozmada jami 10 ta, 9491-raqamli ikkinchi jildda esa 19 ta vaqf yerlari ijarasi bilan bog'liq hujjatlar mavjud. Shuningdek, O'zR MDAning I-125-fondidagi "Документ, оформленный в канцелярии кази, об аренде вакуфной земли" deb nomlangan 600-yig'majildda vaqf yerlaridan ijara asosida foydalanish haqidagi 3 ta hujjat aniqlangan[1]. Xiva xonligida vaqf yerlari xususiy mulk bo'lgan, yerlarni ijaraga olib foydalanishgan. Vaqf yeri deganda davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan diniy ehtiyoj yoki xayriya ishlari uchun ajratilgan mol-mulkka aytiladi. Vaqf yerlari yer — suv, uy — joy, maktab — madrasa, masjid, shifoxona va boshqalar bo'lishi mumkin. Vaqf mulkini shariat qonuni boyicha davlat boshlig'i yoki qozi nazorat qiladi. Bu tartib o'sha davrda sharqning ba'zi mamlakatlarida ham amalda bo'lgan. Bu mulklar diniy muassasalarga xon amaldor va ayrim shaxslar tomonidan vaqf qilib berilgan. Bunday yerlardan kelgan daromad diniy muassasalar ehtiyoji uchun sarf etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra (A.Boltayev 11 daftari) 19 asr o'rtalarida xonlikdagi vaqf mulkining umumiy xajmi 170-175 ming tanobni tashkil etgan. Xiva xonligidagi kam yerli va umuman yersiz, ot — ulovsiz dehqonlar ko'pchilikni tashkil etgan bo'lib ular davlat Mulki hamda vaqf yerlarida ijaraga ishlashgan[2].

Xonlik yerlari bevosita davlatga xonga tegishli bo'lib avloddan avlodga meros bo'lib o'tgan. Davlat yerlariga doimiy sug'oriladigan ekinbop yerlarda tashqari tashlandiq yerlar, qumlik adrlar ko'l va to'qayzorlar ham kirgan. Davlat yerlari xon tomonidan mulkdorlarga va ijarachilarga bevatanlarga foydalanish uchun bo'lib berilgan. Bunday yerlardan davlatga olingan hosilning 40-50% gacha mahsulot yoki pul ko'rinishida soliq undirilgan[3].

Masjidlar va ularga qarashli vaqf yerlarining ro'yxatidan ma'lum bo'lishicha bu yerlarning ko'pchiligi masjidlarga 19 asrda ayniqsa 1840 — yildan keyin vaqf qilib berilgan. Boltayevning shu ro'yxatida sanab o'tilgan masjidlarga qarashli vaqf yerlarining hammasi 152 ming tanobni tashkil qilgan.

Vaqf yerlarini xususiy mulk bo'lgan yerlarni ijaraga olib foydalanish shartlarini ham manbalarda har xil tarzda keltirilganligini ko'ramiz. Ma'lumotlarda vaqfqa qarashli yerning ijaraga olib foydalanuvchilar va yarimchilar shu yerdan undirilgan hosilning eng ko'p 10\1 qismi ijara haqqi tariqasida to'langan. Xususiy mulk bo'lgan yerlarni undirilgan hosilning 5\1 3\1 qismi yer haqqi tariqasida to'langan. Biroq yarimchilarning yerdan foydalanish shart sharoitga asoslanib pirovardida yerdan foydalanganlik uchun hosilni yarmini to'lash tartibi eng ko'p tarqalgan tartib deb hisoblash mumkin[4].

Vaqf muammosiga bog'lanib tadqiqotlarni mantiqan ikki yo'nalishiga bo'lish vaqf mulkchiligini nazariy muammoga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu tartibga kiruvchi tadqiqotlar bevosita Orta Osiyoga vaqf mulkchiligiga bag'ishlangan bo'lmasada vaqf mavzusining muammolariga qiyosiy o'rganish va xulosalar chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Ammo vaqf vaqf tarixshunosligiga bag'ishlangan O'rta Osiyoda vaqf mulkchiligi muammosi uning Rossiya imperiyasi tadqiqotlarining ikkinchi yo'nalishi bevosita O'rta Osiyoning vaqf mulkchiligiga mustamlakasiga aylantirilgan vaqtdan boshlab sal kam yuz yildan buyon o'rganilib kelinmoqda, ammo vaqf tarixshunosligiga bag'ishlangan ishlarni tahlil qiladigan bo'lsak O'rta Osiyoga tegishli boshqa islom o'lkalariga nisbatan juda ham kamchilikni tashkil qiladi. Vaqf daromadi ko'plab musulmonlarni moddiy ta'minlash bilan birga ular orasida nafaqat diniy balki xayriya shaklidagilarni ham mavjudligini ko'rishimiz mumkin[5].

Rus bosqinidan so'ng, xususan XIX asrning o'rtalarida, O'rta Osiyo va uning musulmon aholisiga nisbatan yangi hukumat siyosati va boshqaruv tizimlari joriy etilgani kuzatildi. Bu davrda rus imperiyasi har xil ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlarni amalga oshirdi va bular musulmon aholisining hayotiga ta'sir ko'rsatdi.

Vaqf instituti, musulmon jamiyatining diniy-ijtimoiy asoslaridan biri sifatida, bosqinchilik davrida o'z ahamiyatini yo'qotdi. Rus hukumati ushbu vaqf mulklarini siquvga olish yoki taqiqlash orqali bir qator maqsadlarni ko'zlaganligini ko'rishimiz mumkin. Vaqf mulklarini davlat nazoratiga olish orqali rus hukumati musulmon aholini yanada qaramog'iga olishni maqsad qilgan. Bu amaliyot shunchaki iqtisodiy nazorat emas, balki diniy va ijtimoiy muassasalarni ham tushinishda muhim rol o'ynagan. rus bosqinidan keyin vaqf instituti siquvga olinishi yoki taqiqlanishi musulmon aholisini qo'lga olishning bir qismi sifatida ko'rilgan. Bu jarayon o'z navbatida, mahalliy ijtimoiy tuzilmalarga va madaniy qadriyatlarga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Musulmon jamiyati o'z tarixiy va diniy merosini saqlashga intilishda davom etdi, ammo bu jarayon ko'plab qiyinchiliklar va muammolarni keltirib chiqardi.

Xiva Ichon qal'asi muzey qo'riqxonasi arxiv fondida saqlanayotgan vaqfnomalar O'rta Osiyo, xususan Xiva xonligi davrining iqtisodiy, ijtimoiy va diniy hayotini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu vaqfnomalarda keltirilgan ma'lumotlar orqali xonlik iqtisodiyotining o'ziga xos jihatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy tuzilishi va diniy hayotidagi muhim tendensiyalarni aniqlash mumkin. Quyida ba'zi vaqfnoma misollarini keltirib o'tamiz va ularga izoh beramiz.

Xazrati Abdol bobo masjid vaqfnomasi

Xazrati Abdol bobo masjidining rivoji va faravon obod bo'lishi uchun bir necha joylarga vaqf va xayriya yerlari ajratilgan. "Xatra" mavzeyida Muhammad sharif tomonidan halol va pokiza mol-mulkidan bir tanob yer vaqf xayriya qilingan. Mazkur yerning chegara hududlari to'g'risida ma'lumotlar bayon qilingan. Bayonda ushbu hazrati Abdol bobo masjidiga o'zining halol pokiza mol-mulklaridan masjidning tahorat xonasi uchun Mullo Sultonning o'g'li Saidniyozboy tomonidan "Xo'ja bog'i" qishlog'ida bir tanob yer vaqf xayriya qilingan. Yerning chegara hududlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Yozuvchining qator pastki qismida guvohlar ismi bayon qilingan.

Vaqfning pastki burchagida yumaloq muhr bilan tasdiqlangan.

guvohlar: mulla Muhammad Siddiq va Qo'shnazar va Olloberganboy

MUHR: 4sm. Xorazm xalq shuralar jumxuriyatining Xiva qazoligi

Xujjat Arab alifbosida Fors tilida MULLA MUHAMMAD SHARIF tomonidan qo'lyozma nastaliq xat uslubida bitilgan.

Xujjat: 6 varaqdan iborat[6].

Xazrati Abdol bobo masjid vaqfnomasini izohlashda quyidagilarga ahamiyat qaratish mumkin. O'rta Osiyo, xususan Xiva hududida joylashgan ushbu masjidning rivojiga va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan muhim hujjat. Ushbu vaqfnoma doirasida ishlov berilayotgan masala, ayniqsa, masjidning ijtimoiy va diniy ahamiyatini oshirish borasida ko'rsatilgan sa'y-harakatlar va resurslar to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Birinchidan, vaqfnomada "halol va pokiza mol-mulkidan" ajratilgan yerlar taqdim etilishi, dindorlarni vaqf tushunchasida halol va toza resurslardan foydalanishga chaqiradi. Bu esa o'sha davrdagi ijtimoiy-ijtimoiy etik qoidalarini

namoyish etadi, chunki diniy joylar vaqf mulklardan foydalangan holda barqaror rivojlanishi kerak ekanligi ta'kidlangan. Ikkinchidan, "Xo'ja bog'i" qishlog'ida joylashgan bir tanob yerining tahorat xonasiga taqdim etilishi masjidning muhim obyektlaridan biri, ya'ni tahorat xonasi uchun zaruriyatlarni oshirishda ahamiyatli rol o'ynaydi. Tahorat xonasi, musulmonlar uchun namozdan oldin tozalanish jarayonini amalga oshirishga yordam beradi, bu esa ibodat mavzusida muhimdir. Ushbu yerning tahorat xonasi uchun ajratilishi, masjidning foydalanuvchilariga qulaylik yaratishga qaratilganligini ko'rsatadi. Yana bir muhim jihat – bu yerning chegaralari va ma'lumotlar bayon qilinganligi. Vaqfnomada qismlarga bo'linishi, egalik huquqlarining aniq belgilanganligi, kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolari oldini olish uchun zarurdir. Bunday ma'lumotlar ushbu mulkning kelajakdagi boshqaruvida va e'tirozlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, xujjatning pastki qismida guvohlar ismlarining bayon qilinishi, og'zaki keltirilgan ma'lumotning qonuniyligini va o'zaro kelishuvni mustahkamlashga xizmat qiladi. Guvohlar ismlarining keltirilishi va ularning roli, vaqfnomaning qonuniy ahamiyatini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, Xazrati Abdol bobo masjidi vaqfnomasi nafaqat masjidning rivoji uchun zarur resurslarni ajratish borasida muhim hujjat, balki ushbu davrda diniy hayotning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qiladi. Bu hujjat orqali jamiyatda halollik, poklik va diniy qadriyatlarning e'tiborliligi ko'rinadi.

Muhammad Aminxon madrasasining vaqfnomasi

Muhammad Aminxon madrasasining rivoji obod va faravon bo'lishligi uchun bir necha joylarga vaqf xayriya yerlarini ajratgan. Ko'hna Urganchda 30 tanob yer mazkur madrasa qurilishi uchun vaqf xayriya qilingan va yana Tashhovuz mavzeyiga 7 qit'a yer ajratilgan. Va "Noymon mavzeyiga 600 tanob" va "Qalichboy" mavzeyiga 2 qit'a yer "Xo'jayli" mavzeyiga Muhammad Aminxon madrasasining obodonchiligi uchun ikki qit'a yer ajratilgan. Ushbu yerlarning barchasini chegara hududlarida va chegaradosh qo'shnilar to'g'risida keng to'liq ma'lumotlar keltirilgan. Yozuv qatorida muborak Quroni karim oyatlari va hadislaridan sherlardan namunalar keltirilgan.

Majlis ishtirokchi guvohlar ismlari: Domla Muhammad Rizo Maxzun va Mulla Abdulla Maxzun. Xujjatlar ko'piya qismi bo'lib 27 varaqdan iborat.

Kotib: Domla Said Maxmud tomonidan nastaliq uslubida Arab alifbosi o'zbek tilida bitilgan[7].

Muhammad Aminxon madrasasining vaqfnomasi tarixiy va diniy ahamiyatga ega hujjat bo'lib, unda madrasa obodligini ta'minlash va rivojlantirish maqsadida ajratilgan vaqf xayriya yerlari bilan bog'liq ma'lumotlar mujassamlangan. Ushbu vaqfnoma jamiyatni yanada qulay sharoitlar bilan ta'minlash, diniy va ma'rifiy hayotni rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarning namunasidir.

Vaqfnomada ko'rsatilgan yerlarning ajratilishi Muhammad Aminxon madrasasining rivoji va obod qilinishi uchun zaruriy shartdir. Ko'hna Urganchda 30 tanob yer va Tashhovuz mavzeyiga 7 qit'a yer ajratilishi, mamlakatda ta'lim va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan aniq qadamlar hisoblanadi. Vaqfnomada ajratilgan yerlarning chegaralari va qo'shni yerlar haqida batafsil ma'lumot berilishi, egalik huquqlarini aniq belgilash va kelajakda mumkin bo'lgan nizolarni oldini olish uchun zarurligini ko'rsatadi. Bu, shuningdek, vaqf mulkini muvaffaqiyatli boshqarishda va bu mulkdan foydalanishda yuridik xavfsizlikni ta'minlaydi. Vaqfnomaning yozuv qatorida Qur'on oyatlari va hadislaridan namunalar keltirilishi, bu hujjatning diniy ahamiyatini oshiradi. Ushbu diniy manbalar vaqf va xayriya ishlarining musulmon jamiyatidagi o'rnini ta'kidlaydi. Masalan, Qur'on va hadislar orqali xayriya, savob va ijtimoiy yordam berishning qanchalik muhimligi haqida axborot berish, odamlarni xayrli ishlarga ilhomlantiradi va diniy qadriyatlarni yanada mustahkamlaydi. Vaqf tashkil etilishi va maqsadini amalga oshirishda jamiyat a'zolarining ishtiroki, madrasaning rivoji va obodligini ta'minlashda zaruriyatni yaratadi. Vaqfnomaning mazmuni aholi va muassasa o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga hamda ta'lim va diniy xizmatlarni eng yaxshi darajada taqdim etishga qaratilgan. Muhammad Aminxon madrasasining vaqfnomasi faqatgina moddiy resurslarni ajratish bilan cheklanmay, balki ma'rifiy va diniy qadriyatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi. Ushbu hujjat orqali jamiyatning rivoji, tenglik, ma'naviyatni oshirish va kelajak avlod uchun izchil ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlar aks etadi. Bu madrasaga ajratilgan yerlardan maqsadli foydalanish, albatta, uning obod va faravon bo'lishiga hissa qo'shadi.

Xiva Xonligida vaqf hujjatlari tarixiy, diniy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, ular ushbu hududning madaniy merosini, iqtisodiy rivojini va jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Vaqf hujjatlari nafaqat mulk va manfaati aniqlab beruvchi hujjatlar sifatida, balki o'sha davrning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, ta'lim tizimi va diniy faoliyatlarini ham yorituvchi asarlar sifatida xizmat qiladi. Umuman olganda, Xiva Xonligida vaqf hujjatlarini o'rganish nafaqat o'sha davrning iqtisodiy va ijtimoiy tuzilishini tushunishga yordam beradi, balki hozirgi kunda diniy va ma'rifiy qadriyatlarining ahamiyatini oshirish uchun ham muhimdir. Ushbu hujjatlar tarixni, madaniyatni va insoniyatning ma'naviy taraqqiyotini chuqurroq o'rganishga yordam beruvchi yirik manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Якубов Қ. XIX асрнинг II ярми — XX аср бошида Хива хонлигида вақф институти (тарихий-манбашунослик тахлили). Диссертация. 2018 й. Б — 180
2. М.Й. Йўлдашов. Хива хонлигида феодализм эгаллиги ва давлат тuzилиши. Тошкент-1959 й.Б-359
3. М.Й. Йўлдашов. Хива хонлигида феодализм эгаллиги ва давлат тuzилиши. Тошкент-1959 й.Б-359
4. U.A. Sultanov. Tashkent waqf mulklari tarixi. T-2021 y.
5. Абдурасулов У.А. Земельные отношения в Хивинском ханстве во второй половине XVIII – первой четверти XIX в. Дисс. ... кандидата исторических наук. – Ташкент, 200. – С. 41.
6. Xiva Ichan qal'a muzeu qo'riqxonasi arxiv fondi. KP -1357.
7. Xiva Ichan qal'a muzeu qo'riqxonasi arxiv fondi. KP- 1358.

UO'K: 904:94(575.1)

NEMIS MENNONITLARINING XIVA XONLIGI TARIXIDA TUTGAN O'RNI

F.J.Tadjiyeva, dots., PhD, Ma'mun universiteti NTM, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xiva xonligi hududida yashagan nemis mennonitlari va ularning xonlik hayotiga kirib kelish qiyinchiliklari va ziddiyatlarga uchlari shuningdek Xiva xonligi hududida o'z mehnatsevarliklari bilan muhim aholi qatlamiga aylanganliklari haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: musulmon, xristian, mennonit, dehqon, hunarmand, shisha, parket, paxta chigiti, cherkov, fermer.

Аннотация. В данной статье рассказывается о немецких меннонитах, проживавших на территории Хивинского ханства, и о трудностях и конфликтах, с которыми они столкнулись при вхождении в жизнь Хивинского ханства.

Ключевые слова: мусульманин, христианин, меннонит, земледелец, ремесленник, стекло, паркет, семена хлопка, церковь, земледелец.

Abstract. This article talks about the German Mennonites who lived in the territory of the Khiva Khanate and the difficulties and conflicts they encountered in entering the life of the Khanate.

Key words: Muslim, Christian, Mennonite, farmer, craftsman, glass, parquet, cotton seed, church, farmer.

Bugungi kunda ko'plab fuqarolik ziddiyatlari, ayniqsa, shaxs erkinligini himoya qilish va axloqiy jamiyatni shakllantirish o'rtasidagi murosa izlashda paydo bo'ladi. Ushbu ziddiyatlar, ko'pincha, individual erkinliklar va jamiyatning axloqiy prinsiplari o'rtasidagi murakkab munosabatlardan kelib chiqadi.

Birinchidan, shaxs erkinligi har bir insonning o'z fikrini, e'tiqodini va hayot tarzini tanlash huquqini ifodalaydi. Shaxslar o'z manfaatlaridan kelib chiqqan holda, o'zlarini ifoda etish, o'z fikrlarini bildirish va shaxsiy hayotlariga ta'sir ko'rsatadigan qarorlar qabul qilishda erkinlikka intilishadi. Bu, o'z navbatida, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni talab etadi.

Ikkinchidan, axloqiy jamiyatni shakllantirish jarayoni uning a'zolari o'rtasida me'yorlar, qadriyatlar va hissiy aloqalarni rivojlantirishni talab etadi. Jamiyatning barqarorligi va ahil hayoti, erkinliklar bilan bir qatorda, umummilliy axloqiy tamoyillarni qo'llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur jarayonda, jamiyatning umumiy manfaatlari va qadriyatlarini himoya qilish uchun shaxsiy erkinliklar qoliplarga solinishi mumkin. Natijada, bu ikki muhim soha o'rtasidagi ziddiyat va kurash, fuqarolik jamiyatidagi murakkabliklarni yaratadi. Shaxs erkinligi, ko'pincha, jamiyatning axloqiy talablariga qarshi chiqishi mumkin, bu esa bir tomondan, individual huquq va erkinliklarni himoya

qilishga, boshqa tomondan esa, jamoatchilik manfaatlari va axloqiy prinsiplarni oshirishga olib keladi.

Mennonitlar 1882 yilda Xivaga kelganida, bu voqea tarixiy va madaniy jihatdan juda muhim bo'ldi. Ularning kelishi, ikki xil madaniyat va din o'rtasidagi uchrashuvni ta'minladi: bir tomondan, mennonitlarning xristian an'analari, boshqa tomondan esa, Xivaliklarning musulmon an'analari. Mennonitlar, o'z tarixlari davomida tinchlik va ahillikka intilayotgan bir guruh sifatida tanilgan. Ular o'z diniy e'tiqodlari asosida jamoaviy hayot tarzini olib borgan, bu esa ularning musulmon qo'shnilar bilan tinchlik va hamkorlikda yashashlariga imkon yaratdi. Xivaliklar esa o'zlarining boy madaniyati va an'analari bilan mennonitlarga qarshi qiziqish va ochiqlik ko'rsatdilar.

Ushbu uchrashuv, ikki jamoa o'rtasida ko'plab ijtimoiy va madaniy almashuvlarga olib keldi. Xivaliklar mennonitlardan qishloq xo'jaligi va dehqonchilikda yangi bilimlar, usullar va texnikalarni olishdi. Bunga qaramay, mennonitlar ham o'z navbatida, musulmon madaniyati, urf-odatlar va hayot tarzi bilan tanishdilar.

Shunday qilib, mennonitlar va Xivaliklar o'rtasidagi bu zamonaviy davrning o'ziga xos voqeasi, haqiqatan ham tarixning ikki oqimining yaqinlashuvi sifatida baholanadi va buni nafaqat o'z vaqtida, balki kelajakda ham samarali muloqot va hamkorlik sifatida xotirlash mumkin.

Eng muhimi, bu hikoya ajoyib sarguzashtdir. Mennonitlar taqiqlangan cho'llar, dushman hukmdorlar, ichki nizolar, qaroqchilar, qotillar va sovet bezorilariga duch keldilar. Xivanliklar Rossiya imperiyasining g'azabiga, uning qabilalari o'rtasidagi qo'zg'olonga, saroydagi suiqasdlarga va hozirgi zamonning kirib kelishiga duch keldilar. Sarguzasht kichik Klaas Epp tug'ilgan paytda, rus qo'shnilar Xivaga bostirib kirishni rejalashtirayotgan paytda boshlanadi. Britaniya va Rossiya imperiyalari hamon O'rta Osiyodagi ajoyib muvaffaqiyatsizliklaridan o'nglanmagan edi. Shunga qaramay, ularning har biri ko'plab etnik guruhlarini o'z ichiga olgan ulkan hududni boshqarishda davom etdi. Rossiya chegaralarida mennonitlar fermerlar va tadbirkorlar sifatida mustahkam obro'ga ega edilar. Podshoh mennonitlarning Rossiya iqtisodiyotiga qanchalik yaxshi hissa qo'shayotgani va musulmon qo'shnilar bilan qanchalik yaxshi munosabatda bo'layotgani bilan qiziqdi[1].

Bu mennonitlarning ajdodlari sharqqa ko'chishning uzoq tarixiga ega bo'lgan. G'arbiy Evropadagi katolik va protestant hokimiyatlarining ta'qiblaridan qochgan gollandiyalik mennonitlar XVI va XVII asrlarda sharqqa Germaniya va Prussiyaga qochib ketishdi. Garchi ba'zi shveytsariyalik mennonitlar 1683 yilda Shimoliy Amerikaga ketishgan bo'lsalar ham, boshqalari sharqqa Polshaning Voliniya viloyatiga ketishdi. Asrlar davomida anabaptistlar, hozirda o'zlarining eng mashhur rahbari Menno Simons nomi bilan mennonitlar nomi bilan tanilgan, diniy erkinlik va harbiy xizmatdan ozod bo'lishlari mumkin bo'lgan joy qidirdilar. Shunga qaramay, er yuzidagi shohliklarning talablari mennonitlarni haddan tashqari o'troq bo'lib qolishdan saqladi. Prussiya qiroli Fridrix Vilgelm II mennonitlarning mehnatsevarligiga qoyil qoldi. Biroq, 1780-yillarning oxiriga kelib, u o'z qirolligidagi mennonitlarning kengayishi haqida shikoyat qilgan ko'pchilik lyuteranlarning bosimiga duch keldi. Lyuteran vazirlar va siyosatchilar: "Agar mennonitlar bundan ham kattaroq yerlarni egallab olishsa, harbiylar chaqiriluvchilarni qayerdan topadi?"

O'rta Osiyo mennonitlari musulmon podshohlari tomonidan boshqariladigan o'lkada bo'lishdi. Ular, shuningdek, musulmon qo'shnilar bilan ziddiyat va hamkorlik sikliga tushib qolishadi. Mennonitlar va musulmonlar o'rtasidagi navbatdagi yirik kelishuv muvaffaqiyatli bo'ladimi yoki yo'qmi, har bir tomon bir-biriga qanday yaqinlashganligi hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu sodir bo'lishidan oldin, Rossiyaning mennonitlari o'zlarining eng aziz ideallariga qarshi chiqadigan tartibsizliklarga duch kelishadi. Rossiya imperiyasi Xiva xonligidagi tugallanmagan biznes bilan ham shug'ullanar edi.

XIX asr o'rtalarida Xiva aholisi yetti yuz mingdan oshdi. Oltmish besh foizi o'zbeklar, 27 foizi ko'chmanchi turkmanlar tashkil etgan. 4 foizga yaqini qoraqalpoqlar bo'lib, qozoqlar esa kamroq bo'lgan. Bu sunniy millat bo'lib, fors qul aholisidan tashqari hech qanday shia ozchilik bo'lmagan. Shuningdek, u kichik va ixcham davlat bo'lib, uning sharqiy raqibi Buxoro kabi ko'p sonli ma'muriy tumanlarga ega bo'lmagan.

Birinchi mennonit vagon poyezdi 1880-yil 15-oktyabrda Kaplanbek shahriga keldi. Kaufman ularni qishda shahardagi sobiq hukumatning chorvachilik fermasida qolishini belgilagan edi.

Mennonitlar Kaplanbekka yetib kelguniga qadar bolalardagi kasallik pasaygan bo'lsa-da, ba'zi kattalarda bu kasallik saqlanib qolgan. Sayohat uchun odamlarning jabr ko'rganlari yurakni ezardi — o'n ikki bolaning qabri Traktdan Kaplanbekgacha bo'lgan so'qmoqlar bo'ylab joylashgan. Mennonitlar Kaplanbekka yetib kelgach, behuda vaqt yo'q edi. Qish mavsumi uchun fermanın turar-joylarini qayta qurishga kirishdilar. Ular vagon poyezdidagi oilalarni ta'minlashlari kerak edi va keyingi oylarda qolish uchun issiq va quruq joy bor edi.

Mennonitlar qishda va issiq fasllarda Toshkentda qolishgan. "Toshkentda bo'lgan shu to'qqiz oyda men osmonda bitta bulutni, faqat issiq quyoshni eslay olmayman", — deb eslaydi keyinroq Yelizaveta. "Kechasi hatto yulduzlar va oylar ham issiq bo'lib tuyulardi." Mennonit yigitlarining ko'pchiligi yangi turar-joy qurish rejalarini kutar ekan, mahalliy kar'erda ishga joylashdilar. Ko'p o'tmay, mennonitlarning ko'p erkaklari kasal bo'lib qolishdi. Toshkentda yashovchilar yangi kelganlarni kunning jazirasida ishlamasliklari haqida ogohlantirdilar; ya'ni soat 10:00 dan 16:00 gacha, mehnatsevar mennonitlar dam olish muddatini juda uzoq deb o'ylashdi va ertalab soat 11:00 gacha ishladilar va soat 14:30 atrofida qayta boshladilar. Mennonitlar avgust oyining oxirida Samarqandni tark etib, g'arbga, Buxoro chegarasi tomon yo'l oldilar. Ular Rossiya Turkistonidagi so'nggi qishloq bo'lmish Serabuloq yonidan o'tib, chegaradan o'tishda davom etdilar[2].

Mahalliy rus ma'muriyatining iltimosiga ko'ra, Serabulak aholisi mennonit oilalariga o'z qishlog'ida qolishga ruxsat berdi. Ular Serabuloq atrofidagi bir necha devor bilan o'ralgan hovlilarda istiqomat qilishdi. Bir paytlar general Kaufman va Buxoro amiri o'rtasida katta jang bo'lgan shahar hozirda bu karvonsaroylar qatori bitta katta ko'chaga ega bo'lgan uyqusiragan musulmon chegara qishlog'iga aylandi. Taxminan to'rt-besh oila masjid hududiga ko'chib o'tdi. Hovlining ikki tomonida chorva mollari uchun rastalar bor edi. Mennonitlar ularni tezda odamlar yashashi uchun qayta qurishdi. Yana bir baland loy devor hovlining orqa qismini va ayollar turar joyiga to'siq bo'lgan. Mennonitlar *haramdagi uy-joy tartibiga* rioya qilmasalar ham, ular jamoat joylarida ayollarga nisbatan mahalliy urf-odatlarni hurmat qilishgan[3]. Serabuloq aholisi mennonitlarga yakshanba kunlari *Ko'k Ota* masjididan cherkov sifatida foydalanishga ruxsat berib, juma kunlari yig'ilish kunlarini saqlab qolishgan[4].

Mennonitlar musulmon mezbonlari bilan yaxshi munosabatda bo'lishsa-da, ularning munosabatlari har doim ham tinch emas edi. Mennonitlar o'z sayohatlaridan qanchalik kambag'al bo'lsalar ham, ular Serabuloq aholisining qashshoqlik tartibiga duch kelmadilar.

Bir qancha iltimoslardan so'ng Xiva xoni Buxoro tomonidan rad etilgan nemis mustamlakachilarini qabul qilishini ko'rsatdi. Epp, Yantsen va Rizen 1882 yil iyul oyida xon Muhammad Rahimxon II bilan uchrashdilar. Evropoliklarning Xivaga tashrifi haqidagi zamonaviy ma'lumotlar mennonitlarning xonlikka birinchi marta tashrif buyurishi qanday bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Har bir rivoyatda ziyoratchilar xon bilan uchrashishdan oldin[5] devonbegi tomonidan mehmon qilingan.

Epp, Yantsen va Rizenga xonlikda bo'lgan dastlabki to'rt yil davomida soliqlardan ozod bo'lishlari aytildi. Xon, shuningdek, mennonitlarga xonlikda yashash shariatga bo'ysunish, jumladan, islom qonunlarida ko'rsatilgan o'g'irlik, qotillik va zo'rlash uchun qattiq fuqarolik jazosi berilishini bildirgan. Mennonitlarga juda qiziq bo'lib, ularga "nopok hayvon" bo'lgan cho'chqalarni ham boqishga ruxsat berilmasligini aytishdi[6].

Mennonitlar bilan yaqindan tanishishni istagan xivaliklar buyumlarining orasida shishadek yaltirab turgan yog'och kanistrga hayron bo'la boshladilar. Devonbegi Genrixdan "Bu odam qanday qilib bunday aqlli tarzda stakanni qutiga mahkamlashi mumkin?" — deb so'radi u. "Orangizda bunday ishlarni qila oladigan erkaklar ko'pmi?" Geynrix ijobiy javob berdi. "Xon hazratlari bir necha yil oldin Peterburgda edi va u erda u shisha bilan qoplangan katta parket polni ko'rdi. Endi u shunday parketga ega bo'lishni juda xohlardi"[7].

Shundan keyin mennonitlar xonning yangi saroyi uchun katta yog'och taxta uchun shartnoma haqida xonni ko'rish uchun yo'lga tushdilar. Xon bu ishdan qattiq ta'sirlanib, ularga ish taklif qiladi. Olti oylik shartnomaga qo'shimcha ravishda, butun Mennonitlar qishlog'i, Amerikaga yo'l olganlarni hisobga olmaganda, poytaxtdan atigi bir oz masofada devor bilan o'ralgan bog'da yashashi qolgan oilalar u erga ko'chib o'tishlari mumkin edi. Eng muhimi, ular zo'ravonlikdan himoyalangan bo'lar

edi.

Xivada qolganlar yangi uylariga 1884-yil aprel oyining oxirlarida yetib kelishdi. Qishloq yaqinidagi oqlangan masjid uchun “Oq Masjid” deb ataldi. Yangi Mennonit aholi punkti ham bu nomni qabul qildi[8].

Mennonit qishlog'idagi Pennerlar oilasi va boshqalar tomonidan tikuv mashinalarining joriy etilishi mahalliy to'qimachilik sanoati uchun katta foyda bo'ldi. Yigirmanchi asrning oxiriga kelib, Oq Masjid Mennonitlari birinchi navbatda hunarmandlar sifatida tanilgan. Ular xonlik loyihalarida, masalan, yangi saroy, kasalxona va pochta bo'limida ishlagan. Xonning yozgi qarorgohida mennonit rassomi Volga daryosi yaqinidagi tegirmonning pastoral manzarasini chizdi[9]. Ular, shuningdek, boy Xiva homiylari va Petro-Aleksandrovskdagi ruslarga vagonlar yetkazib berishdi[10].

Mennonit hunarmandlari o'zbek qo'shnilaridan alohida ishlamagan. Toews va Shmidt ustaxonalarida yettita mennonit ustasi va teng miqdordagi o'zbek yordamchilari ishlagan. Ustaxona saroy va boshqa ko'plab mijozlar uchun an'anaviy va g'arbiy uslubdagi mebel va boshqa yog'och buyumlar ishlab chiqardi. Birinchi jahon urushiga kelib, Oq Masjid hunarmandlari qishloq xo'jaligiga yiliga yigirma besh mingdan o'ttiz ming rublgacha daromad keltirdilar[11].

Mennonitlar Xiva xonligi uchun juda muhimdir, chunki mahalliy aholi nemis qishlog'idagi namunaviy tartibni ko'radi, uning aholisining oqilona, ishbilarmon intellektini qadrlaydi, ularning sanoat, tadbirkorligi va mahoratini qadrlaydi va shu tariqa ular Xiva xonligidan o'rganishga harakat qiladilar va barcha bu xislat va qadriyatlarda mennonitlarga taqlid qildilar. Shubhasiz, har bir nemis mahalliy aholiga juda aqlli va fazilatli shaxs sifatida ko'rinadi.

Oq Masjidning mennonitlari hunarmand sifatidagi asosiy rolga qaramay, mohir dehqonlar edi. Mennonitlar, shuningdek, Amerikaga ko'chib kelgan oilalar bilan samarali va jonli yozishmalarni olib borishdi. Ular hatto Qo'shma Shtatlardagi birodarlaridan Oq Masjidga eng yaxshi Amerika paxta chigitining yadrolarini yuborishni so'rashdi[12]. Garchi ular daromadlarining katta qismini yog'ochga ishlov berish va boshqa shartnomalardan olishgan bo'lsa-da, Oq Masjidning mennonitlari o'z qishloqlari atrofidagi bo'sh erlarning bir qismini qaytarib olib, ekinlarni yetishtirishni boshladilar[13]. Mennonitlar, shuningdek, mahalliy navlarga nisbatan Amerika paxtasini qabul qilishdagi yana bir to'siqni hal qilishga yordam berdi. Amerika paxtasining o'ziga xos xususiyati shundaki, ko'za pishganida ochilib, qimmatli tuklar paydo bo'ladi. Hasharotlar yoki ob-havo sharoiti hosilning qiymatini pasaytirmasdan oldin uni tezda yig'ib olish kerak. Boshqa tomondan, Markaziy Osiyoning kichikroq paxta qozilari yopiq qoladi va ularni qulayroq jadval asosida terib olish mumkin. Boshqa tomondan, Xivaning kichikligi fermerlarning daromadlarini nazorat qilishni yanada qulayroq harakatga aylantirdi. Biroq, Amerika paxtasi hali ham tez yig'ib olinishi kerak edi. Oq Metchetning mennonitlari Xiva paxta tozalash zavodlarini o'rnatish va ularga xizmat ko'rsatishda monopoliyani ushlab, xon ma'muriyatiga bu muammoni hal qilishda yordam berishda muhim rol o'ynagan[14]. Mennonitlar tufayli Xiva daladagi hosilning hosildorligi haqida taxmin qilishdan ko'ra, tozalash vaqtidagi daromadni o'lchashi mumkin edi.

1909 yilga kelib Oq Masjid mennonitlari Xiva xonligining tabiiy fuqarolariga aylanishi, ular uchun ko'plab imtiyozlar va imkoniyatlarning ochilishi manzarasini bevosita yaratdi. Islom qonunlariga ko'ra, ularning maqomi ularning musulmon bo'lmagan shaxs sifatida tan olinishi va xonlik hududida yashovchi boshqa fuqarolardan ikkinchi darajali maqomda bo'lishini anglatardi. Biroq, mennonitlar uchun bu holat juda ham maqbul edi, chunki ularga harbiy xizmatdan ozodlikni, o'z jamiyatida o'zini o'zi boshqarish imkoniyatini hamda o'z ta'limlarini nazorat qilish imkoniyatini berdi. Shunday qilib, mennonitlarning maqsad va maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan shartlar yaratildi. Ularning bu erda turishi, o'z madaniyat va an'alarini saqlash imkoniyati borligini ham bildiradi. Xiva xonligi, madaniy diversifikatlar va turli etnik guruhlarning bir joyda yashashiga imkon beradigan bir makon bo'lib, mennonitlar o'z hayotlarini davom ettirishlari uchun qulay shartlar yaratdi. Bundan tashqari, mennonitlarning haqiqiy huquqiy maqomi, ularning mahalliy boshqaruvda ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirdi va shu bilan birga, lokal xalq bilan muloqot va hamkorlik qilishda yordam berishi mumkin edi. Bu jarayon, shuningdek, mennonitlar va mahalliy aholi o'rtasida madaniyat almashinuvi uchun imkoniyatlarni kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Walter Ratliff. Pilgrims on the Silk Road. A Muslim-Christian Encounter in Khiva. 2010. P 293.

2. Иноятова Д. М. История немецкой диаспоры Узбекистана (вторая половина XIX – начало XXI века). Автореферат диссертации доктора исторических наук (DSc). – Ташкент, 2020.
3. Bartsch, Franz. Our Trek to Central Asia. Translated by Elizabeth Peters and Gerhard Ens. Winnipeg: CMBC Publications, 1993.
4. Belk, Fred Richard. The Great Trek of Russian Mennonites to Central Asia, 1880-1884. Scot tsdale: Herald, 1976.
5. Jefferson, Robert L. A New Ride to Khiva. New York New Amsterdam, 1900
6. Burnaby, Fred. A Ride to Khiva: Travels and Adventures in Central Asia. New York: Harper and Brothers, 1877
7. Лыкошин Н.С. Немцы в Хиве // Туркестанское слово. – 1917 от 7 окт. – № 34.
8. Walter Ratliff. Pilgrims on the Silk Road. A Muslim-Christian Encounter in Khiva. 2010. P 293.
9. Лыкошин Н.С. Немцы в Хиве // Туркестанское слово. – 1917 от 7 окт. – № 34.
10. Zhukova, Ludmila. "Nyerntsy-mennonity v yuzhnorn Khorezrne," Kungrad.com. Online: <http://kungrad.com/history/etno/ne>
11. Zhukova, Ludmila. "Nyerntsy-mennonity v yuzhnorn Khorezrne," Kungrad.com. Online: <http://kungrad.com/history/etno/ne>
12. Walter Ratliff. Pilgrims on the Silk Road. A Muslim-Christian Encounter in Khiva. 2010. P 293.
13. Walter Ratliff. Pilgrims on the Silk Road. A Muslim-Christian Encounter in Khiva. 2010. P 293.
14. Yaroshevski, Dov. "Central Asian Context for the Khivan Mennonites' Story," Centml Asia on Display: Proceedings of the Vllth Conference. Vienna: European Society for Central Asian Studies, 2004.

UO'K 94.5

V.G. MOSHKOVA TADQIQOTLARIDA NUROTA TURKMANLARI
A.Sh.Umarov, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

Annotatsiya. Maqolada olim V.G. Moshkova tadqiqotlari orqali Zarafshon havzasi Nurota qishloqlarida istiqomat qiluvchi, o'zlarini "Nurota turkmanlari", "O'zbek turkmanlari" deb hisoblaydigan qishloq aholisi urug'larning kelib chiqishi, urf-odatlari va ularning tarqalish chegarasi to'g'risida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: "O'zbek-turkmanlari", "Nurota turkmanlari", "olti ota qozoyoqli" va "besh ota mang'ishlov", "24 ota turkmanliklar", sariq, taka, ersari, el-xalq, qabila, qozoyoqli, oytamg'ali, qo'shtamg'ali.

Аннотация. В статье ученый В.Г. Мошкова через исследователей жители нуротинских сел Зерафшанского бассейна, считающие себя «нуротинскими туркменами», «узбекскими туркменами», узнали о происхождении, традициях родов и границе их распространения.

Ключевые слова: «Узбеки-туркмены», «Туркмены Нуроты», «шесть отцов казахов» и «пять отцов Мангышлова», «24 отца туркмен», Сарик, Така, Эрсари, Эль-Хальк, Племя, Козойов, Ойтамгали, Коштамгли.

Abstract. In the article, scientist V.G. Moshkov, through researchers, residents of Nurota villages of the Zerafshan basin, who consider themselves "Nurota Turkmen", "Uzbek Turkmen", learned about the origin, traditions of clans and the border of their distribution.

Keywords: "Uzbek-Turkmens," "Nurota Turkmens," "six ancestors of Qozoyoqli" and "five ancestors of Mangishlov," "24 ancestors of Turkmens," Saryk, Teke, Ersari, people, tribe, Qozoyoqli, Oytamghali, Qoshtamghali.

Kirish. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Ikki daryo oralig'ining ichki dasht cho'llarida turkmanlar, qozoqlar, qirg'izlar, ko'p sonli o'zbek aholisi orasida orolchalar singari joylashgan. Shu sababdan bu xalqlarning barchasi o'zbeklar bilan aralashishning u yoki bu bosqichida bo'lgan. Aralashish jarayonlariga g'arbda-turkmanlar, shimolda-qozoqlar, sharqda-qirg'izlar va tojiklar, uyg'urlar tortilgan. Assimilyatsiya davomida ko'p sonli o'zbeklar an'analari, tili keng o'zlashtirilsada, turkmanlar, tojiklar, qozoqlar va boshqa etnoslar vakillari o'z etnik ongi, etnonimini saqlab kelmoqda. Nurota vohasidagi tojiklar, o'zbek-turkmanlar, nurota-turkman bunga misol bo'la oladi. Nurota turkmanlarining joylashish hududi XX asrning 20-yillarida Nurota tumanidan chetga chiqib, Zarafshon daryosining o'rta oqimidan (Karmana-Jizzax) Qizilqumgacha bo'lgan tog'oldi kengliklarni qamrab olgan. Bu joylarda shimoli-sharqdan janubi-g'arbgacha tomon deyarli to'g'ri chiziqlar shaklida uchta: Nurota, Oqtog', Qoratog'lar joylashgan. Birinchisi Qizilqum cho'li bo'ylab

o'tib, (eng baland nuqtasi 2169 m.) faqat vohani emas, butun Zarafshon vohasini shimoliy sovuq oqimlardan saqlab turadi [9].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixiy statistik ma'lumotlarga qaraganda, Oqtog' va Qoratog' oralig'idagi qishloqlarda XX asrning birinchi choragida (1925-yilgacha) Nurota turkmanlaridan 30-35 ming kishi yashagan [6]. O'zbek-turkmanlar XX asrning o'rtalarigacha qishloqlarda zich yashab, 2 ta yirik urug'-jamo'a uyushmasi "olti ota qozoyoqli" va "besh ota mang'ishlov" ga bo'lingan. Olti ota qozoyoqlilar: oytamg'ali, qo'shtamg'ali, qonjig'ali, bo'g'ajili, qozoyoqlilarga bo'lingan. Ularning har biri yana 6 tadan kichik urug'-jamoalariga bo'linib "24 ota turkmanlilar" deb ataladi.

Nurota turkmanlari urug'-qabila tizimlari va joylashuvlari haqida 1920-1924-yillardagi Butun Rossiya aholi ro'yxatlari ma'lumotlar beradi. O'rta Osiyoni milliy hududiy rayonlashtirish komissiyasi doirasidagi aholi haqidagi bob muallifi I.P.Magidovich o'zbek-turkmanlarni turkmanlardan kelib chiqqaniga shubha bilan qaragan, sababi ro'yxatga olish paytida Nurota turkmanlarining barchasi ona tili deb o'zbek tilini ko'rsatganlar. Millati haqidagi savolga esa o'zbek-turkmanlar deb javob berganlar. Magidovichning shubhasini Nurota va Kaspiyorti turkmanlari ayrim urug' qabilalari nomlari bir xilligi ham yo'qota olmaydi, chunki bu nomlar ayrim o'zbek qabilalarida ham uchraydi. Magidovichning yozishicha, o'zbek-turkman nomli unchalik katta bo'lmagan turkman o'zagi atrofida yangi qabila ittifoqi sifatida shakllanib, uning tarixiy taqdiri turkman qabilalarinikidan o'zgacha kechgan [4].

O'zbekning turkman elini ilmiy jihatdan birinchi bo'lib o'rgangan tadqiqotchi, shubhasiz, V.G.Moshkovadir. Uning "Samarqand va Buxoro viloyatidagi turkmanlar" [7], "Samarqand viloyatidagi turkmanlarga etnografik ekspeditsiya", "O'zbek, qoraqalpoq va turkmanlarning urug'-qabilalaridagi ba'zi bir o'xshashliklar" [6] kabi ilmiy maqolalari XX asrning 40-yillaridayoq tayyorlanib, ular Toshkent hamda Moskvaning ilmiy nashrlarida e'lon qilindi. Bu ilmiy maqolalarning so'ngisida, O'zbekistonda yashayotgan va o'zlarini turkman deb atovchi etnik guruhlarni bir-biridan farqlanuvchi ikki guruhga bo'ladi. Ularning birinchisini u tili, urf-odati, turmush tarzi jihatdan o'zbeklarga yaqin bo'lgan turkmanlar va ikkinchisini til, urf-odat, turmush tarzi, etnik tarkibi jihatdan kaspiybo'yi turkmanlariga yaqin degan xulosaga keladi [6].

Muhokama va natijalar. V. G. Moshkova Nurota turkman qoli gilamlaridagi bezaklarning kaspiybo'yi turkmanlaridagi taka, sariq, ersari ellarida to'qilgan qoli gilam bezaklariga (gullariga) o'xshashligini xam aniqlagan. Bu madaniy element, ya'ni gilam bezaklari (naqshlari)dagi o'xshashlik V. G. Moshkovaning fikricha, Nurota turkmanlarining (u o'zining barcha ilmiy maqolalarida o'zbekning turkman elidagi Nurota turkmani guruhini "Nurota turkmani" deb ataydi) kelib chiqish jihatdan kaspiybo'yi turkmanlariga borib tutashishligini bildiradi [5].

Uning fikricha, Samarqand viloyatida yashayotgan Nurota turkmanlarining qadimgi, eng dastlabki o'zagini janubiy Qozog'istonning Sig'noq va Qoratov aylanasi bo'ylab ko'chib yurgan o'g'uz-turkmanlari tashkil qiladi. Ushbu ikki guruh X asr oxiri — XI asr boshlarida (980-1020-yillar) Sirdaryoning quyi oqimidagi o'g'uzlar bilan saljuq ittifoqiga kirib, g'arb va janubi-g'arbg'a siljiydilar. Bu aholi guruhlarning katta qismi asta-sekin Amudaryoning ortiga o'tib joylashsa, kichikroq bo'lagi Nurda o'rnashadi. O'g'uz va turkmanlarning quyi Sirdaryo bo'ylaridan ko'chishlari keyingi asrlarda ham davom etadi. Ular Sirdaryoning quyi oqimidagi na Orol dengizi bo'ylaridagi o'g'uzlar davlatining o'zaro ichki nizolari oqibatida bu joylarni tashlab chiqib ketishga, chorvasi, uy-joyi, butun eli bilan ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Natijada yaylov uchun qulay sharoitga ega bo'lgan Mirzacho'l hududiga va uning g'arbiy chekkasidagi Nurota tog'ligiga hamda uning atrofidagi dashtliklarga kelib joylashganlar. Ular bu yangi joylarda yuz yilcha vaqt, ya'ni uch-to'rt avlod davomida yashaganlaridan so'ng hozirgi Turkmaniston tarafga va undan xam nari Eron, Kavkaz, Kichik Osiyo (Onado'li) taraflarga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Biroq saljuq turkmanlarining bir qismi, el ta'biri bilan aytganda, ularning ko'chishga yaramagan "oqsoq-to'qsoqlari", "qarri-qurilari" bu yerlarda qolib ketgan [7]. Yana boshqa adabiyotlarda O'g'uzlar davlati shimoli-sharqdan qo'zg'algan qipchoqlar tomonidan qahshatgich zarbaga uchrab, bo'linib ketishiga sabab bo'lgan. Ularning bir qismi g'arbg'a Shimoliy Kavkaz dashtlariga borib o'rnashadi. Ikkinchi qismi esa Movarounnaxrga kirib, janubiy-g'arbg'a siljishib, yangi sulola saljuqiylar boshchiligida Old Osiyo

mamlakatlarini istilo qilishga kirishadi. Bu tarixiy jarayon 1453-yilda Sharqiy Rim (Vizantiya)ning usmonli turklar tomonidan qulatilishiga sabab bo'ladi. R.T. Shamsutdinovning ta'kidlashicha "O'g'uzlar nafaqat o'zbeklar va turkmanlarning, balki hozirgi Turkiya turklari, Iroq turkmanlari, Eron turkmanlari (Shimoliy Kavkazda yashaydigan Qorachoylar, Cherkeslar,, Terek daryosi bo'ylaridagi Adigeylar, Gagauzlar (ko'k o'g'iz yoki to'q o'g'iz) ham turkiy xalqlar bo'lib, tiliga bemalol tushinish mumkin) va Ozarboyjon xalqining ham tashkil topishida yetakchi etnik guruh bo'lganlar. Saljuqiylar dastlab quyi Sirdaryo hududlarida chorvachilik bilan shug'ullanib ko'chib yurishgan. Jand xokimi Shoxmalik bilan kelishmovchilik sabab, Zarafshon daryosi o'ng sohiliga Nur (Nurota) tumaniga Somoniylar ruxsati bilan ko'chib kelishga majbur bo'lganlar va Qoraxoniylar bilan jangda Somoniylarga yordam bergan [10]".

Keyingi davrda ko'chishlarning yangi to'liqiniga mo'g'ullar bosqini ham turtki bergan. Ayni paytda, XIII asr oxirida ham turkmanlarning bir qismi Sirdaryo bo'ylarida qolgan.

Faqat XVI asrga kelib, ushbu hududda turkmanlar qolmagan. Buxoro Nurida esa o'g'uz va turkmanlarning deyarli ming yillik hayoti davomida ularning tarkibiga turli urug'-qabilalar, eng avvalo, Movarounnahrning mahalliy aholisi vakillari kirgan. Bu esa turkmanlarni oxir — oqibat butun Movarounnahr aholisi uchun umumiy bo'lgan madaniy qiyofasi shakllanishi hamda o'zbek xalqi tarkibiga kirgan bir qabilaga aylanishiga sharoit yaratadi. O'zbek turkmanlarda o'tmishdagi qabiladoshlari bilan umumiy bo'lgan ayrim xususiyatlar saqlanib qolgan. V.G. Moshkovaning yozishicha, gilamlardagi eng qadimiy naqshlar Nurota turkmanlarini – sariq, taka, ersarilar bilan yaqinligini tasdiqlaydi. Olima Turkmanistonda yashayotgan yazir va go'klanlardan Nurdan Amudaryo ortiga ko'chganlar haqida rivoyatlarni eshitgan [8].

V.G. Moshkova nazariyasi haqqoniyligini S.G. Agajanovning o'rta asrlar o'g'uzlari va turkmanlari haqidagi tadqiqotlari ham tasdiqlaydi. U keng qamrovli: tarixiy etnografik, epigrafik manbalarni diqqat bilan o'rganib, ushbu qabila ittifoqlarining IX-XIII asrlardagi tarixiy taqdirlari, ularni saljuqlar tarkibida quyi Sirdaryo bo'ylaridan Buxoro Nuri va So'g'dga, undan Qashqadaryo va Amudaryo bo'ylari hamda Xurosonga ko'chishlarini tavsiflagan. S. G. Agajanov keltirgan tarixiy ma'lumotlar ayrim guruhlarni 950-960-yillardayoq Nurotada o'rnashganini tasdiqlaydi [1].

Shu sababdan ko'pgina o'zbek qabilalarida "turkman" yoki ularning urug'lari nomlari saqlanib qolgan. Nurota vohasida esa o'g'uz va turkmanlarning o'zbeklar bilan ko'p asrlik qo'shnichilikda xo'jalik-o'troq-madaniy aloqalarda yashashi o'zbeklar tarkibida yirik etnik birlik o'z etnik nomlari – "turkman" etnonimini saqlab qolgan elat shakllanishiga olib keladi. Ushbu voqelik XVI asr atroflarida sodir bo'lgan, shu asrda Farg'onada Sayfiddin Axsikentiy tomonidan bitilgan "Majmu at tavorix" ("Tarixlar to'plami") asarida o'zbeklar tarkibidagi 92 qabila orasida turkman nomi 16 o'rinda keltirilgan. Turkman nomi o'zbek xalqini tashkil etgan qabilalar ro'yxatida keyingi asrlarda ham uchraydi. Bu hol o'zgacha bo'lishi ham mumkin emasdi. Sababi Shayboniylar davrida XVI asrdan boshqaruvning suyurg'ol tizimi joriy etilib, unga ko'ra, soliq-to'lovlar yer-mulk hamda suv qo'shinda xizmat qilish qabilalar doirasida hal etilgan [2].

Nurota turkmanlarining o'zbek qabilalari tarkibiga kiritilishi ularning etnik taraqqiyotida qonuniy bosqich-hodisadir. Sababi qabilalar ittifoqiga teng huquqli birlik sifatida qabul qilinishi ularning keyingi taraqqiyoti xonlikda o'z hududi, ijtimoiy siyosiy mavqeyi barqarorligini ta'minlagan. Yuqorida keltirilgan nazariya, ya'ni Nurota va Amudaryoorti turkmanlarining qarindoshligini ularning o'zbeklar, qozoqlar, qoraqalpoq va no'g'aylar tarkibidagi urug'lar nomlarini qiyosiy tahlili ham tasdiqlaydi. Rossiyalik elshunos V.G. Moshkova va B.X. Karmishevalar ushbu qiyosiy ma'lumotlarni 1944-1976-yillardagi etnografik ekspeditsiya materiallariga asoslanib tayyorlaganlar. Xususan, V.G Moshkova 1944-1946-yillarda Nurota turkmanlarida ikki yirik qabila ittifoqi:

-24 ota o'g'uz;

-5 ota mang'ishlovga bo'linganligini ko'rsatgan.

Birinchi birlashma 4 ta qabilada: qozoyoqli, qonjig'ali, oytamg'ali, bog'ajalilar bo'lgan [8].

Xulosa. V.G. Moshkova Nurota turkmanlari ustida olib borgan ko'p yillik ilmiy tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarga keladi:

1) Nurota tog'larida va unga yaqin bo'lgan hududlarda yashovchi hamda turkman deb atalib kelingan etnografik gruppaga o'zbekning turkman deb ataluvchi bir urug'idir.

2) O'zlarini turkman-deb atovchi o'zbeklar kelib chiqishliklari jihatdan saljuq o'g'uzlariga borib tutashadi, chunki ular saljuq o'g'uzlarining Nurota tog'ligi hududlaridan ko'chib ketishlarida, ulardan ajralib qolib ketgan va keyinchalik shulardan ko'paygan avlodlardir. Bunga ularning o'zlarini biz turkmanlarmiz deb atashlari xam guvohlik beradi, negaki saljuq o'g'uzlari o'zlarini turkman deb atar edilar.

3) O'g'uzlarning Orol bo'yi va Sirdaryo bo'ylaridan Movarounnaxrga, shuningdek, Sug'd va Nurota tog'ligiga ko'chib kelishlari saljuq o'g'uzlarining bu yerlarga ko'chib kelishi bilan tugamagan, balki ularning kelishi keyingi asrlarda ham sodir bo'lib turgan.

V. G. Moshkovaning o'zbek turkmani haqida, aniqrog'i, bu elning "Nurota turkmani" tarmog'i haqida bildirgan yuqoridagi xulosalariga joyi kelganligi bois o'z munosabatimizni bildirib ketaylik. Avvalo uning birinchi xulosasiga kelsak, o'zbeklar tarkibidagi turkman deb ataluvchi etnik guruh V.G. Moshkova aytganidek, o'zbekning shu nomdagi bir urug'i emas, hatto, urug'lardan tashkil topuvchi urug'lar ittifoqi bo'lgan toifa xam emas, balki toifalar ittifoqidir. Bunday ittifoqni el-xalq; "el" deb ataydi. Masalan, turkman eli, mang'it eli, jaloir eli, qipchoq eli, qang'li eli, qo'ng'iroq eli, yuz eli, qirq eli va boshqa nomlar bilan atalib keladi. Ammo, fan ushbu ellarni sun'iy ibora bilan "qabila" deb, ba'zan qo'shaloq holda urug'-qabila deb, ko'p xollarda urug' deb ataydi. O'zbekning 92 elini urug' deb atash sovet davrida shakllangan bo'lib, ushbu qarash, tushuncha haligacha davom etmoqda.

V.G. Moshkova urug' deb hisoblayotgan o'zbekning turkman eli "to'rt ota turkman" yoki "taka turkman" deb ataluvchi to'rt toifadan va xar bir toifa "olti ota" deb atalgan olti urug'dan tashkil topib, jami 24 (yigirma to'rt) urug'ga bo'linadi. Demak, o'zbekning turkman eli urug' emas va hatto toifa xam emas, balki toifalarning konfederatsiyasi (birlashmasi)dir.

V.G. Moshkovaning ikkinchi xulosasiga kelsak, o'zbekning turkman eli tarkibidagi toifalarning va urug'larning barchasini kelib chiqish jihatdan saljuq o'g'uzlariga olib borib taqashni ilmiy asosli deb bo'lmaydi. Faqat, ularning bir qismigina saljuq o'g'uzlari bilan kelib chiqishlik jihatdan aloqador desak yanglishmagam bo'lamiz. Buni el orasidagi "to'poroytamg'alining bobosi Boy To'q" degan gap xam tasdiqlaydi. To'q oq o'g'li Saljuqli el-yurt xotirlab haligacha "Boy To'q" deb keladi va uning qabri Nurota bilan Qo'shrabot oralig'idagi Jo'sh qo'rg'onidan tepalikda eski qabristonda bo'lib, uni oytamg'ali turkmanlari ziyorat qilib keladi.

V.G. Moshkovaning uchinchi xulosasi haqiqatga bir muncha yaqin bo'lib, ushbu hududda XII asrda Turkiston (Yassi) va uning atroflaridan Oqmon va Qoramon boshliq taka turkmanlari bir qismining qolib ketganligi, XIII asrda Chingizxon boshchiligidagi yovdan chekinib kelib qolgan turkiy elatlardan ba'zilarining turkmanlar orasida qolib ketganligidagi, XVI asr boshida Shayboniyxon boshliq o'zbek elatining O'rta Osiyo hududiga kirib kelishi munosabati bilan ayrim turkiy toifa va urug'larining (masalan, "besh ota mong'ishloq" turkmanlarining) Nurota turkmanlari orasida qolib ketishi V.G. Moshkovaning uchinchi xulosasi to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, o'zbekning turkman elini ilmiy jihatdan o'rganish ishi V.G.Moshkovadan boshlanadi desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.V.G Moshkova jodir atamasini etnonim ekanligini ta'kidlab u tekin turkmanlarida shu nomdagi urug' borligini aniqlagan. Jodirlik qariyalar o'z qabilalaridagi 6 ta urug' nomini sanab bera olmaganlar. Ular faqat yomon-turkman urug'idan ekanliklari hamda o'z oila qarindoshlik guruhlarini nomlarini aytib berganligini ta'kidlaydi.

Nurota turkmanlarining yana bir yirik birlashmasi besh ota mang'ishlov V.G Moshkovaning yozishicha: qunish, chilikli, anna, toz, bog'ajat, urug'lariga bo'lingan. Ularning har biri, o'z navbatida, yana xam kichik urug'larga bo'lingan, ular Nurota tog'lari o'rtasida Jo'shdan Chuyagacha hududlarda zich joylashganlar. Toz, Anna, Baroq, Bog'ojot, Qo'shtamg'ali urug'lari nomidagi qishloqlar hozirgacha mavjud.

V.G Moshkova Nurota turkmanlari urug'-qabila nomlarini Amudaryo orti turkmanlari bilan qiyoslab, sakkizta bir xil etnonimlar borligini aniqlagan: bog'ajeli, jodir, qozoyoqli, qonjig'ali va qonjiq, qunishni-gunesh (ersari qabilasi urug'i) bir xil ma'noda, deb aytish mushkul. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqib, olima ikki xulosaga kelgan: 1. Nurota turkmanlarining birorta yirik

qabilasi nomi Amudaryo orti turkmanlarida uchramaydi, bu esa yaqin o'tmishda ular orasida uzviy aloqalar bo'lmaganini ko'rsatadi. 2. To'rt asosiy qabilalardagi 24 ta otadan 3 tasi (qozoyoqli, qonjig'ali, bog'ajali) har ikki xalqda uchrashi Nurota va Amudaryoorti turkmanlari uzoq o'tmishda bir xil nomdagi qabilalar tarkibida bo'lganligini, keyinchalik parchalanib tarqalganligini anglatadi.

Ushbu guruhlarining g'arbga ko'chganlari asrlar o'tib, Amudaryo orti turkmanlari tarkibiga, qolganlari esa mahalliy aholi bilan aralashib, ulardan ko'plab yangi madaniyat belgilarini o'zlashtirib, atrof muhitga mos xo'jalik yaratganlarini ko'rish mumkin. Olima bunday guruhda oytamg'alilarni misol keltiradi [7].

Yuqoridagi ma'lumotlar turkman-yuzlar, Nurota mintaqasidagi o'zbek-turkmanlar o'rtasidagi genetik bog'liqlik va ularning tarkibiga kirgan guruhlarining Nurotadan Surxon vohasiga va yana Nurotaga takroriy ko'chishi mumkinligidan dalolat beradi. Ko'rib chiqilayotgan ikkala guruhda ham bir qator boshqa o'zbek qabilalari, jumladan, qo'ng'irotlar va naymanlar uchun umumiy bo'lgan bir xil genonimlar o'xshash, shuning uchun ular Surxondaryo vohasi etnik guruhlariga kirishi mumkin va Nurotadan kelganlar muhojirlar hisoblanmaydi. Avvalgi barcha tadqiqotchilar mahalliy aholi qarashlariga asoslanib, Nurota turkmanlarini o'zbeklar tarkibidagi mustaqil etnik birlik, ya'ni o'zbek qabilalaridan biri deb hisoblagan. 92 o'zbek qabilasining ro'yxatiga turkman nomining kiritilishi ham buni tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XIII вв. Ашхабад, Илим, 1973. с 163.
2. Бартольд В.В. Сочинения. Т. II, часть 1. Общие работы по истории Средней Азии. Работы по истории Кавказа и Восточной Европы. М., 1963.
3. Якубовский А.Ю. Сельджукские движения и Туркмены в XI в. Изв. АН СССР, отд. общ. наук, 1937, № 4, с 980-981.
4. Мошкова В.Г. Материалы по районированию Средней Азии. кн. 1. Территория и расселения Бухары и Хорезма. ч.1. Ташкент, 1926. с. 231.
5. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX — начала XX вв. [Часть 1]. Ташкент, 1970. С.67-85.
6. Мошкова В.Г. Некоторые общие элементы в родоплеменном составе узбеков, каракалпаков и туркмен// Материалы по археологии и этнографии Узбекистана: Труды ИИАиЭ АНУз. ССР. Т.II.Ташкент, 1950.
7. Мошкова В.Г. Туркмены Самаркандской и Бухарской областей // Бюллетень АН Узб. ССР. 1945.№1-4. с. 15-17., Этнографическая экспедиция к туркменам Самаркандской области. СЭ. 1946. №1.
8. Туркмены в Среднеазиатском междуречье. –Ашхабад: 1989. С. 13.
9. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. т.6. Давлат илмий нашриёти. 2003, 420 б.
10. Шамситдинов Р. Ватан тарихи. Т., 1997. 210-бет.

УДК 93/94

ЭПИГРАФИЧЕСКИЕ ПАМЯТНИКИ XIX В. КЛАДБИЩА ЧАГАТАЙ ГОРОДА ТАШКЕНТА

Д.К.Бабаджанов, PhD, с.н.с., Хорезмская академия Мамуна, Хива

Аннотация. Мақолада муаллиф Тошкент шаҳри Чигатай қабристонига эпитафияларнинг ёзувлари мавжуд бўлган тарихий мемориал ёдгорликларни ўрганиш жараёнида эришилган натижаларни ёритиб берган.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, Тошкент, Авесто, Чигатай, эпитафия.

Аннотация. Статья посвящена изучению нескольких эпитафических памятников конца XIX в., зафиксированных на территории мусульманского кладбища Чагатай г. Ташкента.

Ключевые слова: Центральный Азия, Ташкент, Чигатай, эпитафия.

Abstract. The article is devoted to the study of several epigraphic monuments of the late 19th century, recorded on the territory of the Chagatai Muslim cemetery in Tashkent..

Key words: Central Asia, Tashkent, Chigatai, epigraphy.

Испокон веков среди простых жителей-энтузиастов, краеведов, да и представителей весьма разных профессий существовало не мало категории лиц, прикладывающие огромные

усилия в изучении своего рода, наследия своих предков. Вместе с тем, в отдельных случаях, их исследовательская деятельность по сбору генеалогических сведений оказывает существенное влияние на раскрытие особых исторических фактов, позволяющее в дальнейшем восстановить или переконструировать до сих пор неизвестные данные историко-этнографического, социально-регионального характера.

Одним из таких людей является доктор геолого-минералогических наук, старший научный сотрудник, заведующий лабораторией «Геология месторождений нефти и газа и перспективных объектов» ГУ «ИГИРНИГМ»¹ г. Ташкента Богданов Александр Николаевич. В марте-апреле 2024 г. совместно с сестрой Халиловой Умидой Мансуровной во время внеочередного посещения кладбища Чагатай² г. Ташкента в процессе поиска места захоронения своих предков, ими было зафиксированы фрагменты нескольких эпитафий датируемые XIX в. Несмотря на отсутствие каких-либо родственных связей с усопшими, указанными на памятниках, но, в то же время понимая значимость эпиграфических изысканий, фотоматериалы с приблизительными координатами, указывающие на месторасположение находок были переданы одному из сотрудников Центра письменного наследия ИЯЛИ им. Г. Ибрагимова АН РТ Насибуллиной Нуриде Шайдуллоевне. Авторы статьи выражают благодарность Богданову А.Н. и его сестре также за предоставленные дополнительные материалы, связанные с территориальным делением г. Ташкента, а именно части Старого города, с историей махалли и др.

В целях дальнейшего повышения эффективности реформ для развития и процветания страны, в соответствии с постановлением №ПФ-4947 «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», принятым Президентом Республики Узбекистан Республика Узбекистан 7 февраля 2017 года, культуры и искусства, среди всех отраслей и отраслей отмечена задача поднятия развития сферы на новый уровень. [1]. Также за годы независимости нашим правительством был принят ряд решений, постановлений, указов и программ, касающихся восстановления, развития и защиты нематериального культурного наследия, и эти процессы служат обеспечению стабильности нематериального культурного наследия [4, 33].

В настоящее время существует большая потребность в специалистах, владеющих всеми аспектами нематериального культурного наследия, способных управлять нематериальным культурным наследием и направлять его на развитие общества с полным пониманием охранной работы. Также желательно улучшить систему охраны нематериального культурного наследия среди студентов. [5, 289]. В то же время в нашей стране накоплен большой опыт проведения ряда международных фестивалей и научных конференций, связанных с исследованием и популяризацией искусства сказительницы.

Развитие сказительниц в более поздние периоды характеризуется дифференциацией его исполнения и творческих методов. При частичном сохранении его ранней зарождающе-молитвенной черты появились новые аспекты в пении произведений со светскими мотивами, участия в свадьбах, траурах и других семейных обрядах.

Потому что изменения, происходившие в общественно-политической, экономической и культурной жизни на протяжении веков, затронули различные формы духовных ценностей, в том числе сущность, сферу практики, условия выполнения тех или иных идейно-эстетических задач. Ведь образ жизни искусства сказительниц меняется с определенными идеями и взглядами и способами исполнения в соответствии с требованиями новых эстетических требований в связи со временем и потребностями людей, что является одной из его характеристик, показывающих его жизненная сила.

Поэтому требуется поддерживать необходимые бытовые и социальные условия для исполнения искусства сказительницы в живом исполнении и его творческого характера. Это общая характеристика традиционных фольклорных жанров, важное условие их существования и создания в традиции живого исполнительства [6, 71-72]. Эта особенность также связана с сказительниц. Потому что все развитие этого искусства, постепенность по его природе показывает, что происходил процесс самостоятельного исполнения и художественного творчества от устного и книжного декламации. В результате сказительниц все более приближался к системе народного творчества, занимал место в его структуре, а к этому искусству добавлялись традиции творчества, пения и исполнительства.

Наблюдения за этапами развития традиции халфа и жилыми пространствами в живом исполнении показывают, что эта традиция существует не только в нынешней Хорезмской области, но и в регионах проживания узбеков, проживающих в Ташхувузском районе Туркменистана и южных и частично северная часть Каракалпакстана, примыкающая к оазисному региону. Естественно, изменения в общественной жизни коснулись и художественных традиций и народного творчества, а распространение и развитие сказительницы-халфы в этих регионах происходило на разных уровнях в зависимости от местных обрядов и обычаев.

Важно то, что и сегодня традиция сказительницы-халфы обновляющаяся и развивающаяся, живет как составная часть народного художественного творчества. Эта ситуация определенно определяется творческой природой сказительницы-халфа и поэтапным характером, объясняемым художественно-эстетическими потребностями времени. Такие характеристики требуют научного изучения, выявления конкретных творческих центров и местных особенностей культуры Халфа.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017-йил 7-февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бойича, ҳаракатлар стратегияси тўғрисида” ги ПФ-4947-сон Фармон. www.lex.uz.
2. Мирзиёев Ш.М. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир // Ўзбекистон ижодкор зиёлилари вакиллари билан учрашувдаги маърузаси. Халқ сўзи. 2017-йил 4-август.
3. Жирмунский В.М., Зарифов Х.Т. Узбекский народный героический эпос. – М.: ГИХЛ, 1947. 12. Померенцева Э.В., Чистов К.В. Русская фольклорная проза и межэтнические процессы // Отражение межэтнических процессов в устной прозе. – М.: Наука, 1979.
4. Маматқосимов Ж.А. Касб-хунар таълимида номоддий маданий меросни муҳофаза қилиш тизимини такомиллаштиришнинг ҳуқуқий асослари // Маданият чорраҳалари электрон журнали. Тошкент: 2019. № 2.
5. Mamatqosimov J.A. Opportunities for Promoting Intangible Cultural Heritage Protection in the Course of Mother Language and Literature at Professional Colleges // Central Asian Problems of Modern Science and Education, 2019. № 5. – Pp. 288-293.
6. Суханов И.В. Обычаи, традиции и преемственность поколений. – М.: Наука, 1976.
7. Мирзаев Т. Фолклор ижодкорлари ва ижрочилари // Ўзбек фолклори очерклари. - Т.: Фан, 1988. – Т.1.
8. Ожиза. Шеър ва дostonлар. – Т.: Фан, 1986.
9. Оллаберганаева С.Х. Халфалар ижодининг оъзбек фолклоридаги оърни: Дис. ... фил.фан.ном. – Тошкент: А.Навоий номидаги Тил ва адабиёт институти, 2007. – 135 б.
10. Раззоков Х., Мирзаев Т., Собиров О., Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки постик ижоди. - Т.: Ўқитувчи, 1980. -Б.194.
11. Саримсоқов Б. Маросим фолклори // Ўзбек фолклори очерклари. -Т.: Фан, 1986.
12. Хоразм халқ кўшиқлари. – Т.: Фан, 1965.

УЎК 94.5

ҚАСИМ АВЕЗОВ ҚОРАҚАЛПОҒИСТОННИНГ БУТУН РОССИЯ РСФСР МАРКАЗИЙ ИЖРОИЯ ҚЎМИТАСИ ПРЕЗИДИУМИ ҲУЗУРИДАГИ ДОИМИЙ ВАКИЛИ

Г.З. Матсалаева, таянч докторант, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус

Аннотация. Ушбу мақолада Қасим Аезовнинг Қорақалпоғистоннинг Бутун Россия РСФСР Марказий Ижроия қўмитаси Президиуми ҳузуридаги доимий вакили бўлгани ва бу вақтда унинг амалга оширган ишлари бойон қилинган. Жумладан: 1921-1931 йиллар Қасим Аезов учун давлат ишидаги шиддатли ва етук йиллар бўлганлиги, Чимбой шаҳридан бошлаб Тўрткўл, Қизилўрда, Москва шаҳарларида бошқарув мактабларида муваффақиятли ишлаб, Қорақалпоғистоннинг таниқли давлат фаоли бўлганлиги, халқ маорифида саводсизликни камайтириб, давлатчиликни тиклашга катта ҳисса қўшганлиги ёритилган.

Калит сўзлари: РСФСР, мухтор вилоят, Халқ Комиссарлари Совети, совхоз, Орол давлат балиқ трести, саноат.

Аннотация. В данной статье рассказывается о постоянном представителе Каракалпакстана Касыма Аезова при Президиуме ЦИК ВЦИК и его работе в этот период. Например: 1921-1931 годы были для Касима Аезова насыщенными и зрелыми в общественных делах, он успешно работал в управленческих школах городов Чимбой, Торткол, Кызылора, Москва, стал известным государственным деятелем Каракалпакстана, ликвидировал неграмотность в обществе, снизил получил образование и внес большой вклад в восстановление государственности.

Ключевые слова: РСФСР, автономная область, Совет Народных Комиссаров, совхоз, Арольский государственный рыбный трест, промышленность

Abstract. This article describes the fact that Qasim Avezov was the permanent representative of Karakalpakstan at the Presidium of the Central Executive Committee of the All-Russian RSFSR,

and the work he did during this time. For example: 1921-1931 were intense and mature years in public affairs for Qasim Avezov, he successfully worked in administration schools in the cities of Chimboy, Tortkol, Kyzylora, Moscow, became a well-known state activist of Karakalpakstan, reduced illiteracy in public education and made a great contribution to the restoration of statehood.

Keywords: RSFSR, autonomous region, Soviet of People's Commissars, state farm, Arol state fish trust, industry.

1930-йил 20-июлда Бутун Худудий Марказий Ижроия Кўмитаси Президиуми Қорақалпоғистон Мухтор вилоятини Қозоғистон таркибидан чиқариш ва уни РСФСР Марказий органларининг бевосита бошқарувиға ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилди. Ушбу қарор 1930-йил октябр ойида Қозоғистон Марказий Ижроия кўмитасининг 3-сессиясида ва ўша йилнинг декабр ойида Бутун иттифоқнинг Марказий ижроия кўмитасининг 14-чақириқ 3-сессиясида тасдиқланган ва 1930-йил декабрдан ҚАССР РСФСР таркибига кирди.

1930-йил 20-июлда Москвада РСФСР Марказий ижроия кўмитаси Президиуми ёнида Қорақалпоғистон ҳукуматининг доимий идораси очилди. Қасим Аvezов 1930-йил октябрдан 1931-йил июнгача Россия Федератсияси Бутунроссия Марказий ижроия кўмитаси Президиумида Қорақалпоғистон мухтор вилоятининг доимий вакили бўлиб ишлади. Бу даврда Қорақалпоғистон ҳукуматини Коптилев Нурмухаммедов бошқарган.

1931-йилда Қ.Аvezовнинг бевосита иштирокида Москвада “Марказ” нашриётининг Қорақалпоғистон бўлими ташкил этилди. Унинг кучли полиграфик базаси бор эди, бу миллий мактаблар учун дарсликларни белгилаш ва уларни ўз вақтида чоп этишга ёрдам берди. Қ.Аvezов тавсияси билан “Марказ” нашриёти 1931-йил лойиҳаси учун қорақалпоқ бўлими га 80 та муаллиф жилдини (400 та босма нашриёт) ажратди. Москва шаҳрида қорақалпоқ тилида 49 та нашриёт ҳажмида 34,5 минг дона рисола ва барча турдаги китоблар, “Шарқ халқлари” нашриёти ёрдамида 34,5 минг нусха турли рисола ва китоблар, шу жумладан, 7 жилд ўқув материаллари ва 16 жилдли китоблар чоп этилди.

1931-йил 18-мартда РСФСР Халқ таълими комиссарлигида кенгаш бўлди. Бу йиғилишда Қ.Аvezов бошчилигида Қорақалпоғистон мухтор вилояти вакиллари иштирок этди. Кенгашда мактаб, техникум ва устахоналарда миллат вакиллари учун ўринлар ажратиш масаласи хал этилди. Шунинг учун Қ.Аvezов бошчилигидаги қорақалпоқ вакиллари РСФСР ер ишлари комиссарлиги ва халқ маориф комиссарлиги техникумлари ва бошқа ўқув юртларига ўринларни жойлаштириш учун аризалар топширдилар. Вятск ветеринария зоотехвуз - 3 ўрин, Москва ер тузиш институти - 3 ўрин, Ленинград педагогика институти - 3 ўрин, Қозон Шарқ педагогика институти - 2 ўрин. Бундан ташқари, у комиссариятнинг ер ишлари, пахтачилик ва мелиоратсия техникумларига 6 та ўрин сўраган.

1931-йил 30-мартда Қ.Аvezов Қорақалпоғистон Мухтор вилояти халқ маориф бўлимига телеграмма йўллаб, унда шундай дейилади: 1931-1932 ўқув йилида тегишли ўқув юртларига ўқишга қабул қилиш учун аризалар юборилсин, баҳорги қабул халқ таълими комиссарига хабар берилди. Сизга Москвадаги ер тузиш, Плеханов ва Вятск ветеринария институтларида учта жой ажратилди. “Фавкулудда одамларни тартиб билан юборинг” [1]. Ўша йилларда Қ.Аvezовнинг илтимосига кўра РСФСР ҳукумати республикага тажрибали ходимлар, муҳандислар, агрономларни юборди. Қорақалпоғистон мухтор вилоятида кадрлар муаммосини хал этиш мақсадида Қ.Аvezов таълим муассасалари ўқувчилари билан шартнома тузди. 1931-йилда Москва қишлоқ хўжалиги институти ўқитувчиси бўлган З.Ф.Мансуров ва П.Д.Кладов Қорақалпоғистонга ишга юборилади. 1931-йил июн ойида Ленинград қишлоқ хўжалиги институти ўқитувчиси бўлган яна учта мутахассис: Т.М.Докидовский, И.Демедов, Г.В.Ларин Қорақалпоғистон мухтор вилоятига юборилди.

Қ.Аvezов мутахассисларни жўнатибгина қолмай, халқ хўжалиги эҳтиёжлари учун ҳар хил асбоб-ускуналар ва жиҳозларни етказиб бериш билан ҳам ёрдам берган. 1930-1931-йилларда Қорақалпоғистон мухтор вилоятига асбоб-ускуналар: плуглар, тирмалар, пахтачилик сеялкалари, култиваторлар, насослар ва бошқа уй жиҳозлари келтирилди. Шу йилларда Қасим Аvezов Қорақалпоғистон автоном вилояти учун СССР ер ишлари бўйича халқ

комиссарлигидан 150 трактор, 65 енгил, 60 юк, 5 енгил автомобил Қорақалпоғистонга жўнатишни илтимос қилиб хат йўллади [2].

1931-йил 1-августда Қорақалпоғистон ҳукумати Россия Федератсияси ҳукумати муҳокамасига “Ўлканинг иқтисодий ва маданий ривожланиши тўғрисида” ги масала киритди. Қасим Авезов баёноти асосида, Россия Федератсияси ХКК 42 банддан иборат қарор қабул қилган. Мазкур қарорда Қорақалпоғистон иқтисодиёти ва маданиятини юксалтиришнинг биринчи устувор масалалари инobatга олинди [3]. 1932-йил 11-майда Москвада РСФСР Бутун Марказий Ижроия Қўмитаси (ПОАК) ХКК “ҚАССР Давлат тузилиши тўғрисида” ги низомни тасдиқлаш тўғрисида қарор қабул қилди. Қарорда Қорақалпоғистоннинг иқтисодий ва маданий ривожланиши ҳолати РСФСРнинг бошқа автоном республикаларидан орқада қолаётгани кўрсатилди. Дарҳақиқат, бу йилларда кишлок хўжалигининг техник базаси паст эди.

Хўжели-Қўнғирот сув округида юзлаб кузатиш ишлари тўлиқ бажарилмаган. Фақат Ханжап канали қайта қурилди. Бу ариқ собиқ Ханжап, Ўғизжап ва бошқа кичик ариқларни бирлаштириб, 9500 гектар ерни суғориш имконини берди.

Бу йилларда Қорақалпоғистоннинг жанубий вилоятларида сув танқислиги юзага келди, чунки магистрал Шорахон канали оғзидан сув оқими барқарор бўлмаган, дарёнинг чўкиши бошқа вилоятларга қараганда тез-тез содир бўлган. Шу боис Шўраҳон канали ва унинг янги оғзини қуриш ишлари бошланди. Унда Тўрткўл сув округининг 12 кишлоғидан 9 минг нафар қазувчи қатнашиб, Тошсағадан янги шлюз қуриб, каналнинг ўзини кенгайтириб, қазиш ишларини якунлади [4].

Сув тармоқлари аввалги ҳолатда эди. Бу вақтда Қорақалпоғистонда чиғир ёрдамида суғориш кенг тарқалган эди. Бу йилларда мухтор вилоятда 13780 ишчи меҳнат қилди. Унинг ишида Тўрткўл сув округида 9518 га, Чимбой туманида 1938 га майдонда 1452 га, Хўжали ва Қўнғирот туманларида 1209 га суғориш тизимидан фойдаланилган. Қорақалпоғистонда чиғирнинг энг кўп тарқалган ери Тўрткўл, Шаббаз (Беруний), Қипшак (Амударё) ва Хўжели округлари эди. Халқнинг ҳукумат сиёсатидан норозилиги ҳам кучайди. Қарорда техник экинлар (пахта, беда) етиштириш, Қорақалпоғистонни ривожлантириш, Қорақалпоғистонда балиқчилик хўжалиги қуриш зарурлиги кўрсатилган. Бундан ташқари, суғориладиган ерлар майдонини 120 минг гектарга етказиш мақсадида Чимбой сув тармоғини кенгайтириш, илмий-тадқиқот ишларини олиб бориш, пахта тозалаш заводи қуриш, трактор парки қувватини ошириш, пахта экиладиган майдонларни 35 минг гектарга етказиш, чорва хўжалиқларини ўтирикчиликка кўчириш бўйича топшириқлар берилди [5].

Пахтачиликнинг ривожланиши вилоятнинг шимолий туманларида пахта тозалаш заводини қуришни тақозо этди. Чимбойда янги қурилган пахта тозалаш заводи 1931-йилнинг ноябр ойида ишга туширилиб, маҳсулот ишлаб чиқара бошлади. 1931-йилда Чимбой пахта заводи бир ойда 288 тонна пахта тозолаган.

СССР Халқ Комиссарлари Советининг 1931-йил 16 июндаги “Консерва саноати тўғрисида” ги қарорига асосан 1933-йилда Мўйноқда йилига 10 миллион кути консерва ишлаб чиқарадиган йирик консерва заводи қурилди.

1930-йил 29 февралда Ленинграддан 5 нафар ишчи, Репинский, Горшков, Бактурин ва бошқалар келди. Улар Тўрткўл, Сарибий, Шабобозод, Наархон ва Хожелида жойлашган, кишлок хўжалиги асбобларини (плуг, сеялка ва бошқалар) та’мирлайди. Шу йилларда Қорақалпоғистонга 25-мингчилар ҳисобида агрономлар жўнатилди. Харьковлик А.Н.Данилов ва Ўрта Волгадан И.Ф. Козлов, Доннан И.Д.Сулов ва бошқа жойлардан Саркайзов, Логинов, Петров, Белоусов, Иванов, Демченко ва бошқалар Қорақалпоғистонга келди.

Булардан ташқари 1930-йилдан кейин Россия Федератсиясидан 22 минг дона европача турдаги қуроллар олиб келинган. Улар пазна, тирма, оқучник, култиватор, тирма ва насослар эди. Шунингдек, суғориш ишлари учун 4 та экскаватор олиб келинди.

“Красний металлист” заводи экскаваторлар учун моторлар олди. Сталинград трактор заводи 16 трактор моторини юборди. Харьков трактор заводи 20 та ер қазиш машинаси, 2 та

экскаватор ва бошқа техникалар юборди. Қорақалпоғистонга техник жихозлар, дастгоҳлар, асбоблар, мебел ва бошқа материаллар келтирилди.

Деҳқонлар трактор ҳайдаш ва таъмирлашга ўргатилган. 1930-йилда Қорақалпоғистонга 30 та трактор келтирилиб, МТСнинг Шаббаздан Халқободгача бўлган автотрактор станциялари такомиллаштирилди.

Қорақалпоғистонда 30-йилларда пахтачилик билан чамбарчас боғлиқ бўлган беда (жонгишқа) саноат ривожланди. Жумладан, қорақалпоқ бедасининг “Чимбой” нави ўша даврда иттифокдаги энг юқори сифатли беда ҳисобланади. Кўпинча экинларни йетиштиришда муҳим рол ўйнайди. Қорақалпоғистонда ВКП (б) Марказий қўмитаси ва СССР Халқ Комиссарлари Советининг “Хоразм воҳасида пахтачилик ва уруғлик бедачиликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги қароридан сўнг пахтачилик ва бедачилик ривожлана бошлади. Қарорда Қорақалпоғистонда 3800 гектар пахта ва беда экин майдонлари чиғир ёрдамида суғоришдан машина билан суғориш усулига ўтказилди. 7 та земнасос ва бошқа техник механизмлар жўнатилди.

Қорақалпоғистонда биринчи қоракўлчилик совхози ташкиллаштирилди. 1931-йилда Қорақалпоғистондаги барча қўйларнинг 20% (120400 бош) давлат секторига олинди. 1932-йилда Қорақалпоғистонда 6020 фермер хўжаликни бирлаштирган 72 та чорвачилик колхозлари ташкил этилди. Уларнинг 16 та қўйчилик, 16 та от фермаси бўлган [6].

1931 йилга келиб Қорақалпоғистонда колхозлар сони 354 тага етди. Унинг фаолиятида 2672 деҳқон хўжалигини ўз ичига олган 55 деҳқон колхозлари ташкил этилган [7]. Аммо илгари тузилган колхозларнинг кучи етарли эмас, кадрлар ва техника етарли эмас эди. Масалан, Хўжели туманидаги “Қизил туў” колхозининг 22 фермер хўжалиги, бор-йўғи 25 гектар кишлок хўжалиги ери бор эди. Мазкур ҳудуддаги “Қурама” колхозининг 20 фермер хўжалиги бўлиб, унинг 75 нафар аъзосидан 22 нафари эркак, 21 нафари хотин-қизлар меҳнатига лаёқатли эди. Бу колхоз пахтачилик билан шуғулланиб, экин майдони 12 гектардан ошмасди [8].

Қорақалпоғистонда илк МТСлар 1930-йилда Шаббаз ва Халқободда ташкил этилган [9]. Шундан кейин 1932-йилда яна 3 та МТС ташкил этилиб, уларнинг сони 5 тага етди [10].

Орол давлат балиқ трести ва Марказий Осиё пароходчилиги ташкиллаштирилди. 1930-йилда Орол давлат балиқ трестининг Мўйноқ ва Ургедда иккита корхонаси, Орол кооператив касб маркази “Балиқчилар уюшмаси” қўшилди ва мустаҳкамланди.

Орол денгизида давлат юк ташиш корхонаси томонидан ташилган юкнинг 30,1 фоизи, хусусий савдогарлар томонидан 40,9 фоизи юкланган [11]. Халқ хўжалиги курилишида муҳим аҳамиятга эга бўлган алоқа ишларига ҳам катта эътибор берилди. 1930-йил 1-октябрьга келиб вилоятда 11 почта-телеграф: 1 почта-телеграф контораси, 4 почта бўлими мавжуд эди. 1 та радиостанция ва 5 та мустақил почта агентлиги мавжуд эди. Почта-телеграф пунктларининг кўп линиялари йуклиги вилоят ҳудудлари ўртасидаги алоқани, почта-телеграф хат ва телеграммаларини етказиб беришни қийинлаштирди. Бу 10 та тумандан фақат учтаси - Чимбой, Хожали ва Қўнғиротда телеграф бор эди. Вилоятнинг тегишли ижроия қўмитаси буни ҳисобга олиб, барча вилоятлар, штат пунктлари ва туманларида телефон ва телеграф тармоқларини қуриш, автоном республиканинг бутун ҳудудида почта-телеграф алоқаларини барқарор таъминлаш тўғрисида қарор қабул қилди.

1930-йил 15-сентябрьдан 1937-йил 18-январгача Тўрткўл, Хўжели, Қўнғирот шаҳарларида мунтазам равишда ярмаркалар ташкил этилиб турди, бу эса хусусий капитални чеклаш билан бирга, совет савдосининг ривожланишига ёрдам берди. Бу йилларда саноат ва курилишни ривожлантириш учун маблағлар ажратилиши кўпайди.

Қорақалпоғистон саноат ишлаб чиқаришида пахта тозалаш саноати етакчи ўринни эгаллайди. Уни ўзлаштиришга 2221,6 минг манат маблағ сарфланди. Бу маблағ асосан Тўрткўл ва Хўжелидаги заводларни реконструкция қилиш ва кенгайтиришга, Чимбойда янги пахта тозалаш заводини қуришга сарфланди. Қорақалпоғистон мухтор вилоятининг йирик саноат корхоналаридан бири Тўрткўл пахта заводи эди. 1928-1932 йилларда бу заводни реконструкция қилиш учун 289 минг манат ажратилган. Агар 1931-1934 йилларда заводда 5 та

пахта тозалаш заводи бўлса, 1935-1937 йилларда уларнинг сони 7 тага етди. 1928-1929 йилларда заводда кунига 51,2 т пахта тозаланган бўлса, 1932-1936 йиллар охирида бу кўрсаткич 85,0 тоннага етди. 1940- йилда завод 5668 минг манатлик маҳсулот ишлаб чиқарди (1926-1927 йиллар нархида) [12].

1931-йил декабрда Қорақалпоғистон саноат кооперативининг 1-сезди бўлиб ўтди ва у саноат саноатини мустақамлашда катта рол ўйнади. Вилоят партияси томонидан кооператив саноат бўйича катта ишлар амалга оширилди. Тегишли артеллар ва уларда ишловчи ташкилотлар сони йилдан-йилга ортиб борди. 1931-йилда 55 та саноат артели бўлиб, уларда 1924 киши, 4 та транспорт артелида 1929 киши, 12 та турли артелларда 1562 киши меҳнат қилди [13].

Қорақалпоғистонда ҳаво йўллари узунлиги 1931-йилдаги 41545 км дан 1942-йилда 125190 км га ёки 3 баробарга кўпайди. 1931-1932-йилларда ҳавода йўловчи ташиш 6 баробарга, юк ташиш эса қарийб 5 баробарга ошди [14]. Автомобиллар ва самолётларнинг пайдо бўлиши туфайли Қорақалпоғистонда барча транспорт турларидан юк ташиш ҳажми 85,5 минг тоннагача ошди. Биринчи беш йилликда Қорақалпоғистонда ҳам алоқа яхшиланди. 1930-йилда олдиндан сақланган Ўрта Осиё ма'мурияти ташкил этилиб, ўнлаб туман алоқа бўлимлари, уларнинг негизида Ўрта Осиё иқтисодий кенгаши Халқ Комиссарлигининг почта-телеграф бўлими ташкил этилди. Қорақалпоғистонда ҳам алоқа бўлими ташкил этилди. 1929 йилда радиоэшиттиришни амалга ошириш учун Ўрта Осиё радио жамияти тузилди [15].

1930-йилнинг ёзида у Қорақалпоғистонда илмий-тадқиқот ишлари олиб бориб, муҳандис Мягков раҳбарлигида иккита фосфорит кони очилди. Уларнинг ҳар бирида 4662 минг тоннадан захира мавжуд. У Султан Уайис тоғининг шарқий қисмида, иккинчиси эса Хўжели туманида 840 минг тонна захира билан топилган.

1931-йилда геокимёвий экспедитсия Қизилқумдан тобора кўпроқ қимматли материаллар тўплади. Қорақалпоғистонда тадқиқот олиб борган атоқли олим-геологлар – А. Э. Ферсман, А. Н. Чистяков, А. Ф. Соседко ва бошқа олимлар тальк, фосфорит, гипс, мрамор, оҳак ва бошқа фойдали қазилмалар олиндиган бой жойлар мавжудлигини аниқладилар.

1930-йил 9-февралда Қозоғистон округ кўмитаси 300 та фермер хўжалигини кўчириш ва мусодара қилиш учун белгилади. 1930-йил март ойида Қорақалпоғистон Мухтор Вилояти Ижроия Кўмитаси 298 та хўжаликни Қорақалпоғистон вилояти ва Қозоғистоннинг Ақтўбе туманига беришни амалга оширди. “Бойлар ва ярим феодаллар” гуруҳига низомлар талабига риоя қилган ҳолда атиги 9 десятина ерга эга бўлган хўжаликлар киритилган. Бундан ташқари, 1930-йил 1 январдан 1937-йил майгача 147 киши отиб кетилган, 29 киши сургун қилинган.

1930-йил январ ойида Қорақалпоғистонда барча хўжаликларнинг 12,5 фоизи колхозларга бирлаштирилди, апрелда эса бу кўрсаткич 52 фоизга етди. Қипчоқ туманида 20 та, Чимбойда 71 та, Тамди ва Хўжели туманларида 100% жамоа хўжалиги колхозлаштирилди. Дехқонлар колхозларга қуролланган милитсия кучи билан киргизилган, қарши чиққанларни ҳибсга олишлари ва колхозларга оғир солиқлар киритишлари билан таҳдид қилишди. Бироқ, бундай зўравонлик натижасида яратилган колхозларнинг ҳаёти қисқа умр кўрди. Унинг парчаланишига кўп вақт керак бўлмади. Қорақалпоғистонда 62 та колхоз тарқатиб юборилди. "100 фоиз колхозлаштирилган" Хожели вилоятида атиги 33 та колхоз қолган бўлиб, улар умумий фермер хўжаликларининг 18,9 фоизини ташкил этди, 740 нафар фермер колхозларни тарқ этди. Вилоятда 12079 фермер хўжалигини бирлаштирган бор-йўғи 210 та жамоа хўжалиги мавжуд. Қишлоқдаги болшевиклар сиёсати фуқароларни Қорақалпоғистондан кўчиб кетишга мажбур қилди. Фақат 1931-йилнинг феврал-март ойларида Туркменистон ва Хоразм вилоятига Қипчоқ туманидан 680 хонадон, Чимбой туманидан 460 хонадон, Тамди туманидан 263 хонадон кўчиб кетди [16].

1921-1931 йиллар Қасим Авезов учун давлат ишидаги шиддатли ва етук йиллар бўлди. Чимбой шаҳридан бошлаб Тўрткўл, Қизилўрда, Москва шаҳарларида бошқарув мактабларини муваффақиятли ўтаб, Қорақалпоғистоннинг таниқли давлат фаоли бўлди. У халқ маорифида саводсизлик камайтириб, давлатчиликни тиклашга катта ҳисса қўшди.

Қасим Аvezов Қорақалпоғистон Республикаси тарихида, халқ хотирасида чуқур из қолдирган юртдошимиз эди. У номи жонажон юртимиз тарихи саҳифаларига зарҳал сиёҳ билан ёзилиши лозим бўлган қорақалпоқ халқининг ҳурматиға муносиб инсон эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Қарақалпоқстан Республикасы орайлық мәмлекетлик архиви, 12-фон, 1-руйхат, 1159-ис, 78-қағаз.
2. Сарыбаев М. Хлопководство после образования Каракалпакской Автономной области. //Вестник ККОАНРУз, Нукус, 1998, №1. 45-б.
3. Камалов С., Есбергенов Х. О государственной и общественной деятельности К. Нурмухаммедова. //Вестник ККОАНРУз, 1993, № 3, с. 122–125.
4. Сарыбаев К. Очерки истории орошения в Каракалпакии, Н. Каракалпакстан, 1976. с. 113.
5. Алкин И. Средняя Азия, Экономико-географический очерк Каракалпакии, Киргизии, Туркмении, Таджикистана и Узбекистана. М. 1931. Ч. 1. 56-б.
6. Сарыбаев К. История орошения Каракалпакстана, Нукус, 1995. 111-б.
7. Экономическое преобразование Каракалпакии за годы Советской власти. Н. 1969. с. 243.
8. Бекимбаев А. Кооперативлик хожалықтың Қарақалпакстанда иске асыўы тарийхынан. Нөкис, 1975. 9-б.
9. Сарыбаев К. Истории орошения в Каракалпакстане с конца XIX века до наших дней. Н. 1995. с. 109
10. Экономическое преобразование Каракалпакии за годы Советской власти. Н. 1969. с. 201.
11. Бекманов А. Капитальное строительство в Каракалпакстана и индустриальные рельсы, Нукус, изд-во «Каракалпакстан», 1970. с. 196.
12. Ахунжонов Л. М. Становление и развитие национальной государственности в Каракалпакстане. Автореф. дисс. на соискание ученой степени доктора юридических наук, Ташкент, 1993. с. 18.
13. Экономическое преобразование Каракалпакии за годы Советской власти. Н. 1969. с. 116.
14. Уббиниязов ДЖ. От кустарины до современный промышленности. Н. 1972. с. 257.
15. Рзаев К., Медетуллаев Ж. Развитие экономики Каракалпакстана за пятьдесят лет (1924–1974). Н. 1974. с. 156.
16. Букейханов Г. Сельское хозяйство Каракалпакской области//Народное хозяйство Казахстана. 1928, № 11/12. 45-б.
17. Aitmuratov J., Utegenov X., Elmuratov I., Yusupov A., Aitmuratova J. The aral sea problem in the views of our poets. 湖南大学学报 (自然科学版). 2021. Volume 48. Issue 12.
18. Кошанов Б., Отегенов ХМ. Очерки истории Каракалпакстана. 2021. Р. 155.

УЎК 94(575.1)

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА АМАЛГА ОШИРГАН ХАЛҚАРО ТУРИЗМ СОҲАСИДАГИ СИЁСАТИ

Қ.А.Матҳолиқов, т.ф.н., доц.в.б., Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент

Аннотация. Мақолада совет ҳокимиятининг Ўзбекистонда амалга оширган халқаро туризм соҳасидаги сиёсати, халқаро туризм инфратузилмасининг ташиқил этилиши, унинг тузилиши ва вазифалари, соҳада амалга оширилган чора тадбирлар ҳуқуқий-меъёрий ҳужжатлар асосида ёритилган.

Ўзбекистондаги туризм салоҳияти инобатга олинмагани, совет ҳокимиятининг халқаро туризмдан келадиган катта фойдадан кўра, коммунистик мафкурага бўйсундирилган тарғибот ишларини олиб боришига, совет кишиларининг фаровон турмуш тарзини, хўжалик соҳасида эришаётган ютуқларини намойиш қилишига қаратгани архив ҳужжатлари ёрдамида асосланган.

Калит сўзлар: халқаро туризм, хорижий турист, қабул қилиш ва хизмат кўрсатиш, тарғибот ва ташиқот ишларининг сиёсий самарадорлиги, маданий мерос объектлари, хўжалик ҳисоби.

Аннотация. В статье на основе нормативно-правовых документов освещается политика советского правительства в Узбекистане в сфере международного туризма, организация инфраструктуры международного туризма, ее структура и задачи, а также меры, реализованные в этой области. С помощью архивных документов было обосновано, что советское правительство предпочло проводить пропагандистскую работу, подчиненную коммунистической идеологии, демонстрируя зажиточный образ жизни советского человека, достижения в области сельского хозяйства, чем получать большие выгоды от международного туризма, не учитывая туристический потенциал Узбекистаны.

Ключевые слова: Ключевые слова: международный туризм, иностранный турист, прием и обслуживание, политическая эффективность агитационно-пропагандистской работы, объекты культурного наследия, хозяйственный расчёт.

Abstract. The article highlights the policy of the Soviet government in Uzbekistan in the field of international tourism, the organization of the international tourism infrastructure, its structure and tasks, as well as measures implemented in this area on the basis of normative legal documents. With the help of archival documents, it was proved that the Soviet government preferred to carry out propaganda work subordinated to the communist ideology, demonstrating the prosperous lifestyle of a Soviet person, achievements in the field of agriculture, rather than receiving great benefits from international tourism, not taking into account the tourist potential of the Uzbekistan.

Keywords: international tourism, foreign tourist, reception and service, political effectiveness of propaganda work, cultural heritage sites, economic calculation.

Кириш. Сўнги йилларда халқаро туризм экспорт ҳажми бўйича ёқилги, химия саноатидан кейин учинчи ўринни эгаллаб келмоқда. Бирлашган миллатлар Ташкилотининг Бутунжаҳон туризм қўмитаси (БМБТТ) маълумотларига қараганда 2019 йилда бутун дунёда туристлар сони 1 млрд. 460 млн.ни, умумий даромад эса 1,481 млрд долларни ташкил қилган. Олинган даромаднинг 51% Европага тўғри келган. Ўзбекистонга эса 6 млн. 749 минг турист ташриф буюрган ва умумий даромад 1 млн, 481 минг АҚШ долларини ташкил қилди[1]. COVID-19 пандемияси сабабли халқаро катновларнинг чегараланиши халқаро туризмга ҳам салбий таъсир кўрсатди. Туристларнинг сони 2020 йилда 407 млн.га, 2021 йилда 456 млнга, 2022 йилда 963 млн.га камайди[2]. 2023 йилга келиб туристларнинг сони 1 млрд. 286 млн.га етган бўлсада, бу кўрсаткич 2019 йилга нисбатан 88% ташкил қилди. Юқоридаги маълумотлар халқаро туристларнинг сони ва олинган даромад 2019 йилги даражани тикланмаганлигини кўрсатади. Туризмнинг ривожланишида унинг ресурсларидан унумли фойдаланиш, тарихий тажрибаларини таҳлил қилган ҳолда тажрибаларни умумлаштириш, мавжуд бўшлиқларни тўлдириш, тегишли қарорлар қабул қилиш алоҳида аҳамиятга эга. Бугунги кунда туризм, жумладан халқаро туризмнинг вужудга келиши муаммоларига илмий ёндашув нафақат ватанимиз, балки жаҳон тарихи фанида катта эътибор берилмоқда. Айниқса, жаҳон цивилизация бешиклари марказида жойлашган халқларнинг маданий мероси ва ўзига хос хусусиятларига бўлган қизиқиш ортиб бормоқда. Зеро, Ўзбекистон жуда катта туризм ва рекреация имкониятига эга, унда жами 7,4 минг маданий мерос объектлари мавжуд.

Туризмни шаклланиши тарихи жумладан, халқаро туризм тарихи совет даври олимларидан М.А.Ананьев, Ю.Соколов, П.Н.Зачиняев, В.В.Дворниченко, М.Э.Немоляева, М.Джавхаров, Г.П.Долженколар томонидан халқаро туризм асослари, шаклланиши ва ривожланишининг назариялари ишлаб чиқилган [1]. Совет ҳокимияти давридаги халқаро туризмнинг шаклланиши ижтимоий соҳа вакиллари, жумладан тарихчиларнинг назаридан четда қолган.

Таҳлил. Маълумки, туризмнинг ривожланиши унинг имкониятларидан оқилона ва самарали фойдаланилишга ҳамда бу борада олиб борилаётган давлат сиёсатига боғлиқ. Иттифок таркибида бўлган Ўзбекистонинг узоқ йиллар давомида ушбу соҳадаги ҳуқуқлари чекланиб, Марказ кўрсатмаларига асосан иш олиб борилган. Ўзбекистон собиқ иттифок даврида барча соҳалар қатори туризм ҳам мустабид тузум асосида амалга оширилиб, туризм имкониятларидан ўз ихтиёри билан фойдаланиш имкониятига эга эмас эди. Туризм соҳасидаги фаолият “марказ” томонидан амалга оширилар ва қатъий назоратга олинар эди. Ўзбекистонда халқаро туризм билан шуғулланувчи ташкилотларнинг вужудга келиши ХХ асрнинг 30 йилларида собиқ Иттифокда амалга оширилган сиёсий жараёнлар билан боғлиқ.

1929 йил апрелда хорижий фуқароларни қабул қилишини тартиб солиш мақсадида Мехнат ва мудофаа Кенгаши қарори билан “Интурист” Бутун иттифок давлат акционерлик жамияти ташкил этилди. Унинг бошқарув аппарати:

1.Иш юритиш, кенгаш қарорларининг бажарилишини назорат қилиш ва текшириш, ҳуқуқий маслаҳат ва ишга қабул қилиш, Иттифокда ва хорижда филиаллар ишини ташкил

этиш, хўжалик ишларини бошқариш, жамиятнинг беш йиллик иш режасини тузиш ва йиллик кўрсаткичларни назорат қилиш ишлари билан шуғулланувчи – Маъмурий ташкилий бўлим;

2. Жамиятни молиялаштириш ва банклар билан боғлиқ барча масалаларни ҳал қилиш, молиявий режа, сметаларни тузиш ва уларнинг бажарилишини назорат қилиш, бошқарма ва унинг филиаллар бўйича ҳисоботларни юритиш, шунингдек, шартнома тузувчи тарафлар билан ҳисоб-китобларни амалга оширувчи - Молия-бухгалтерия бўлими.:

3. Жамиятнинг хорижий бўлимлари ишига раҳбарлик қилиш, туристик йўналишлар ва тарифларни ишлаб чиқиш, хорижий туристик ва транспорт компаниялари, хориждаги жамоат ташкилотлари билан музокаралар олиб бориш ва шартномалар тузиш, хорижий туристларни қабул қилиш ва СССР ва чет элда туризм рекламасини ташкил этиш бўйича тайёргарлик ишларини олиб борувчи - Хорижий бўлим;

4. Чет эллик туристларга хизмат кўрсатишни ташкил этиш (шу жумладан виза масалаларини ҳал қилиш), ходимлар учун махсус ўқув курсларини ўтказиш ва турли ташкилотлар билан музокаралар олиб борувчи - Хизмат кўрсатиш бўлими;

5. Туризм моддий базани яратиш учун қурилиш ва таъмирлаш режаларини белгилаш, автотранспорт воситаларини ташкил этиш ва хорижий туристлар учун махсус дўконлар ташкил этиш билан шуғулланувчи -Техник бўлим;

6. Туристларга транспорт хизмати кўрсатишни ташкил этиш ва туристик ҳужжатлар (саёҳат учун билет, ваучер, ва б.) бланкасини сақлаш ва расмийлаштириш билан шуғулланувчи - Транспорт бўлиmidан иборат бўлган[3].

Жамият бутун Иттифоқда ягона бўлган халқаро туризм фаолияти билан шуғулланувчи – монопол ташкилот сифатида фаолият олиб борди. Қисқа вақт ичида хорижда 17 та, Иттифоқнинг 33 та шаҳрида марказлар ташкил қилди[4].

XX асрнинг 50-йиллари охиридан бошлаб халқаро кескинликни юмшатиш ва мамлакатлар ўртасидаги маданий ва иқтисодий алоқаларни ривожлантириш шароитида халқаро сайёҳлик алоқалари кенгайди.

Ўзбекистон Коммунистик партияси Марказий комитети ва ЎзССР Министрлар кенгашининг 1964 йил 13 июндаги 358-30 сонли қарори билан ЎзССР Министрлар кенгаши қошида Хорижий туризм бошқармаси ташкил этилди. Унинг асосий вазифаси хорижий сайёҳларни қабул қилиш ва уларга хизмат кўрсатиш; Ўзбекистонда хорижий туризм рекламасини ва хорижда совет туризм рекламасини амалга оширишдан иборат – деб белгиланган[5]. Ташкилот ўз фаолиятида ЎзССР Министрлар Совети ва СССР хорижий туризм бўйича Давлат комитети бўйсунган. Асосий эътибор хорижий туристлар орасида Совет Иттифоқининг давлат, хўжалик ва маданий қурилиш соҳасидаги, совет халқи фаровонлигининг барқарор ўсиши кенг ёйишни таъминлашга қаратилган[6].

Архив ҳужжатларидан маълум бўладикки, хорижий туризм билан шуғулланувчи ташкилотни ЎзССР Министрлар кенгашига ўтказишдан сиёсий мақсадларда фойдаланиш яъни, социалистик тузумнинг ютуқларни намойиш этиш ва тарғиб қилиш бўлганини кўриш мумкин. Расмий ҳисоботларда ахборот-тарғибот ишларининг сиёсий самарадорлигига алоҳида урғу берилганлиги кўзга ташланади. Аввало бунинг учун гид-таржимонларга махсус курслар ташкил этилиб, “Совет ҳаёт тарзини ўзига хос жиҳатларини тарғиб қилишнинг усуллари ва шакллари”, “Ахборот ва тарғибот самарадорлиги муаммолари”, “Хозирги босқичдаги ғоявий қурашлар” каби мавзуларда маърузалар ўтилган[7]. Архив ҳужжатлари бундай маърузалар мамлакатга ташриф буюрган хорижий сайёҳлар ўртасида ҳам ўтказилгани ҳақида маълумот беради.

1983 йилнинг 27 октябрида ЎзССР Олий Кенгаши Президиуми фармони билан Хорижий туризм бошқармаси - Хорижий туризм Бош бошқармасига айлантирилди. Бош бошқармага айлантирилиши билан Ўзбекистоннинг халқаро туризм имконияти ҳисобга олина бошланди. Унинг низомига “...тарихий ёдгорликлар билан танишишни кенг ёйиш..., республиканинг туристик салоҳиятидан максимал даражада фойдаланиш вазифалари юклатилди[8]. Бунинг натижасида туристлар учун туристик маршрутлар сони ҳам кўпайтирилиб, халқаро туризм географияси ҳам кенгайди[9].

Совет ҳокимиятининг сўнгги йилларидаги “ошкоралик” ва “қайта қуриш сиёсати” туфайли халқаро туризм соҳасидаги мавжуд муаммолар тан олинди. Ўзбекистон ССР Министрлар кенгашининг 1987 йил 28 майдаги қарорида Республика 1 млн. хорижий туристларга хизмат кўрсатгани таъкидланади. Бирок, Хорижий туризм бўйича СССР давлат комитетининг республикадаги бўлими хизмат кўрсатиш соҳасидаги камчиликларни бартараф қилишда сусткашлик қилаётгани, кўп ҳолларда хизмат кўрсатувчи ходимларга эътиборсиз ва кўпол муносабат бўлинаётгани, кўшимча хизматларни кенгайтиришга эътиборсиз қаралаётгани умуман олганда Бош бошқарманинг иш усули ва услуби замонга мос эмаслиги кўрсатиб ўтилади. Бош бошқармага жорий йилнинг 1 июлигача хорижий туристларни қабул қилиш ва хизмат кўрсатиш фаолиятини танқидий ўрганиб, йўналишлар бўйича аниқ тадбирлар ишлаб чиқиш топширилади. Қарорда соҳадаги асосий ўзгариш: Бош бошқармани тўлиқ хўжалик ҳисобига, валюта ва ўз ўзини молиявий таъминлашга ўтказишга амалий ёрдам кўрсатиш ҳисобланади. Шу тариқа Бош бошқарма Ўзбекистон Коммунистик партияси Марказий комитети ва ЎзССР Министрлар Советининг 1988 йил 26 июндаги қарори билан тугатилиб, ЎзССР Олий Кенгашининг 1989 йил 20 октябрдаги қарори билан Олий кенгаш қошида республика хўжалик ҳисобидаги (СССР Хорижий туризм бошқармаси 1987 йил 5 мартда тўлиқ хўжалик ҳисобига ўтказилган) “Сайёҳинтур” бирлашмаси ташкил этилди. Бирлашма 1992 йил 27 июль “Ўзбектуризм” миллий компанияси ташкил этилгунга қадар фаолият юритди.

Хулоса қилиб айтганда, Совет ҳокимияти даврида халқаро туризм Хорижий фуқароларни қабул қилиш ва уларга хизмат кўрсатиш мақсади ташкил этилган Бутуниттифок хорижий туризм давлат акционерлик жамияти бу борадаги давлат сиёсатини амалга оширилишни таъминлади.

Иттифокдош республикалар халқаро туризм борасидаги фаолиятида ҳуқуқ ва эркинликларининг мавжуд эмаслиги, уни фақатгина “марказ” томонидан амалга оширилиши, халқаро алоқаларда мафқуравий чегара ва фуқароларга молиявий чекловларнинг ўрнатилиши туризмни ривожлантиришга тўсқинлик қилди.

Совет ҳокимияти халқаро туризмдан келадиган катта фойдадан кўра, коммунистик мафқурага бўйсундирилган тарғибот ишларини олиб боришга, совет кишиларининг фаровон турмуш тарзини, хўжалик соҳасида эришаётган ютуқларини намойиш қилишга қаратди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. International Tourism Highlights 2020 Edition, UNWTO, Madrid, -P 18.
2. International Tourism Highlights 2023 Edition, UNWTO, Madrid, -P 3.
3. Кресова М.Д. "Интурист" в 1929-1939 гг.: структура, кадры, направления деятельности. Ар. Дисс. Канд.ист.наук М.:2004 г.
4. Л.Г. Березовая «Интурист»: У истоков иностранного туризма в СССР. DOI: 10.22412/1995-0411-2016-10-4-10-19
5. Историческая справка. ЎзМА, Р2753-фонд, 1- рўйхат, 6-варақ
6. Положения об Управлении по иностранному туризму при Совета Министров Узбекской ССР. 03.10.1972 г. N442. Постановления советов
7. Министров Узбекской ССР за октябрь 1972 г. стр. 16
8. ЎзМА, Р-2753-фонд, 1-опис, 217-йифмажилд, 103- варақ
9. Положения о Главном управлении Узбекской ССР по иностранному туризму. 01.12.1983 г. Постановления советов Министров Узбекской ССР за декабрь 1983 г. стр. 15
10. По древнем городам Узбекистана. М.: - 1988 Профиздат. Стр.334

УЎК 930

ЎЗБЕКИСТОН СУД ТИЗИМИДА КАДРЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ МУАММОЛАР (ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛ)

Маҳкамов А.М., эркин изланувчи, Қарши давлат университети, Қарши

Аннотация. Мазкур мақолада суд тизимини янада такомиллаштириш, судьялар ва суд ходимларининг малакасини ошириш ҳамда кадрларни танлаш ва тайёрлашда қўлланилган янги усуллар ҳақида маълумот берилади. Шунингдек, суд тизимида кадрлар сиёсати соҳасида

амалга оширилган ислохотларнинг натижалари, уларнинг суд органлари фаолиятига таъсири ва келгусидаги ривожланиш истиқболлари ёритиб берилган.

Калим сўзлар: Ўзбекистон Республикаси, суд тизими, кадрлар сиёсати, судьялар, суд ходимлари, малака ошириш, ислохотлар, кадрлар тайёрлаш, суд органлари.

Аннотация. В данной статье представлена информация о дальнейшем совершенствовании судебной системы, повышении квалификации судей и работников судов, а также новых методах, используемых при подборе и подготовке кадров. Также освещены результаты реформ, проведенных в сфере кадровой политики в судебной системе, их влияние на деятельность судебных органов и перспективы дальнейшего развития.

Ключевые слова: Республика Узбекистан, судебная система, кадровая политика, судьи, работники судов, повышение квалификации, реформы, подготовка кадров, судебные органы.

Abstract. This article provides information on further improvement of the judicial system, advanced training of judges and court employees, as well as new methods used in the selection and training of personnel. It also highlights the results of reforms carried out in the field of personnel policy in the judicial system, their impact on the activities of judicial bodies and prospects for further development.

Keywords: Republic of Uzbekistan, judicial system, personnel policy, judges, court employees, advanced training, reforms, personnel training, judicial bodies.

2000 йил 14 декабрдаги Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг иккинчи чақирик тўртинчи сессиясида қабул қилинган “Судлар тўғрисида”ги янги тахрирдаги қонуннинг тўртинчи бўлими “Судьялар мақоми” деб номланган бўлиб, ушбу бўлимда судьяларнинг мақоми, ҳуқуқ ва бурчлари, судьялар мустақиллигининг асосий қафолатлари, судьяларни моддий ва ижтимоий таъминлаш каби масалалар ўз аксини топган эди.

Ўзбекистон Республикасида барча судьялар бир хил мақомга эга бўлиб, фақат ваколатлари ҳамда ҳуқуқ доираси бўйича ўзаро фарқланадилар. Ўзбекистон Республикасининг 25 ёшга тўлган, олий юридик маълумотли, ҳуқуқ ихтисоси бўйича камида икки йиллик меҳнат стажига эга бўлган, малака имтиҳонини топширган фуқароси туман (шаҳар) суди, хўжалик суди судьяси этиб тайинланиши мумкин эди.

Олий юридик маълумотли, ҳуқуқ ихтисоси бўйича камида беш йиллик, жумладан, одатда судьялик лавозимида камида икки йиллик меҳнат стажига эга бўлган ва малака имтиҳонини топширган Ўзбекистон Республикасининг фуқароси Қорақалпоғистон Республикаси Олий суди, вилоят суди, Тошкент шаҳар суди, Қуролли Кучлар ҳарбий суди судьяси этиб тайинланиши мумкин эди.

Олий юридик маълумотли, ҳуқуқ ихтисоси бўйича камида етти йиллик, жумладан, одатда судьялик лавозимида камида беш йиллик меҳнат стажига эга бўлган ва малака имтиҳонини топширган Ўзбекистон Республикасининг фуқароси Ўзбекистон Республикаси Олий суди, Олий хўжалик суди судьяси этиб сайланиши мумкин эди[1].

Ҳақиқий ҳарбий хизматни ўтаётган, офицерлик таркибидаги ҳарбий унвонга эга, ушбу модда талабларига жавоб берувчи Ўзбекистон Республикасининг фуқароси ҳарбий суд судьяси этиб тайинланиши мумкин бўлиб, ҳарбий судлар судьяларига Ўзбекистон Республикасининг «Умумий ҳарбий мажбурият ва ҳарбий хизмат тўғрисида»ги Қонуни, ҳарбий низомлар, ҳарбий хизматчилар учун белгиланган ва қонунчиликда кўзда тутилган ҳуқуқий ва ижтимоий ҳимоя чоралари татбиқ қилинар эди.

Фуқароларнинг яшаш ёки иш жойларидаги йиғилишларда очиқ овоз бериш йўли билан икки ярим йил муддатга сайланган Ўзбекистон Республикасининг 25 ёшга тўлган фуқароси халқ маслаҳатчиси бўлиши мумкин эди. Ҳақиқий ҳарбий хизматни ўтаётган, сайлов қунига 18 ёшга тўлган Ўзбекистон Республикасининг фуқароси ҳарбий суд халқ маслаҳатчиси бўлиши мумкин эди. Халқ маслаҳатчилари ҳарбий қисм хизматчиларининг йиғилишларида очиқ овоз бериш йўли билан бир ярим йил муддатга сайланар эдилар. Ҳар бир суд учун халқ маслаҳатчилари сони Ўзбекистон Республикаси Адлия вазири томонидан белгиланган.

Халқ маслаҳатчилари судларга ўз вазифаларини бажариш учун йилига кўпи билан икки ҳафтага навбатма-навбат чақирилган. Уларнинг иштирокида бошланган судлов ишини кўриб чиқишни тугаллаш зарурати туғилганида бу муддатни узайтириш ҳоллари бундан мустасно эди. Шу даврда уларнинг иш жойидаги ўртача иш ҳақи корхона, ташкилот, муассасанинг мулкчилик шаклидан қатъи назар, сақлаб қолган.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Олий ҳўжалик суди судьялари Ўзбекистон Республикаси Президенти тақдимига биноан Олий Мажлис томонидан сайланган. Қорақалпоғистон Республикаси судьялари Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси Раисининг Ўзбекистон Республикаси Президенти билан келишилган тақдимномасига биноан Қорақалпоғистон Республикаси Жўқорғи Кенгеси томонидан сайланар ёки тайинланар эди. Вилоят судлари, Тошкент шаҳар суди, туман(шаҳар) судлари судьялари Ўзбекистон Республикаси Президенти томонидан тайинланган[1].

Илк бор судьялик лавозимига тайинланган (сайланган) шахс қуйидаги мазмунда қасамёд қилган: «Зиммамга юклатилган вазифаларни ҳалол ва виждонан бажаришга, одил судловни фақат қонунга бўйсунган ҳолда амалга оширишга, судьялик бурчим ва виждоним буюрганидек беғараз, одил, ҳаққоний бўлишга тантанали қасамёд қиламан». Судьялар қасамёди тантанали вазиятда Ўзбекистон Республикаси Давлат байроғи, Қорақалпоғистон Республикасида эса, шунингдек Қорақалпоғистон Республикасининг Давлат байроғи олдида қилинган.

Судьялар томонидан ўз профессионал вазифаларнинг ҳалол ва виждонан бажарилиши, уларнинг қарор қабул қилиш чоғида мустақиллиги бузилган ҳуқуқлар самарали ҳимоя қилинишини кафолатлайди, жамиятда адолат тамойилларига, суднинг холис ва мустақиллигига нисбатан бўлган ишончни мустаҳкамлайди. Бу ўринда умумий юрисдикция судларида ташкилий-кадрлар ишини тўғри йўлга қўйиш, судьялар томонидан судьялик қасамёдида риоя қилинишини таъминлаш алоҳида аҳамият касб этади.

Статистик маълумотлар таҳлили шуни кўрсатадики, 2001 йилдан 2007 йилнинг дастлабки 9 ойигача бўлган давр оралиғида судьялар малака ҳайъатлари томонидан судьяликка номзодлик захирасига киритиш тўғрисида, жами бўлиб, 3417 та ариза қабул қилинган ва кўриб чиқилган. Улардан малака имтиҳони топширган 3305 нафар шахс захирага олинган, 112 нафарига нисбатан захирага олиш рад этилган[2].

Шу даврда судьялар малака ҳайъатларининг қарорига мувофиқ судьялик лавозимларидаги вакансияларни тўлдириш юзасидан ўтказилган танловда иштирок этишни хоҳлаган шахслар орасидан 2828 нафари мазкур лавозимларга лойиқ деб топилган ва уларга нисбатан ҳужжатлар Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги судьяларни танлаш ва лавозимларга тавсия этиш бўйича олий малака комиссиясига юборилган. Судьяликка тавсия этилган шахслардан 1000 нафар номзод кейинчалик мазкур лавозимларга тайинланган[2].

Шу билан бир қаторда статистик маълумотлар шуни кўрсатадики, умумий юрисдикция судларининг ташкилий-кадрлар соҳасидаги ишида одил судлов тизими самарадорлигига салбий таъсир этувчи жиддий камчилик ва нуқсонлар ҳам мавжуд эди. Чунончи, 2001-2007 йиллар мобайнида 210 нафар судья эгаллаб турган лавозимидан озод этилган бўлиб, бу судьялар корпуси умумий сонининг қарийб тўртдан бирини ташкил этар эди. Шу жумладан, 130 нафари ўз аризасига кўра, 28 нафари судьялик қасамёдини бузганлиги учун, 25 нафар судья жиноий жавобгарликка тортилганлиги учун лавозимидан озод этилган[2].

2001-2007 йилларда фаолият юритган судьяларнинг уларга қўйилган шахсий, маънавий ва касбий жиҳатдан талабларга мувофиқлиги даражаси ўта пастлигича сақланиб қолаверган. Чунончи, қайд этилган даврда янги судьялик муддатига тавсия этилган 521 нафар номзоддан фақат 269 (51,6%) нафари лавозимларга тайинланган. 214 (41,1%) нафар номзодларнинг ҳужжатлари уларга берилган тавсифномалар салбийлиги сабабли қайтарилган, судьялик лавозимида ишлаётган 23 (4,4%) нафар судья тавсия этилган судьялик лавозимига нолайиқ деб топилган ёки захирада қолдирилган.

Бунинг натижасида, 2007 йилда амалдаги судьялар корпусининг 45,4 фоизини (320 нафар судья) иш стажи беш йилдан ортиқ бўлмаган, илк бор ушбу лавозимга тайинланган

шахслардан ташкил топган бўлиб, бунда судьялик лавозимида 15 йилдан ортиқ ишлаган шахслар фақат 11,6 фоизни (82 нафар судья) ташкил этган[2].

Қайд этилган салбий ҳолатлар келиб чиқишига судьялар томонидан ўз юксак мақоми ва юклатилган масъулият етарли даражада ҳис этилмаётганлиги, ҳуқуқий савияси ҳамда ижтимоий-сиёсий хабардорлиги даражасини ошириш борасида олиб борилаётган иш сусайтириб юборилганлиги, ўз шахсий манфаатларини одил судлов манфаатидан юқори қўйилиши сабаб бўлган. Суд процесси иштирокчиларига нисбатан ҳурматсизликка, қонунда белгиланган муддатлар бузилишига, ишларни кўриш ва шикоятларни ҳал қилишда сансалорликка йўл қўйилаётганлиги ҳоллари кўплаб учраб турар эди.

Шуни таъкидлаш лозимки, бундай ҳол, биринчи ўринда вилоят ва унга тенглаштирилган судлар раислари томонидан судларда ишлар етарли ташкил этилмаганлиги, судьялар малака ҳайъатлари ишининг қониқарсиз эканлиги, суд қасамёдига ва ижро интизомига риоя этилиши устидан назорат сусайтирилганлиги натижасида юзага келган.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати:

1. “Судлар тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 81-90-моддалар. <https://lex.uz/docs/5534923>
2. Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг қарори. Умумий юрисдикция судларида кадрлар билан ишлаш ҳолати ва судьялар томонидан судьялик қасамёдига риоя этилиши масалалари тўғрисида. <https://lex.uz/uz/docs/1479950>
3. Ўзбекистон Республикаси Олий ҳўжалик суди Пленумининг 2000 йил 28 июлдаги “Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримовнинг 2000 йил 21 июлда Вазирлар Маҳкамасининг йиғилишида сўзлаган нутқидан келиб чиқадиган кўрсатмалар асосида республика ҳўжалик судларининг иқтисодий қонунчиликни мустаҳкамлаш, одил судловни таъминлаш борасида амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар тўғрисида”ги қарори. <https://nrm.uz/contentf?doc=12373>
4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 1997 йил 29 августдаги “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш миллий дастури тўғрисида”ги қарори. <https://lex.uz/docs/249352>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Хўжалик судлари тизимини такомиллаштириш тўғрисида»ги фармони. <https://nrm.uz/contentf?doc=455085>

УЎК 930

АБДУРАУФ ФИТРАТНИНГ ТАРИХ ВА МИЛЛИЙ МАДАНИЙ МЕРОС МАВЗУСИ ОИД ҚАРАШЛАРИ

(XX АСРНИНГ 20-ЙИЛЛАР ИККИНЧИ ЯРМИ – 30-ЙИЛЛАРИ)

М.Маҳмудов, доц., PhD, University of Business and Science, Namangan

Аннотация. Ушбу мақолада Абдурауф Фитратнинг XX асрнинг 20-йиллар иккинчи ярми – 30-йиллардаги тарих ва миллий маданий мерос мавзуси оид қарашлари тадқиқ этилган. маҳаллий аҳолининг илм-маърифатли кишилари орасида совет ҳукуматининг мафкуравий тазйиқлари оқибатида эътибордан четда қолаётган асрий қадриятларнинг бебаҳо дурдоналари бўлган маданий мерос объектларини, маънавий меросни тадқиқ этишига, авайлаб асрашга қаратилган чиқишлар, маърузалар, илмий мақолалари таҳлил этилган.

Калит сўзлар: тарих, маданий мерос, китоб, рисола, газета, миллийлик, ижтимоий-сиёсий жараён, зиёли, партия, адабиёт, тилшунослик.

Аннотация. В данной статье исследуются взгляды Абдурауфа Фитрата на тему истории и национального культурного наследия во второй половине 20-х- 30-х годах 20-го века. среди образованных людей местного населения были проанализированы выступления, лекции, научные статьи, направленные на исследование, сохранение духовного наследия, объектов культурного наследия, бесценных шедевров многовековой ценности, которые упускаются из виду в результате идеологических репрессий советской власти.

Ключевые слова: история, культурное наследие, книга, брошюра, газета, национализм, общественно-политический процесс, интеллектуал, партия, литература, лингвистика.

Abstract. This article explores Abdurauf Fitrat's views on the subject of history and national cultural heritage in the second half of the 20s-30s of the 20th century. among the educated people of the local population, speeches, lectures, scientific articles aimed at researching, preserving spiritual heritage, objects of cultural heritage, invaluable masterpieces of centuries-old values, which are overlooked as a result of ideological repression of the Soviet government, were analyzed.

Keywords: history, cultural heritage, book, brochure, newspaper, nationalism, socio-political process, intellectual, party, literature, linguistics.

XX асрнинг 20-йиллари иккинчи ярми – 30-йиллар совет ҳокимияти учун ўзининг сиёсий ва иқтисодий мавқеини янада мустақкамлаш даври бўлди. Большевикларнинг мутлақ яккахоким партияси жамият ижтимоий ҳаётининг барча жабҳаларида мафкуравий таъсирини ўтказиб борди. Айниқса, бу кишилар онгини ўзгартиришда муҳим омил бўлган маънавий соҳасида жиддий тус олди. Агар совет ҳокимиятининг дастлабки йилларида маданият ва уни бошқариш жабҳаларида бирмунча эркинлик мавжуд бўлиб, ҳокимият маҳаллий урф-одатлар ва хусусиятларни ҳисобга олишга мажбур бўлса-да, кейинчалик маъмурий-буйруқбозлик усуллари кенг қулоч ёйиб, мустақкамланиб борди. Большевикча “маданий инқилоб” йўли ва усуллари устуворлик қила бошлади. Халқнинг маърифат, фан ва миллий маънавийга бўлган интилиши ҳукмрон кучлар томонидан узоқни кўзламай, яхши ўйламай олиб борган сиёсати натижасида сиёсий манфаатлар йўлига бурилди. Янги зиёли кадрларни шакллантириш, эски мавжуд миллий зиёлилارни йўқ қилиш ушбу мақсадларни кўзлаб амалга оширилди[1. – Б. 218]. Бундай ёндашув тарихий-маданий меросга бўлган муносабатда ҳам ўз аксини топди. Ўтмиш маданиятга нисбатан панжа остидан қараш кучайди. Шунга қарамадан, маърифатпарвар зиёлилар ва фан фидойиларининг саъй-ҳаракатлари натижасида ўлкада тарихий-маданий меросни сақлаш ҳамда ўрганиш ишлари давом эттирилди.

Туркистонда миллий давлат чегараланиши ўтказилгандан кейин, яъни 1924 йилда Ўзбекистон Халқ маорифи комиссарлиги ҳузурида Академик Марказ (Ўз Акцентр) ташкил этилди ва у учта, яъни илмий-педагогик ва мусиқий этнографик, ўзбекшунослик, илмий ташкилот ва жамиятлар каби бўлимлардан иборат эди[2]. Ўзбек Академик марказнинг штатдан ташқари ходимларини рўйхатида ўзбек халқининг энг кўзга кўринган миллий зиёлилари, жумладан, Абдумўмин Сатторий, Ҳожи Муъин Шукруллаев, Ғози Олим Юнусов, Абдумусаввар Одилов, Абдулҳамид Сулаймон ўғли (Чўлпон), Абдурауф Фитрат, Вадуд Маҳмуд ва Садриддин Айний каби намоёндаларини номларини кўриш мумкин[3]. Ушбу зиёлилارнинг олиб борган илмий-амалий ҳаракатлари туфайли марказ кўплаб ижобий ишларни қўлга киритди. Хусусан, илмий-педагогик бўлим турли хилдаги ўқув юртлари учун янги ўқув режаси ва дастурларни ишлаб чиқиш, уларга дарсликлар тузиш, Ўзбекистонда чоп этиладиган дарслик ҳамда методик адабиётларни назорат қилиш, ўзбекшунослик бўлими эса маҳаллий халқнинг ўтмиши, тили ва турмуш тарзини ҳар томонлама ўрганиш бўйича муҳим тадқиқотлар олиб борди. Ўзбекшунослик бўлими жойларда ўзининг бошланғич ташкилотларини тузиб, уларнинг ишларини мувофиқлаштириб борди. Ўзбекистонда маҳаллий тилда чоп этиладиган барча материалларни тил бўйича тақриз қилиш билан ҳам шуғулланди[3].

Абдурауф Фитрат тасаввуф таълимоти ва унинг ўтмиши, шоир яшаган давр, ижтимоий-маънавий муҳит, улуғ мутафаккирнинг ҳаёт саҳифалари, оиласи, болалиги, илм таҳсили, ўз тариқатига асос солиши, “Девони ҳикмат” тарихи, ҳикматларнинг маъно-моҳияти, адабий қиммати, яссавийликнинг таъсири, мафкураси, Аҳмад Яссавийда тасаввуф даражаси каби масалаларни чуқур ўрганиб чиққан ҳамда булар хусусида янги фикрларини баён этган. Ўз мақоласини тасаввуфга доир умумий кириш билан бошлар экан, олим тасаввуф маслагининг юзага келишини мустамлакачиларнинг маҳкумларга қилган адолатсизликларидан келиб чиққан акс таъсири билан боғлайди.

Абдурауф Фитрат Аҳмад Яссавий ҳикматларининг туркий тил ривожигадаги хизматлари хусусида мулоҳаза юритиб, V–VI асрнинг адабий маҳсули бўлган ҳикматларнинг “Қутадғу билиг”дан бир аср сўнгра, “Ҳибат ул-ҳақойиқ” билан бир даврда ёзилгани боис адабиётимиз ва тарихимиз учун муҳим аҳамиятга молик, деб ҳисоблайди. Абдурауф Фитратнинг фикрича, ушбу даврда ёзилган туркий асарларнинг озлиги назарда тутилганда, ҳикматларнинг қиммати янада ортган бўлар эди. Лекин, Абдурауф Фитрат XX асрга қадар етиб келган “Девони ҳикмат” нусхаларининг қадимий эмаслигини таъкидлаган эди.

Абдурауф Фитратнинг илмий меросида тилшуносликка оид асарлар салмоқли ўрин тутади. Мазкур аллома тил тарихи фанида ҳам сезиларли из қолдирди. Унинг “Энг эски турк адабиёти намуналари” ва “Араб алифбосининг тарихи” асарлари бу соҳадаги энг аҳамиятли ишларидир. Биринчи асарда олим Шарқнинг машҳур олими Маҳмуд Қошғарийнинг “Девону луғотит турк” китобидан айрим намуналар келтиради, уларни қадимги турк тилидан ўзбекчага ағдаради ва айрим сўзларга изоҳ беради.

Абдурауф Фитрат Маҳмуд Қошғарий ва ундан олдинги давр тили ҳақида маълумот беришга ҳаракат қилади ва бу ҳақда шундай дейди: “Маҳмуд Қошғарий “Девону луғотит турк”да олти ярим мингдан ортиқ сўзларни изоҳ қилади. Кўп ўринларда ушбу сўзларнинг қабилавий айирмаларини кўрсатади. Китобнинг жой-жойида турк сарфи тўғрисида кенг, ҳам тўла маълумот бериб ўтади, ҳаммасини йиғиб текширганда, тарихи сарфимиз (морфология тарихи) учун жуда қимматли материаллар беради”[4. – Б. 4.]. Абдурауф Фитрат тил ва адабиётга оид асарларида асар тили, айниқса, ўша давр тарихий муҳитига алоҳида эътибор беради. Масалан, у “Энг эски турк адабиёти намуналари” китобида “Девону луғотит турк” асаридаги қўшиқларнинг қайси даврда чиққанлигини шундай аниқлайди: “... биринчи қисмдаги бешинчи асарда “иврик” сўзи борким, арабча “ибрик” демакдир. Мана булар мазкур асарларнинг турк, арабларнинг биринчи учраш замонларига оид бўлғонин кўрсатади. Демак, у асарларнинг ҳар ҳолда милодий 6–7 мулчар /асрлар/нинг адабий йимишлари эканига ҳукм этмак мумкиндир”. Умуман олганда, XX аср 20-йиллари иккинчи ярми Абдурауф Фитрат илмий фаолиятида муҳим йиллар бўлди. У бугунги кунгача ўз аҳамиятини йўқотмай келаётган “Энг эски туркий адабиёт намуналари” (матн, тадқиқот, изоҳлар. Самарқанд-Тошкент, 1927), “Ўзбек адабиёти намуналари” (матн, тадқиқот, изоҳлар Самарқанд-Тошкент, 1929), “Шарқ шахмати” (Самарқанд- Тошкент, 1928), “Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи” (Самарқанд- Тошкент, 1927), “Форс шоири Умар Хайём” (Самарқанд-Тошкент, 1929) каби кўплаб тадқиқотларни эълон қилди.

Абдурауф Фитратнинг “Ўзбек адабиёти намуналари” китоби ҳақида адабиётшунос олим Ҳ. Болтабоев шундай ёзади: “Ўзбек адабиёти намуналари” оддий баёз ёки хрестоматиялар эмас, балки йўқолиш арафасида турган асарлар излаб топилган, текстологик жиҳатдан ишланган, шарҳлар ёзилган, луғатлар тузилган ва уларни тушуниш учун илмда дастлабки йўналишлар берилган жиддий тадқиқотлардир”[5. – Б. 37.].

Абдурауф Фитрат “Навоийнинг форсий шоирлиғи ҳам унинг форсий девони тўғрисида” мақоласида “Давлатшоҳ, Жомий, Сом Мирзо, Ҳидоят, Ҳусайн каби форс тазкирачилари Навоийнинг кучли қалам эгаси бўлганини тасдиқ қиладилар”, дейиш билан, Навоий асари уларнинг асарларида битилган қасидаларидан фикрда, мазмун ва бадииятда устун эканини кўрсатади. Яна бир ҳолат, Вадуд Маҳмуднинг изланишлари натижасида Бухорода Мусо Саиджоновнинг шахсий кутубхонасида Бедил “Девон”ининг ҳошиясида 4,5 минг байтдан иборат Навоийнинг форсий шеърлари қўлёзмаси ва айни асарнинг бошқа бир қўлёзмаси Муҳаммад Шариф Садр кутубхонасида ҳам борлиги маълум бўлган. Абдурауф Фитрат ушбу икки манбани солиштириш натижасида улар бир хил бўлгани, лекин мазкур форсий девон Навоийнинг эмас, балки бошқа бир Фонийнинг девони эканини аниқлайди. Бу котибларнинг хатоси бўлиб, улар томонидан ёзилган “Фоний иборат аз Амир Алишер аст Амир Навоий” сўзлари нотўғри, Навоийнинг туркий ғазаллари ора-сира қўшиб келтирилиши ҳам мана шу хато талқиннинг натижасидир. Бу янги топилган “Девони Фоний” кашмирли Мулла Муҳсин қаламига мансуб бўлиб, бу шоир ҳақида Шамсиддин Сомийбек “Қомус ул-аълам”да маълумот берганини ўз исботига асос сифатида келтирди. Мақола “Навоийнинг форсийча ҳақиқий девонини янгидан охтариш эса яна бизнинг вазифамиз”[6. – Б. 38–41.], деган сўзлар билан тугалланган. Демак, ушбу даврдаги таҳлиллар ўзбек навоийшунослигининг профессионал даражасидан дарак беради.

Айниқса, Абдурауф Фитратнинг Яссавий ижодига мурожаати кескин қаршиликка учради. Бу борада икки муаллиф ҳамфикр эди. К. Нугматов Абдурауф Фитратни “Яссавийни пролетар ёзувчилари қаторига қўшган”ликда айблаган бўлса, Ж. Бойбулатов “Фитрат – мистик”, “Фитрат – панисломчи”, “Чиғатоизм – пантуркизм асосчиси”, “Маориф ва ўқитувчи”

эса унинг органи” деб қайд этган эди. Ушбу муаллифларнинг фикрича, XVI–XVII асрларда яшаб, ижод этган ёзувчиларнинг асарларини нашр этилиши пухта ўйланган, жамоатчилик фикрини пролетар ғоясига қарши қўйишдаги “совет ҳокимияти душманларининг маълум ижтимоий буюртмаси”, эди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Иккинчи китоб.... – Б. 218.
2. ЎзМА, Р-34-фонд, 1-рўйхат, 2629-иш, 110–111-варақлар; Вся Средняя Азия / Справочная книга на 1926 хозгод. – Ташкент, 1926. – С. 399–400.
3. ЎзМА. Р-34-фонд, 1-рўйхат, 2629-иш, 65–69-варақлар.
4. Болтабоев Ҳ. Абдурауф Фитрат. – Тошкент: Маънавият, 1992. – Б. 37.
5. Абдурауф Фитрат. Энг эски турк адабиёти намуналари. – Тошкент, 1927. – Б. 4.
6. Абдурауф Фитрат. Навоийнинг форсий шоирлиги ҳам унинг форсий девони тўғрисида // Маориф ва ўқитувчи. – 1925. – №12. – Б. 38–41.
7. Абдурауф Фитрат. Тилимиз // Иштирокиюн. – 1919. 12 июнь.
8. Абдурауф Фитрат. Биринчи она тили курси // Иштирокиюн. – 1919. 11 май.
9. Абдурауф Фитрат. 1921 йил январда бўлгон биринчи ўлка ўзбек тил ва имло қурултойининг чикарғон қарорлари. – Тошкент: Туркистон жумҳуриятининг давлат нашриёти, 1922.
10. Абдурауф Фитрат. Чигатой адабиёти // Инқилоб. – 1923. – №4.
11. Абдурауф Фитрат. Муқаддамуту-л-адаб // Маориф ва ўқитувчи. – 1926. – №7–8. – Б. 76–78.
12. Абдурауф Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари (1-жилд). – Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1928.

УЎК.9.908.

XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ РОССИЯ ТАРИХШУНОСЛИГИДА ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ДАВЛАТЧИЛИГИ ТАРИХИНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ Д.Н.Раджабова, доц., т.ф.н., Самарқанд давлат университети, Самарқанд

Аннотация. Россиялик олим-шарқшуносларнинг ўзбек давлатчилигининг шаклланиши, ривожини ва мавжуд ҳолати ҳақидаги фикрлари ва мулоҳазалари бугунги кунда ўрганиши учун муҳим манба сифатида хизмат қилади. Хусусан, Қўқон хонлигининг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий тарихи мунтазам равишда Россия тадқиқотчиларнинг эътиборида бўлиб, Қўқон хонлиги тарихи бўйича илмий шарқшунослик тадқиқотларни тизимлаштирадиган, билим ва тасаввурларни кенгайтирадиган катта фактик материал йиғилди, жиддий асарлар яратилди.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, ўзбек давлатчилиги, хонликлар, шарқшунослик, тадқиқотлар, этнографик маълумотлар.

Аннотация. Одним из важных источников для изучения становления, развития и современном состоянии узбекской государственности являются исследования российских ученых-востоковедов. В частности, политическая, социально-экономическая, культурная и духовная история Коканского ханства постоянно являлась объектом внимания российских исследователей, которыми собран большой фактический материал, созданы серьезные работы по систематизации научных востоковедческих исследований по истории Коканского ханства.

Ключевые слова: Средняя Азия, узбекская государственность, ханства, востоковедение, исследования, этнографические сведения.

Abstract. One of the important sources for studying the formation, development and current state of Uzbek statehood is the research of Russian orientalists. In particular, the political, socio-economic, cultural and spiritual history of the Kokan Khanate has constantly been the object of attention of Russian researchers, who have collected a large amount of factual material and created serious works to systematize scientific oriental studies on the history of the Kokan Khanate.

Keywords: Central Asia, Uzbek statehood, khanates, oriental studies, research, ethnographic information.

Россиянинг Марказий Осиё халқлари ва давлатлари билан муносабатларининг тарихи инсонлар, шахслар орқали ўрганилар эди. XVIII – XIX асрларда Қўқон хонлигининг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, маданий-маънавий тарихи мунтазам равишда маҳаллий, хорижий, шу

жумладан, русийзабон тадқиқотчиларнинг эътиборида бўлган. Россия империяси хукмронлиги ўрнатилганда ҳам хонликка бўлган қизиқиш сўнмади. Россия империясининг чекка худудларида ўз хизмат вазифаларини бажарган маъмурлар, элчи-дипломатлар, ҳарбийлар, савдогарлар ва, ниҳоят, шарқшунос-олимларнинг фаолиятини баҳолаш уларнинг кундаликлари, ёзишмалари, эсдаликлари, махсус мақолалари, очерклари ва махсус тарихий асарларининг махсус ўрганилиши орқали тўлиқ бўлади.

Қўқон хонлиги тарихига бағишланган дастлабки нашрлардан Ф.Ефремов, Ф.Назаров, Т.Поспелов ва М.Бурнашев, Н.Потанин ва бошқаларнинг ишларини келтириш мумкин. Муаллифлар хонликда қисқа вақт бўлганликлари ёки истиқомат қилганликлари туфайли хонликнинг асосан ички сиёсатининг айрим масалаларини таҳлил қилишга муваффақ бўлган. Даставвал улар ўз эътиборларини хонликнинг ички сиёсий ҳаётига, шу жумладан, аҳолиси, табиий-географик шароити, савдо муносабатлари каби масалаларга қаратдилар. Рус армияси унтер офицери Ф. Ефремовнинг кундалигида Қўқон хонлигининг аҳолиси, унинг этник таркиби, ижтимоий ва маънавий ҳаётининг айрим жиҳатлари кузатилган [1]. Саёҳатчи Мир Иззатуллиннинг Фарғона водийси маҳаллий аҳолисининг ижтимоий-сиёсий ҳаёти ҳақидаги йиққан маълумотлари анчагина кенгрокдир [2, 84]. Қўқонга Умархон хукмронлик қилган даврда юборилган Ф.Назаров хонликнинг ички тартибларига эътибор қаратди. Хусусан, у суд тартиботлари ҳақида гапирганда, “Қўқонликлар қоғозбозлик қилмасдан, ҳукми қасамёд остида чиқарадилар” [3, 75], Қўқон хонлигининг қирғизлар, Бухоро, Қошғар билан савдо-сотик муносабатлари; Қўқонда ипак қуртининг етиштирилиши; тоғли тожикларнинг Марғилонда пахта ипларининг сотиб олганлиги; гилам тўқийдиган қорақалпоқлар ҳақида маълумотлар келтирган [3, 83,86]. 1829-1830 йилларда ҳарбий офицер Н.Потаниннинг Семипалатинскдан Қўқон хонлигига саёҳати хотиралари ҳам катта қизиқиш уйғотади [4]. Шарқшунос П.С. Савельев “Ёзишмалар”нинг кириш сўзида ёзганидек, Н.Потаниннинг “келтирган бой маълумотлари бошқа саёҳатчиларнинг хабарларида учрамаганлиги туфайли алоҳида қийматга эга” [5, 256]. Н.Потанин хонликнинг бошқарув тизими, солиқ сиёсати ҳамда шаҳар аҳолисининг аҳволига эътибор қаратган. Уни хонликдаги суд ҳокимияти, яъни ҳукми расмийлаштирилган, ёзма тарзда эмас, балки оғзаки, хоннинг яқка ҳокимлиги билан унинг ўз кўли остида хизмат қилаётганларни вазифасидан озод қилиши ёки, ҳаттоки, қилган жинояти даражасига қарамасдан, ўлим жазоси берилиши мумкинлиги ҳайратга солган [4, 277]. Ундан ташқари, “Ёзишмалар”да хонлик шаҳарлари, масжидлари ҳамда савдо-сотик ва деҳқончиликнинг ривожланиши ҳақида маълумотлар берилган [4, 258]. Қўқон-Бухоро муносабатларининг ёмонлашуви оқибатида Қўқон хонлигида мураккаб сиёсий жараёнлар жиддий тус олганлигининг гувоҳи бўлган Василий Пшеничниковнинг тафсилотлари ҳам муҳим аҳамиятга эга [6, 238].

Ўша давр тадқиқотчиларидан бири “Туркистон ўлкасига русларнинг аста-секинлик билан кириб бориши сайин сайёҳларнинг қисқа хабар-маълумотларининг ўрнига батафсил кузатув ва таърифлар тафсилотлари муҳим ўрин эгаллади” [7, 18], – деб ёзади. XIX асрнинг 50-70 йилларида Қўқон хонлиги тарихига бағишланган В.В. Вельяминов-Зернов, П.И. Небольсин, В.В. Григорьев, А.П. Хорошхин, А.Л. Кун, А.П. Федченко, В.П. Наливкин, Н.Н. Пантусов ва бошқа кўплаб шарқшунос-олимлар хонликнинг ички ва ташқи сиёсати, ўтроқ ва кўчманчи аҳолининг ўзаро кураши, ижтимоий ва этник масалаларини чуқур таҳлил қилган. Бу эса, ўз навбатида, ўзбек давлатчилиги тарихида Қўқон хонлигининг тутган ўрнини янада аниқлаш ва баҳолашга имкон яратди.

Қўқон хонлиги тарихига оид йирик очерк тайёрлаган рус олимларидан бири XIX асрнинг 2-ярмида фаолият олиб борган шарқшунос, академик В.В. Вельяминов-Зерновнинг ўзи Қўқон хонлигида ҳеч қачон бўлмаганлигига қарамай, Россиянинг бевосита қўшнилари бўлмиш Ўрта Осиё давлатларига нисбатан жиддий қизиқиши ҳақида гувоҳлик беради. Унинг “Қўқон хонлиги ҳақида маълумотлар” асари хонликни рус савдогарлари ташрифи таассуротлари асосида яратилган [8]. Шарқшунос-олим “Бутун Ўрта Осиёда энг яхши мамлакат ҳисобланмиш Қўқон хонлигини ўрганиш – руслар учун ниҳоятда муҳимдир” [8, 107], деб таъкидлайди ва Россия учун “ўзининг фабрика, мануфактуралар ва заводлари махсулотларини

сотиш учун энг қулай ва тўғри жой” деб хонликка баҳо беради [8, 132]. Муаллиф асосий эътиборни хонлик ҳаётининг сиёсий томонига қаратиб, унинг маъмурий тузилишининг айрим хусусиятларига урғу берган. Олимнинг фикрича, хонликда ҳокимиятни эгаллаш мақсадида доимий равишда фитналар уюштирилган [8, 114]. Вахолангики, тарихдан маълумки, бундай сиёсий жараёнларнинг оқибатида вужудга келган сиёсий тарқоқлик натижасида хонлик заифлашади ва давлат асослари табиий равишда пароканда бўлиши мумкин.

В.В. Вельяминов-Зерновнинг “Қўқон хонлигининг Муҳаммад Алидан Худоёрхонгача бўлган даврга оид тарихий маълумотлар” номли тадқиқотида 1840-1850 йиллардаги жараёнлар кузатилган ва воқеалар гувоҳлари бўлган россиялик ва Осиё савдогарларининг маълумотлари асосида хонликнинг ички сиёсати тавсифланган [9]. Муаллиф ўша давр сиёсий вазиятига алоҳида эътибор қаратиб, Фарғона водийси ўтроқ ва кўчманчи аҳолиси ўзаро курашининг авжга чиқиши сабабларини таҳлил қилишга уринган. Кўпчилик россиялик тарихчи ва шарқшунос олимларнинг Қўқон хонлиги тарихига бағишланган тадқиқотларида асосан айнан шу сиёсий жараёнларнинг фожиавий тафсилотларига эътибор қаратилган.

Шарқшунос-олим А.Л. Кун тадқиқотларида Қўқон хонлигининг тарихи 1830 йилдан бошлаб ёритилган [10]. Қўшимча равишда “Туркестанские ведомости”да чоп этилган мақолаларнинг бирида маъмурий-худудий бирликлар ҳақида берилган маълумотлар ўз навбатида давлатнинг асосий белгиларидан бири – аҳолининг худудлар бўйича уюшганлиги, хаттоки, умуминсоний функцияларни бажариш – худудни қўриқлаш, жиноятчиликка қарши кураш, умумий фаровонлик мақсадларини амалга ошириш каби жараёнларга ойдинлик киритилган [11]. Бундан ташқари, А.Л. Кун ўз тадқиқотида давлатчилик асосларидан яна бири – давлат ҳокимияти ва бошқарув аппаратининг мавжудлиги ҳамда солиқ сиёсати ҳақида тафсилотларини келтирган. Сарой мансабларидан ташқари китобда ҳарбий даражалар ҳам таҳлил қилинган [10, 179, 447].

Рус шарқшуносларининг Қўқон хонлигига бағишланган асарларида нафақат давлатчиликнинг белгилари ўз аксини топган, балки давлат ички ҳаётини бошқаришга қаратилган фаолиятининг асосий йўналишларига ҳам эътибор қаратилган. Хусусан, Н.П. Остроумов ҳам ўзининг “Сарты” номли машҳур асарида хонликдаги мансаблар ва мансабдорлар, бажараётган вазифалари ва саройда тутган ўрни ҳақида маълумотлар келтирган. Муаллиф давлатнинг қўриқлаш функцияси сифатида сақлаш, муҳофаза қилиш вазифасини бажарадиган соқчи (миршаб)ларнинг кўрбоши бошчилигида кечкурун мусулмонларнинг хулқи, юриш-туриши ва, умуман, шаҳардаги тартибни маълум миқдордаги назорат қилганлиги ҳақида ҳам айтиб ўтган [12, 38]. Н.Петровскийнинг “Қўқон хонлигининг очерклари”да Қўқон хони Умархон ҳам ўз ҳукмронлигини “олдинги хонларникидек давом этди, яъни, ўз ерларини кенгайтди. Умархон халқ севиб ардоқлаган хонлардан бири” бўлганлиги ҳақидаги маълумотлар мавжуд. Бошқа муаллифлар каби Н.Петровский ҳам иккита қарама-қарши гуруҳларнинг уруши мисолида хонликнинг ички сиёсий зиддиятларини кўрсатган [13].

Н.Энгельгард, А.Н. Хорошхин, М.А. Терентьев каби тадқиқотчилар XIX асрнинг 70-йилларида Қўқон хонлигида содир бўлган халқ ҳаракатларининг кўтарилиши сабабларини хонликдаги савдо муносабатлари ва солиқ сиёсатининг нотўғри олиб борилганлигида кўрганлар. Масалан, Н.Энгельгард Қўқон хонлигининг номланиши ҳақида қисқа тарихий шарҳлар бериб, унинг “қулай савдо, сиёсий ва, қисман, стратегик жойлашуви” ҳамда доимий ички сиёсий зиддиятларини таҳлил қилган [14]. А.Н. Хорошхин эса хонликнинг иқтисодий ҳаётини ўрганиб, Қўқон хонлигида сарой мансабдорларининг бир йилда 120дан 1200 тангагача ва 50дан 70 ботмонгача ғалла олганлиги ҳақида маълумотларни келтирган [15, 52]. Муаллиф хонлик ижтимоий ҳаётининг ҳам айрим жиҳатларини ўрганиб чиқиб, “Қўқон хонлигида қулфурушлик сарқитлари сақланиб қолади. Дўқон шаҳрида ёш кул 30 тилла, ёш чўри (қиз) 40 тиллага баҳолашган”, деб қулчилик муносабатларини қоралаган [15, 43]. М.А. Терентьев Қўқон аҳолисининг оғир ижтимоий аҳволи ҳақида хабар берар экан, Худоёрхон ҳукмронлик қилган даврда аҳоли аёвсиз равишда оғир солиқларга дучор қилинганлигини ҳақида батафсил маълумотлар келтирган [16, 327].

Туркистон ўлкаси мустамлакага айлантирилиб, Қўқон хонлиги унинг таркибига киритилгандан кейин, хонлик тарихи янада чуқурроқ ўрганила бошланди. В.П. Наливкин кишлоқдаги ҳаёти даврида ортирилган тажрибаси асосида қатор илмий тадқиқотларни амалга оширди. Унинг илк китобларидан бири “Наманган уезди деҳқончилиги очерклари” [17] да уезднинг топография ва гидрографияси ҳақида маълумотлар берилган, етиштирилаётган экинларнинг ўзбекча номланиши ва маҳаллий деҳқончилик календари келтирилган. Хусусан, очерклардаги айрим маълумотлар муаллиф томонидан “Маҳаллий (тузем) аҳоли деҳқончилиги масалалари” номли мақоласида янада кенг ёритилган [18]. Ўзининг аграр масалаларига оид тадқиқотларида В.П. Наливкин Ўрта Осиё халқларининг кўп йиллик деҳқончилик тажрибаси – ерларни суғориш, далаларни озиклантириш, тупроқни қайта ишлашнинг бир қанча самарали усулларида фойдаланиш имконияти мавжудлигини таъкидлаган. 1870-1880-йиллар давомида В.П. Наливкин мутахассис сифатида Фарғона вилоятининг қумли жойларини ўрганиш ва уларга қарши курашиш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш бўйича комиссия фаолиятида фаол қатнашган. Бу борада у Фарғона водийсига бир нечта саёҳат уюштириб, уларнинг натижалари бўйича қисқача ҳисобот тайёрлаган [19]. Шу асосда Фарғона водийсининг нафақат тупроғи, қумли жойларининг хусусиятлари ва уларга қарши курашиш усуллари, балки чўлланиш худудлари ўтроқ ва яримўтроқ аҳолисининг маиший ҳаёти тафсилотларига бағишланган “Фарғона водийси қумли жойларининг тадқиқи тажрибаси” номли китобини ҳам нашрдан чиқарди [20].

Шуни эслатиш жоизки, 80-йиллар ўрталарига келиб, Қўқон хонлиги ҳақида йиғилган маълумотлар асосан география, иқтисод ва этнография соҳаларига оид бўлиб, унинг тарихи ниҳоятда кам ўрганилган эди. Бунинг сабаби – тадқиқотчиларнинг бевосита Қўқонга тегишли тарихий манбалардан хабарсизликда эди. Шу жиҳатдан 1886 йилда Қозонда В.П. Наливкиннинг нашрдан чиққан “Қўқон хонлигининг қисқача тарихи” (“Краткая история Кокандского ханства”) китоби [21] ўша давр учун жуда ҳам муҳим тадқиқотга айланди. Ушбу китобни тайёрлашнинг муҳим жиҳатларидан бири шу бўлдики, муаллиф Фарғона тарихига оид олдин ўрганилмаган олти қўлёзмаларга таянди ва уларни илмий муомалага киритди. Ундан ташқари, Наливкин турли даврларда Наманган уездининг Караскан кишлоғида Султон-Саид мазори шайхларига Фарғона ҳукмдорлари ва Бухоро амирлари томонидан тақдим этилган ёрлик (грамота)лар ва бошқа ҳужжатлар матнларидан ҳам унумли фойдаланди. У 144та ҳужжатни ўрганишга муваффақ бўлди. Шу билан бирга китобда халқ орасида юрган афсоналар ва ўтмиш гувоҳлари томонидан шахсан ёзилган ҳикоялари ҳам акс эттирилган эди.

Марказий Осиё тарихининг билимдони В.Р. Розен “Наливкиннинг фойдали асарига бўлган юқори қизиқишни ҳисобга олиб, уни Ўрта Осиё тарихи билан ҳам таниш бўлган Европа жамоатчилиги учун таржима қилинишига аризулик” [22, 126], деб ҳисоблаган. Демак, ўзбек миллий давлатчилигида Қўқон хонлигининг тутган ўрнидан халқаро давлатчилик тажрибасида ҳам фойдаланиш мумкинлиги эҳтимолдан холи эмаслигини тахмин қилиш мумкин.

Асарда асосий эътибор сиёсий тарихга қаратилганлиги боис Қўқон хонлигининг шу даврдаги тарихи сарой фитналари, исёнлари, ҳокимият учун қонли урушлар, хонларнинг қўшни мамлакатларга босқинчилик юришлари сифатида талқин қилинган. Шуни айтиш керакки, хонлик ижтимоий ҳаёти тарихи китобда етарли даражада ёритилмаган бўлсада, унда Фарғона тарихи жуғрофиясига нисбатан кўпроқ берилган, унинг ижтимоий-иқтисодий ва этник тарихига оид бир қанча қизиқарли маълумотлар акс эттирилган. Фарғона водийси аҳолисининг этник таркиби VIII асрдан бошлаб таҳлил қилиниб, ўлка этник харитаси мингйиллик даврдаги шаклланиш жараёни кузатилди. Шу билан бирга “сарт” ва “ўзбек” этнонимларнинг моҳияти ҳақидаги тахминлар, Фарғона аҳолишунослигининг тавсифи берилган.

1886 йилда Қозонда Наливкиннинг “Фарғона ўтроқ маҳаллий (тузем) аёлининг маиший ҳаёти очерки” деган китоби чоп этилган [23]. Наливкин бу асарни умр йўлдоши билан ҳамкорликда тайёрлаган. Китоб Фарғона водийсининг жуғрофик жойлашуви, иқлими ва ландшафти ҳақидаги маълумотлардан бошланади. Муаллифлар Қўқон, Марғилон, Андижон,

Наманган, Ош, Чуст каби йирик шаҳарларни санаб ўтиб, водийнинг бта уездга маъмурий бўлинишини асослаб берганлар. Китобда маҳаллий аҳолининг, хусусан, ҳам аёллар, ҳам эркакларнинг яшаш шароитлари ҳамда ўлканинг тарихи, иқтисоди, жуғрофияси ҳақида батафсил маълумотлар келтирилган. Муаллифларнинг самарали меҳнати натижаси сифатида вужудга келган асар орқали Фарғона водийси аҳолисининг XIX – XX асрлар чегарасидаги ҳаёт тарзи, ундаги ўзгаришлар ҳақида маълумотга эга бўлиш мумкин. Очерк бўлимларининг номланиши бўйича унинг қамраб олган мавзуларига эътибор қаратилса, ўзбек, хусусан, мусулмон хотин-қизларининг аҳволи батафсил келтирилганлигига гувоҳ бўламиз. Ушбу маълумотлар орқали Қўқон хонлигининг давлат сифатида ўзининг ижтимоий функцияси, яъни одамларнинг жамиятнинг маълум бир ривожланиш даражаси учун ўзларининг муносиб мавжудлигини таъминлаш имкониятига эга бўладиган шароитларни яратиб берганлиги ҳақида фикр юритиш мумкин. Шу билан бирга аёлнинг қизиқишлари, оила-никоҳ муносабатлари ва улар билан боғлиқ бўлган маросимлар хусусиятларига эътибор берилган [23, 138].

В.П. Наливкин 1913 йилда Фарғона тарихига бағишланган “Туземцы раньше и теперь” (“Туземцылар (маҳаллий аҳоли) ўтмиш ва ҳозирги даврда”) номли китобини чоп этди Бу тарихий-этнографик тадқиқотда муаллиф Россия мустамлака сиёсатининг ижобий ва салбий томонларини ёритган. Китобда маъмурий ўзбошимчалик, порахўрлик ва амалдорларнинг маиший бузуклик ҳолатлари кўрсатилган [24].

Шундай қилиб, XVIII аср – XIX асрнинг II ярми рус тарихшунослигида Қўқон хонлиги тарихи бўйича илмий шарқшунослик тадқиқотларни тизимлаштирадиган, билим ва тасаввурларни кенгайтирадиган катта фактик материал йиғилди, жиддий асарлар яратилди. Ушбу маълумотлар ва асарларда хонликнинг шаклланиш сабаблари, ривожланиш тамойиллари ва, ҳаттоки, тугатилиш сабоқлари акс эттирилган бўлиб, ўзбек давлатчилиги тарихида муайян ўрин эгаллаган Қўқон хонлигининг муносиб ўрни кўрсатилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ефремов Ф.С. Российского унтер-офицера Ефремова, ныне коллежского асессора, десятилетнее странствование и приключения в Бухарии, Хиве, Персии и Индии и возвращение оттуда через Англию в Россию, описанное им самим. СПб., 1786.
2. Путешествие Мир Иззет Уллы в Кокандское ханство в 1812 году // Труды САГУ. Исторические науки. Вып.78. Кн.2. Ташкент, 1956.
3. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях Средней Азии Ф.Назарова. СПб.,1821.
4. Потанин Н.И. Записки о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1830 годы). // Вестник ИРГО. СПб., 1856. Ч.18. С. 255-289.
5. Савельев П.С. Предисловие к ”Запискам о Кокандском ханстве хорунжего Потанина (1830 годы)” // Вестник ИРГО. СПб., 1856. Ч.18. С. 255-289.
6. Галкин М. Этнографические и исторические материалы по Средней Азии и Оренбургскому краю. СПб., 1869.
7. Макшеев А. Географические, этнографические и статистические материалы о Туркестанском крае // Записки РГО по отделению статистики. СПб.,1871. Т. II.
8. Вельяминов-Зернов В.В. Сведения о Кокандском ханстве // Вестник ИРГО. СПб., 1856. Ч. 18. С.107-152.
9. Вельяминов-Зернов В.В. Исторические сведения о Кокандском ханстве от Мухаммед-Али до Худояр хана // Труды Восточного отделения Русского археологического общества. Ч. 2. СПб., 1856. С. 329-370.
10. Кун А.Л. Некоторые сведения о Кокандском ханстве. // Военный сборник. СПб., 1876. № 4. С. 417-448.
11. Туркестанские ведомости. 1876, №13.
12. Остроумов Н.П. Сарты. Ташкент, 1890.
13. Петровский Н. Очерки Кокандского ханства // Туркестанский сборник. Т. 76. 1873. С. 722-757.
14. Энгельгард Н. Очерки Коканда // Туркестанский сборник. Т. 458. Ташкент, 1908. С. 42-67.
15. Хорошхин А. П. Сборник статей, касающихся до Туркестанского края. СПб., 1876.
16. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. СПб., 1906. Т. II.
17. Наливкин В.П. Очерки земледелия в Наманганском уезде // Туркестанские ведомости. 1880, №№ 11, 13, 15, 18-21, 24, 25, 27-29.
18. Наливкин В.П. Вопросы туземного земледелия // Туркестанские ведомости. 1880, №33, 34.
19. Наливкин В.П. Ферганские пески и их укрепление // Известия РГО. СПб., 1892. Т. XXVIII. С. 142-149.
20. Наливкин В.П. Опыт исследования песков Ферганской долины. Новый Маргелан, 1887.
21. Наливкин В.П. Краткая история Кокандского ханства. Казань, 1886. 215 с.
22. Розен В.Р. Рец. на кн.: ”Краткая история Кокандского ханства. Сост. В.П. Наливкин” // Записки Восточного отделения Русского археологического общества. СПб., 1889. Т. IV.

23. Наливкин В.П., Наливкина М.В. Очерк быта женщин оседлого туземного населения Ферганы. Казань, 1886. 125 с.

24. Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. Ташкент, 1913. 144 с.

УДК 94.54

ИСТОРИОГРАФИЧЕСКИЙ ОБЗОР И ИСТОЧНИКОВЕДЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТАНОВЛЕНИЯ, ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ДВИЖЕНИЙ ЗА НЕЗАВИСИМОСТЬ В ИНДИИ И ПАКИСТАНЕ

*Р.Ш.Садыкова, независимый исследователь, Национальный Университет Узбекистана,
Ташкент*

Annotatsiya. Ushbu maqola Hindiston va Pokistondagi mustaqillik harakatlari tarixshunosligi va manba bazasining keng qamrovli tadqiqotini o'z ichiga oladi. Ishda Britaniya imperiyasining mustamlaka siyosati kontekstida ozodlik harakatlarining shakllanishi, rivojlanishi va taraqqiyotining asosiy bosqichlari tahlil qilinadi. Hind va Pokiston milliy-ozodlik harakatlarining qiyosiy tahliliga, ularning g'oyaviy asoslari va kurash strategiyalariga alohida e'tibor qaratiladi. Keng ko'lamli manbalar va tarixshunoslik materiallari asosida ushbu mavzuni o'rganishning asosiy tendensiyalari aniqlanadi, munozarali masalalar va kelajakdagi tadqiqotlarning istiqbolli yo'nalishlari belgilanadi.

Kalit so'zlar: Hindiston, Pokiston, mustaqillik harakati, mustamlakachilik, milliy ozodlik kurashi, tarixshunoslik, manbashunoslik, Britaniya imperiyasi

Аннотация. Данная статья представляет собой комплексное исследование историографии и источниковой базы движений за независимость в Индии и Пакистане. В работе анализируются ключевые этапы становления, формирования и развития освободительных движений в контексте колониальной политики Британской империи. Особое внимание уделяется сравнительному анализу индийского и пакистанского национально-освободительных движений, их идеологическим основам и стратегиям борьбы. На основе широкого спектра источников и историографического материала выявляются основные тенденции в изучении данной проблематики, определяются дискуссионные вопросы и перспективные направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: Индия, Пакистан, движение за независимость, колониализм, национально-освободительная борьба, историография, источниковедение, Британская империя

Abstract. This article is a comprehensive study of the historiography and source base of the independence movements in India and Pakistan. The paper analyzes the key stages of the formation, formation and development of liberation movements in the context of the colonial policy of the British Empire. Special attention is paid to the comparative analysis of the Indian and Pakistani national liberation movements, their ideological foundations and strategies of struggle. Based on a wide range of sources and historiographical material, the main trends in the study of this problem are identified, controversial issues and promising areas for further research are identified.

Keywords: India, Pakistan, independence movement, colonialism, national liberation struggle, historiography, source studies, British Empire

Введение. Движения за независимость в Индии и Пакистане представляют собой одни из наиболее значимых и драматических эпизодов в истории деколонизации XX века. Процесс обретения независимости этими странами не только изменил политическую карту Южной Азии, но и оказал глубокое влияние на глобальные геополитические процессы, став катализатором распада колониальной системы в целом.

Актуальность данного исследования обусловлена несколькими факторами. Во-первых, несмотря на значительный объем научной литературы по данной теме, многие аспекты становления и развития движений за независимость в Индии и Пакистане остаются предметом острых дискуссий среди историков. Во-вторых, сравнительный анализ индийского и пакистанского опыта борьбы за независимость позволяет выявить общие закономерности и специфические черты национально-освободительных движений в колониальных странах. В-

третьих, изучение источниковой базы и историографии данной проблематики способствует более глубокому пониманию современных политических процессов в Южной Азии, многие из которых уходят корнями в колониальное прошлое.

Методы и обзор литературы. Настоящее исследование базируется на комплексном подходе к анализу историографии и источников по теме движений за независимость в Индии и Пакистане. Методологическая основа работы включает в себя следующие ключевые компоненты:

Историографический анализ: применяется для систематического изучения эволюции научных взглядов на проблему становления и развития движений за независимость в Индии и Пакистане. Этот метод позволяет выявить основные тенденции, школы и направления в исследовании данной темы, а также проследить изменения в интерпретации ключевых событий и процессов.

Источниковедческий анализ: используется для критического рассмотрения и оценки различных типов исторических источников, относящихся к изучаемой проблеме. Особое внимание уделяется анализу достоверности, репрезентативности и информативности источников.

Сравнительно-исторический метод: применяется для выявления общих черт и особенностей в развитии движений за независимость в Индии и Пакистане, что позволяет более глубоко понять специфику каждого из этих движений.

Проблемно-хронологический подход: используется для структурирования исследования в соответствии с ключевыми проблемами и этапами развития освободительных движений в хронологической последовательности.

Междисциплинарный подход: предполагает использование концепций и методов из смежных дисциплин, таких как политология, социология и культурология, для более комплексного анализа изучаемых явлений.

Историография движений за независимость в Индии и Пакистане обширна и многогранна. Ее можно условно разделить на несколько основных периодов и направлений.

Колониальная историография (до 1947 г.). Работы этого периода характеризуются преимущественно проимперской ориентацией и стремлением обосновать необходимость британского правления в Индии. Ключевыми представителями данного направления являются Джеймс Милль [1] и его "История Британской Индии", а также труды Винсента Смита [2]. Эти авторы рассматривали индийское общество как отсталое и нуждающееся в цивилизаторской миссии Британии.

Национальная историография раннего периода независимости (1947-1960-е гг.). После обретения независимости в историографии Индии и Пакистана наблюдается всплеск интереса к национально-освободительному движению. Работы этого периода часто носят апологетический характер по отношению к лидерам освободительного движения. В Индии это проявляется в работах Тары Чанда [3] и Бипана Чандры [4], посвященных роли Индийского национального конгресса и Махатмы Ганди. В Пакистане особое внимание уделяется деятельности Мухаммада Али Джинны и Мусульманской лиги, что отражено в работах Исхтияка Хусейна Куреши [5].

Критическая историография (1970-е - 1990-е гг.). Этот период характеризуется более критическим подходом к изучению движений за независимость. Историки начинают уделять больше внимания социально-экономическим аспектам освободительной борьбы и роли масс. Важный вклад в развитие этого направления внесли представители "кембриджской школы" индийской истории, такие как Анил Сил [6] и Джон Галлахер [7]. В индийской историографии появляются работы, критически переосмысливающие роль Ганди и Конгресса, например, исследования Сумита Саркара [8].

Постколониальные исследования (с 1980-х гг. по настоящее время). Развитие постколониальной теории оказало значительное влияние на изучение движений за независимость. Работы Эдварда Саида [9], Гаятри Спивак и Хоми Бхабха заложили основу для нового понимания колониальных и постколониальных процессов. В рамках этого направления

особое внимание уделяется вопросам идентичности, культурного взаимодействия и дискурсивных практик колониализма.

Результаты. В ходе проведенного исследования были получены следующие ключевые результаты, касающиеся историографии и источниковедческого анализа движений за независимость в Индии и Пакистане:

Сравнительный анализ выявил как общие черты, так и существенные различия в развитии движений за независимость в Индии и Пакистане:

а) Общие черты:

- Антиколониальная направленность и стремление к самоопределению.
- Использование методов ненасильственного сопротивления, особенно на ранних этапах.
- Влияние западного образования на формирование национальной элиты.
- Роль религиозного фактора в мобилизации масс.

б) Различия:

• Идеологические основы: светский национализм в Индии против исламского национализма в Пакистане.

• Организационная структура: массовое движение под руководством Индийского национального конгресса в Индии против более элитарного движения Мусульманской лиги в Пакистане.

• Стратегии борьбы: акцент на массовые кампании гражданского неповиновения в Индии против фокуса на политические переговоры и конституционные реформы в Пакистане.

• Роль лидеров: харизматическое лидерство Ганди в Индии против прагматичного подхода Джинны в Пакистане.

Эти результаты демонстрируют сложность и многогранность историографии и источниковедения движений за независимость в Индии и Пакистане, открывая новые перспективы для дальнейших исследований в этой области.

Анализ и обсуждение. Проведенное исследование историографии и источниковедческого анализа движений за независимость в Индии и Пакистане позволяет сделать ряд важных аналитических наблюдений:

Динамика историографических подходов. Эволюция историографических подходов от колониальной перспективы к национальным нарративам, а затем к критическим и постколониальным исследованиям отражает не только изменения в политическом контексте, но и развитие методологии исторической науки. Эта динамика демонстрирует, как интерпретация исторических событий может меняться под влиянием социально-политических факторов и теоретических парадигм.

Сравнительный анализ движений в Индии и Пакистане. Сравнительный анализ выявил как общие черты, так и существенные различия в развитии движений за независимость в Индии и Пакистане. Общая антиколониальная направленность и использование методов ненасильственного сопротивления свидетельствуют о схожих условиях и влияниях, которым подвергались оба движения.

Однако различия в идеологических основах (светский национализм против исламского национализма) и организационных структурах (массовое движение против более элитарного) указывают на глубокие социокультурные и религиозные различия между двумя частями бывшей Британской Индии. Эти различия во многом предопределили последующее разделение субконтинента и различные траектории развития Индии и Пакистана после обретения независимости.

Результаты исследования подчеркивают важность рассмотрения движений за независимость в Индии и Пакистане в глобальном контексте антиколониальной борьбы. Это поднимает вопросы о взаимовлиянии различных национально-освободительных движений, роли международных факторов (таких как мировые войны и холодная война) в процессе деколонизации, а также о месте индийского и пакистанского опыта в глобальной истории XX века.

Выводы. Эволюция историографических подходов от колониальных нарративов к постколониальным исследованиям отражает не только изменения в политическом и социальном контексте, но и развитие методологии исторической науки. Эта эволюция способствовала более глубокому и нюансированному пониманию сложности процессов деколонизации. Расширение и диверсификация источниковой базы, включая использование устных свидетельств, визуальных материалов и документов массовых организаций, позволили создать более полную и многогранную картину освободительных движений. Это особенно важно для включения "голосов снизу" и перспектив маргинализированных групп.

Сравнительный анализ движений за независимость в Индии и Пакистане выявил как общие черты антиколониальной борьбы, так и существенные различия в идеологических основах и организационных структурах. Эти различия во многом предопределили последующие траектории развития двух стран после обретения независимости. Роль религии в формировании национальной идентичности и мобилизации масс оказалась одновременно объединяющим и разделяющим фактором, что наиболее ярко проявилось в процессе раздела Индии. Это подчеркивает сложность взаимодействия религиозных и национальных идентичностей в контексте антиколониальной борьбы.

В заключение можно отметить, что изучение движений за независимость в Индии и Пакистане остается актуальной и динамично развивающейся областью исторических исследований. Дальнейшее развитие этого направления требует не только углубленного анализа исторических источников, но и критического осмысления методологических подходов и теоретических парадигм. Это позволит не только лучше понять исторические процессы деколонизации, но и внести вклад в осмысление современных глобальных вызовов, связанных с наследием колониализма и проблемами национального самоопределения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Mill, J. (1817). *The History of British India*. London: Baldwin, Cradock, and Joy.
2. Smith, V. A. (1919). *The Oxford History of India: From the Earliest Times to the End of 1911*. Oxford: Clarendon Press.
3. Chand, T. (1961). *History of the Freedom Movement in India*. New Delhi: Publications Division, Ministry of Information and Broadcasting, Government of India.
4. Chandra, B. (1966). *The Rise and Growth of Economic Nationalism in India*. New Delhi: People's Publishing House.
5. Qureshi, I. H. (1962). *The Muslim Community of the Indo-Pakistan Subcontinent (610-1947): A Brief Historical Analysis*. The Hague: Mouton & Co.
6. Seal, A. (1968). *The Emergence of Indian Nationalism: Competition and Collaboration in the Later Nineteenth Century*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Gallagher, J., & Seal, A. (1981). Britain and India between the Wars. *Modern Asian Studies*, 15(3), 387-414.
8. Sarkar, S. (1983). *Modern India 1885–1947*. Madras: Macmillan India Limited.
9. Said, E. W. (1978). *Orientalism*. New York: Pantheon Books.

УЎК 94(5)

ҚЎҚОН ХОНЛИГИ ТАРИХИДА ПУЛ СИЁСАТИ МАСАЛАСИ

З.Н.Хатамова, доц., PhD, Тошкент ахборот технологиялари университети Фаргона филиали, Фаргона

Аннотация. Мақолада 1709-1875 йилларда Марказий Осиёда муҳим ўрин тутган давлатлардан бири-Қўқон хонлигининг пул сиёсати ҳақида баён этилган. Архив хужжатлари ва қўлёзма манбаларга таяниб хонликда пул зарб этилиши ва унинг сиёсий бошқарувга таъсири, ҳар бир янги ҳукмдор томонидан зарб этилган пуллар ҳақида қизиқарли фактлар далилланган.

Калит сўзлар: Танга, мис, фулус, хон, иқтисод.

Аннотация. В статье описывается монетарная политика Коканского ханства, одного из важных государств Средней Азии, в 1709-1875 гг. На основе архивных документов и рукописных источников доказаны интересные факты о чеканке денег в ханстве и их влиянии на политическое управление, монеты, чеканенные каждым новым правителем.

Ключевые слова: Монета, медь, фулус, хан, хозяйство.

Abstract. The article describes the monetary policy of the Kokan Khanate, one of the important states of Central Asia, in 1709-1875. Based on archival documents and handwritten sources, interesting facts about the minting of money in the Khanate and their influence on political governance, coins minted by each new ruler, have been proven.

Key words: Coin, copper, fulus, khan, economy.

Кириш. Қўқон хонлигида пул сиёсати тадқиқ этилганида, Норбўтабий давридан бошлаб Олимхон хукмронлиги ва кейинги хонлар даврида бу давлатда ўрганишга арзийдиган монетар сиёсатни амалга оширилганлиги маълум бўлади. Ушбу сиёсат орқали пул муомаласини тартибга солиш муҳим аҳамиятга эга бўлди. Хонликда амалга оширилган пул ислохотлари ёки сиёсати молия соҳасини тартибга солиш усулларида бири сифатида жамиятда ўзига хос тартибларни ярата бошлади.

Мавзунинг долзарблиги. Қўқон хонлиги тарихида амалга оширилган монетар сиёсатлар, биринчидан, пул ислохотлари ўтказиш натижасида давлат иқтисодий тартибга солиш билан бирга хоннинг сиёсий мавқеини ҳам мустақамлашга хизмат қилиши лозим эди. Иккинчидан, иқтисодий ривожлантиришда пул ҳажми ва сифатини тартибга солиш жараёнлари вужудга келди, хатто энг сўнгги даврда зарб қилинган кумуш тангаларнинг таркибида 50 фоиз бўлса ҳам кумуш мавжуд бўлмаган. Учинчидан, Қўқон хонлиги монетар сиёсати халқаро дипломатик алоқаларда ҳам ўзи аксини кўрсатди. Масалан, Умархон хукмронлиги йилларида зарб этилган олтин тангалар Қўқон хонлиги худудидан топилмаган бўлсада, Россия худудидан топилганлиги халқаро савдода олтин тангалар кенг муомалада бўлганлигини тасдиқлайди. Бу эса, Россия ва Қўқон хонлиги ўртасида йирик савдо айирабошлаши бўлганлиги ва асосан алоқа воситаси сифатида олтин тангалар ишлатилганлигини далиллайди.

Тўртинчидан, Қўқон хонлиги монетар сиёсатида пул инструментлари, зарб қилиш техникаси масалаларини таҳлил этиш ҳам Хонлик пул ислохоти тарихига тегишли бўлган ўрганилмаган жиҳатлардир.

Тажриба қисми. Хонлик тангаларини ўрганиб чиқилганда, илк зарб қилинган тангаларга нисбатан кейинги давр тангаларида ёзувлар кўпайиб боради. Норбўтабек даврида зарб қилинган илк тангалар 1785 йил зарб этилган мис чақалар бўлиб уларда фақат бир тарафида *хайр бод* деб ёзилган. Хижрий *1210 наврўз* деб ёзув тушурилган тангалар эса кейинроқ зарб этилганлиги учунми балки, орқа тарафида ҳам ёзув бор. Лекин ёзув ўчиб, тушунарсиз холатга келиб қолган. Норбўтабек даврига оид топилган учинчи мис тангада эса, *фулуси роиж* ёзилган, орқасида *1215* деб сана қўйилган. Қўқон хонлиги тангаларидан биргина шу ҳукмдор вақтида тангага хоннинг исми ёзилмаган. Қўқон хонлиги молия тизимида пул ислохотларининг ўтказилиши Норбўтабий хукмронлиги давридан кўзга ташланиши ҳақида Б.Бабаджанов : “Қўқон хонлигида биринчи танга Норбўтабек хукмронлиги 1190/1776-77 йилларга тўғри келади. Иккинчи танга 1210/1795-96 йилларга тўғри келади. Бу тангалар оғирлиги, сифати, ёзуви қисқалиги билан Хоразм, Бухоро тангаларига ўхшаш бўлган” – деб кайд этади[1.1.101.].

Норбўтабек танга пулларни зарб эттиргунигача Қўқон хонлигида пуллар ишлатилмаганми деган савол туғилиши табиий. Уларнинг хукмронлиги давларида мамлакатда Бухоро хонлиги томонидан зарб этилган танга пуллар муомалада бўлган. Бунга асосий сабаб хонлик мустақил ажралиб чиққан бўлсада, хали молиявий кудратга эга эмас эди. Бу даврда хонлик молиявий ҳаётида Бухоро хонлиги танга пуллари амалда бўлганлиги сабабли бу пуллар ҳақида қуйида қисқача маълумотлар келтирилмоқда.

Филип Ефремов 1805 йилда Ўрта Осиёнинг бир қанча шаҳарларига келган. Бухоро хонлигида бўлган вақтида мамлакатдаги пул ва уларнинг турлари ҳақида қизиқарли маълумотларни берган[2.1.70.]. “Бухорода мис, кумуш, олтин пуллар бор. Мис танга қарапул деб аталади. Кумуш танга ўн қарапул. Кумуш танганинг ярми мисдан иборат. Олтин ашрафи ёки тилла дейилади. Бир ашрафи 30 тангага тенг бўлган. Бухоро червонци ҳам мавжуд.” Бизнингча, қарапул деб ёзилганда қарапул тушунилиши керак. Бир олтин танга 30 кумуш

пулга тенг бўлганлиги ҳамда 30 танга, яъни бир тилла бу 300 қорапулга-мис тангага тенг эканлигини билиш мумкин.

Бухоро хонлигида олтин тангаларни *ашрафи* деб номланиши Е.А.Давидович ва А.Женкинсон маълумотларида ҳам қайд этилган. Е.А.Давидович 1507-1509 йиллардаги пулларни 9 та олтин ва 2739та кумуш тангаларни гуруҳлаштириш жараёнида *ашрафи* терминини ишлатган[3.1.6.]. 1558-1560 йилларда Бухорога келган садогар-саёхатчи А.Женкинсон XVI асрда Ўрта Осиёдаги пул турлари ва таркиби ҳақида муҳим маълумотларни келтиришда олтин тангалар ҳақида ҳам тўхталган.

Бухоро хонлигида олтин, кумуш ва мисдан тангалар зарб қилишган. Манғитлар давлати йиқитилишидан олдин қоғоз пуллар ҳам чиқарилган. Олтин тангалар - ашрафий ёки тилла, кумуш тангалар - танга, мис тангалар - мис пул, қора пул деб юритилган. Амирлик ағдарилишидан олдин кўплаб турли қимматдаги - 5, 10, 20 танга қимматидаги мис тангалар зарб қилинган. Уларни танга деб аташган[4.1.162-187.].

Олинган натижалар таҳлили. Қўқон хонлиги молия тизимида пул ислохотлари тарихини ўрганиб таҳлил этилганида ҳар бир хон пул зарб этишда ўз услубига эга бўлган. Масалан, Норбўтабий даврида фақат мис тангалар зарб қилинган. Олимхон ҳукмронлиги даврида мис, кумуш-мис дирҳамлар ишлаб чиқарилган. Умархон ҳукмронлигининг илк даврларида амалга оширилган пул ислохотида мис ва паст даражали кумуш мир ва кумуш дирҳамлар зарб қилинган. Умархон ҳукмдорлигининг сўнгги йилларида зарб этилагн пуллар олдингиларига нисбатан сифатли, яъни, юқори пробали кумуш ва тилладан зарб этилганлиги маълум бўлди.

